8. Qizi, Q. N. S., Ugli, K. N. S., & Muhiddinovna, H. H. (2017). *Do schools kill creativity?*. *International scientific review*, (5 (36)), 104-106.
9. Мо'минов, С. (2022). “ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–ЕНГИЛМАС КУЧ” АСАРИДА РАҲБАР МАЪНАВИЯТИ, МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА АЙТИЛГАН ФИКРЛАР. «ФИЛОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ.
10. Kakharov, K., & Usmonova, M. (2022). *Nonverbal Means of Uzbek and English Speech Etiquette*. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(5), 61-65.

KEÑESBAY KARIMOV LIRIKASINDA STILISTIKALIQ FIGURALAR AMPLIFIKACIYA HÁM PARALLELIZMNIŇ KÓRKEMLIK XIZMETI

Aralbaeva Qalbiyke- QMU

Ádebiyattanıw: qaraqalpaq ádebiyatı 2-kurs magistrantı

ANNOTACIYA

maqalada shayır K.Karimovtıń lirikasındaǵı stilistikalıq figuralar, olardıń kórkemlik xızmeti tuwralı pikirler hám analizler ilimiy-teoriyalıq miynetlerge súyenip jazıldı.

Gilt sózler: stilistikalıq figura, amplifikaciya, parallelizm, sintaksislik sinonim, ritorikalılıq, kóp sózlilik, ekspressivlik.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ СЛУЖБА СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФИГУРЫ: АМПЛИФИКАЦИЯ И ПАРАЛЛЕЛИЗМА В ПОЭЗИИ КЕНГЕСБАЯ КАРИМОВА

АННОТАЦИЯ

в статье на основе научно-теоретических работ написаны стилистические фигуры в поэзии Кенгесбая Каримова, мнения и анализы об их художественной деятельности.

Ключевые слова: стилистические фигуры, амплификация, параллелизм, синтаксический синоним, экспрессивный, многоречием, риторический.

THE ARTISTIC SERVICE OF THE STYLISTIC FIGURES: AMPLIFICATION AND PARALLELISM IN KENGESBAY KARIMOV'S POETRY

ANNOTATION

In the article, the stylistic figures in Kengesbay Karimov's poetry, opinions and analyzes about their artistic service were written based on scientific-theoretical works.

Key words: *stylistic figures, amplification, parallelism, syntactic synonym, expressive, verbosity, rhetorical.*

Lirikaliq shıǵarmalarda pikirdiń kórkemligin, qosıq formasınıń ózgesheligin támiyinleytuǵın, qosıqta hám mazmunlıq, hám formalıq jaqtan obrazlılıqtı támiyinleytuǵın poetikalıq formalardıń bir túri – bul stilistikalıq figuralar. Stilistikalıq figuralardıń birqansha túrleri bar. Olar: anafora, epifora, alliteraciya, assonans, ellipsis, parallelizm, gradaciya hám t.b. Biz bul maqalamızda shayır K.Karimov lirikasında qollanılǵan stilistikalıq figuralardıń, atap aytqanda amplifikaciya hám parallelizmnıń kórkemlik xizmetine talqı jasawdı maqset ettik.

Stilistikalıq figuralardıń ishinde eń ónimli qollanılatuǵın túrleriniń biri bul amplifikaciya. Amplifikaciya (lat: tarqatıw, keńeytiw) – stilistikalıq figura bolıp, ol salıstırıw, obrazlar, sinonimler, mániles frazalar, antiteza, ekspressivlikti asırıwshı bir toparǵa tiyisli birliklerdi óz ishine aladı[1.67].

Ádebiyatshılar bul stilistikalıq figuranı hár qıylı ataydı; birinshi ataması baylanıstırıw, toplaw, jıynaw, taǵı bir ataması arttırıw («нагнетанием» А. П. Квятковский), úshinshi túrdegi ataması ritorikalılıq, kóp sózlilik («многоречием», «велеречием» В.И.Даль). Al, ádebiyatshı V.M.Jirmunskiy amplifikaciyanıń tásir kúshi, lirikalıq sezimlerdi kúsheytiwdegi roli, ondaǵı romantikalıq stilge tán belgiler tuwralı bılay deydi: «Ощущение переизбыточного лирического волнения, нагромождающего все новые и новые образы, ввиду невозможности до конца выразить в словах всю напряженность и яркость этого волнения, есть признак стиля романтического»[2. 408].

Amplifikaciyanıń tiykarǵı xizmeti ekspressivlikti arttırıw. Ol bir pikirdi ańlatıwda mániles, túrles, sinonim sózlerdiń bir shuwmaqta yamasa qatarda

qollanılıwı arqalı jıyı bildiriledi. Shayır qosıqlarında qollanılğan amplifikacijalarğa mısıl keltireyik:

*Bul ájayip máwrit, sıyqırlı súwret,
Ómir dep atalmısh shınjırdıń sebi,
Nesip etkenge gúz taǵı keledi. [3.3]*

Mısalda qosıq gúz haqqında bolıp, onda sóz etilip atırǵan baslı tema, gúz shuwmaqtıń dáslepki qatarında awıspalı mánidegi ájayip máwrit hám sıyqırlı súwret sózleri menen táriyplenip, shuwmaq sońında gúz sózi qollanılǵan. Bunda gúzdiń obrazlılıǵın táminlew maqsetinde shayır onı ájayip máwrit, sıyqırlı súwret dizbekleri, amplifikacijaları menen qayta ataǵan. Bul bolsa gúzdiń tábiyiy qásiyetlerin bayanlawda kórkemlik xızmet atqarıp kelgen. Sonday-aq, amplifikacijalar sinonim sózler hám teńewlerdiń dizbeklesip keliwi arqalı da obrazlılıqtı támiyinleydi. Mısalı:

*Mágar yaratqanǵa qullıq qılsın dep,
Inta, ıqlas berdi, sana jarattı.
Súygen bendesiniń tóǵıp kóz jasın,
Kókiregin appaq, sada jarattı[3.14].*

Dáslepki shuwmaqta táńriniń insandı jaratıwdıǵı káramatın, saqıylıǵın, qúdiretin obrazlı sáwlelendiriwde shayır sinonim sózlerden paydalanǵan. Dáslepki shuwmaqtaǵı inta, ıqlas sózleri óz ara sinonimles bolıp, ol insandaǵı ayrıqsha qásiyetlerden esaplanadı, bul ekewi de sanada sáwlelenedi. Bul eki sóz jeke halında sinonim bola almaǵanı menen, kontekstte sana menen birgelikte úshewi de insanǵa táńri tárepinen berilgen inam, qásiyet sıpatında súwretlenip, insan miyi hám ruwxındaǵı qubılıslardı sáwlelendiriwshi ózgeshelikler etip kórsetiledi. Kókiregin appaq, sada jarattı dizbekleri de óz ara sinonim bolıp kelip, insandaǵı qásiyetler hám jaratılısı haqqında kórkem pikirdi táminlewge xızmet etken. Mısaldaǵı inta, ıqlas, sana, aq kókirek, sada amplifikacijalarınıń dizbeklesip, kontekstlik sinonim bolıp qollanılıwı arqalı, insanniń ruwxı hám sanasındaǵı bir-biri menen óz ara tıǵız baylanısatuǵın ózgeshelikler, olardı jaratıwshınıń saqıylıǵı, káramatı obrazlı súwretlengen.

Amplifikaciyalar jeke sózler arqalı ańlatılmaydı, olar birneshe sózlerdiń dizbeklesip, bir predmetke, obrazǵa yamasa lirikalıq qaharmanǵa teńeliwi arqalı da kórkemlik xizmet atqarıwı múmkin. Mısalı:

*Meyli ol argımaq, meyli algır baz,
Jamalı jaz kibi gózzal sarbinaz,
Basında aylanıp, tolǵanıp bir-az,
Bir kún kelip onı tabadı dáwrán[3.28].*

Shuwmaqtaǵı argımaq, algır baz, sarbinaz sózleri teńestiriwshi xizmetin atqarıp kelip, úshewi de dáwrán sózine baylanıslı qollanılǵan. Avtor dáwrandı argımaqqa, algır baz, gózzal sarbinazǵa teńew arqalı dáwrannıń qımbatlı, qádirli ekenligin kórkem pikir menen ańlatıwdı maqset etken. Obrazlılıqtı táminlewde bolsa amplifikaciya birneshe teńewlik mániidegi sózlerdiń dizbeklesiw arqalı kórkemlik xizmet atqarıp kelgen.

K.Karimov lirikasında pikirdiń kórkemligin táminlewde jıyı qollanılatuǵın stilistikalıq figuralardıń jáne bir túri bul parallelizm. Parallelism – stilistikalıq figura bolıp, tákirarlanıwshı kórinis, qurılısı uqsas bolǵan sintaksislik birlikler, gáp bólekleri; uqsas, jaqın qubılıslardı, sintaksislik parallelizmdi ańlatadı. Sintaksislik parallelism bir model tiykarında gáp yamasa sóz dizbeklerin dúzedi[1.167].

Shayır K.Karimov lirikasında parallelizmler obrazlılıqtı táminlewde, kórkem pikirdi jetkerip beriwde ónimli qollanılǵanın bayqawǵa boladı. Shayır qosıqlarında qollanılǵan parallelizmlerge misal keltireyik:

*Jasıl japraqlardıń sarǵaymaǵı bar,
Shadıqtıń izinen ileser qayǵı.
Suwlar bir dem tınıp turmaydı zınhar,
Urlap ómirimdi jullar zırlaydı[3.7].*

Qosıqta baslı tema waqıt, onıń jeldey ótiwi, insandı balalıq, jaslıq vokzallarınan alıp ótip, sońǵı mánzillerge qaray baǵdarlawı tábiyat qubılısları hám ómir zańların parallel súwretlew arqalı sáwlelendirilgen. Shayır waqıttıń ózine tán

qásiyetin, onıń insan ómirindegi tutqan ornın kórkem bayanlaw maqsetinde birneshe qubılıslardı parallel súwretleydi.

*Súyrikler erjetip qamısqa dóndi,
Ballar jigit bolıp namısqa dóndi
Súyrik barmaq qızlar qushaqqa endi,
Neni eslerime saldıń súyrikler[3.24].*

*Adam úmit etti,
Aspanğa qarap:
– Bulaq dárya bolsa,
Daraq – baǵ bolsa.*

*Waqt samalları esti bir tınbay
Bulaq tındı,
Quwradı daraq,
Adam óldi. Úmit
ólmedi biraq[3.48].*

Joqarıdaǵı mısallardıń dáslepkesinde suwda ósetuǵın shóplerdiń biri súyriktiń erjetiwı menen awıl balalarınıń erjetiwı turmıslıq qubılıs, waqt zańı fonında obrazlı súwretlengen bolsa, ekinshi mısaldaǵı qosıq, «Úmit» allegorıyalıq usılda jazılǵan bolıp, onda insannıń úmiti, isenimi, onıń gumanistlik ideyaları ólmeytuǵınlıǵı haqqında aytıladı. Qosıqta insan, daraq hám bulaq tábiyattıń bir bólegi sıpatında súwretlenedi. Insannıń niyet penen ekken teregi quwraydı, bulaǵı aǵıwdan toqtaydı, sońında adamnıń ózi de óledi. Shayır insan úmiti, jaqsı niyet, gumanistlik ideyalar mángi jasaytuǵınlıǵın, sol ideyalardı ámelge asırıw jolında tábiyat perzentleri bolǵan adam, bulaq, terekti parallel súwretlew arqalı qosıq ideyasın kórkem bayanlawǵa háreket etken.

Juwmaqlap aytqanda K.Karimov lirikasında stilistikalıq figuralar qosıqtıń kórkemligin arttırıwda, avtor ideyasın, pikirin kórkemlep jetkerip beriwde sheber

qollanilgan. Maqalamızda sóz etken amplifikaciya hám parallelizm shayır lirikasında jıyı ushırasadı. Amplifikaciyalar shayır qosıqlarında kóbirek sinonim hám teńewlerdiń dizbeklesiwi arqalı qollanilgan bolsa, parallelizmler kóbirek waqıt obrazın, onıń qásiyetlerin sáwlelendiriwde birneshe predmetlerdi, qubılıslardı parallel súwretlew arqalı qollanilganlıgına shayır qosıqların tallaw barısında gúwa boldıq. Bul bolsa shayırdıń stilistikalıq figuralardı qollanıwdağı sheberligin hám ózine tán stilin kórsetedi.

PAYDALANILGAN ÁDEBIYATLAR

- 1. Рыжкова-Гришина Л. В., Гришина Е. Н. Художественные средства. Изобразительно-выразительные средства языка и стилистические фигуры речи. Москва. «Флинта», 2015.*
- 2. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1977.*
- 3. Каримов К. Қарақалпақ елим мениң. Ташкент. «Янги китоб», 2020.*

QARSHI SHAHRI SHAROITIDA INTRODUKSIYA QILIGAN *HIBISCUS SYRIACUS* L. NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.L. Raximov, N. Yu. Xudoyqulova

Qarshi davlat universiteti. Qarshi. O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Hibiscus syriacus L.ning tabiiy va madaniy holda tarqalishi, introduksiya sharoitida gullashi, forma va navlarining ekologik omillarga bardoshligi, yorug‘sevarlik, issiq va sovuqqa bardoshlilik, zararli mikroorganizmlarga, tuproqdagi qurg‘oqchilikka bardoshlilik o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Gulxayridoshlar, Malvaceae Juss., Hibiscus syriacus L., suriya gibiskusi, bioekologik, forma, nav, genetik, mikroorganizm, tuproq, qurg‘oqchilik, manzaralilik, atmosfera, ekstremal, Introduksiya.

O‘simlik doimiy ravishda muhit omillarining ta’sirida bo‘ladi. Uning tashqi muhitga chidamliligi turning genetik belgilari bilan mustahkamlangan bo‘lib, u ekstremal sharoitda aniq namoyon bo‘ladi [1; 42-77-b.]. O‘simlikning issiq va sovuqqa bardoshi uning muayyan sharoitda o‘stirish istiqbolini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri [2; 7-67-b.].

Tadqiqotimiz obyekti Gulxayridoshlar (Malvaceae Juss.) oilasiga mansub Siriya gibiskusi (*Hibiscus syriacus* L.), bo‘yi 5-6 m balandlikdagi buta yoki kichikroq daraxt. Tabiiy holda Xitoy, Hindiston va Kichik Osiyoda tarqalgan [3; 736-b.]. Madaniy holda Yer sharining tropik va subtropik mintaqalarida o‘stiriladi. Jumladan, Afrika, Amerika, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, MDH da keng tarqalgan. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra *H. syriacus* L. Siriya atirguli, Siriya malvasi, Ketmiya kabi nomlar ataladi [3; 736-b.].

Eramizgacha yoki eramizning boshida O'rta Osiyo va Tibet orqali Shimoliy Xitoydan Yevropaga keltrilgan [4; 28-29-b.]. O'zbekistonga jumladan Samarqandga 1894 yildan, Janubiy O'zbekistonga dastlab 1930 yillarda Denov dendrariysida iqlimlashtirilgan. Qashqadaryoga 1980 yillarda Qarshi cho'lini o'zlashtirish davrida keltirilgan. Ayni paytda Janubiy O'zbekistonning barcha iqlimiy zonalari quruq subtopik, cho'l, dasht, tog' oldi rayonlarida o'stiriladi [5; 122-123-b.].

Hibiscus syriacus L.- bizning sharoitimizda 2 ta forma va 10 ta navi o'stirilmoqda. Madaniy holda o'stirilgan hududlarda ularning ekologik omillarga bardoshligi, iqlim ko'rsatkichlari bir-biridan keskin farq qiladigan turli regionlarda ham o'zining ekologik plastikligi yuqori bo'lganligi sababli bemalol o'sishi qayd qilindi.

Suriya gibiscusining yorug'sevar o'simlik ekanligi, ochiq joyda o'stirilganda u juda yaxshi o'sishi, Qarshi shahrida gullashni 22-25 maydan boshlashi va oktyabr va noyabr oylarigacha, 150-155 kun gullashi, quyoshning yuqori harorati ta'siriga ham bemalol bardosh berishi qayd qilindi.

H. syriacus ning zararli mikroorganizmlarga, tuproqdagi qurg'oqchilikka bardoshli ekanligi, lekin sug'oriladigan joylarda manzaralilik darajasi yuqori ekanligi qayd qilindi.

Tadqiqotlarda sanoat korxonalarini va magistral yo'l yoqalarida ekilgan *H. syriacus* chang va chiqindilarni ushlab qolish qobiliyati va bunday salbiy ta'sirlarga bardoshi juda yuqori ekanligi isbotlandi. Shahardagi ifloslangan atmosfera havosi va tuprog'i ta'sirida o'zining manzarasini yo'qotmasligi qayd qilindi. Natijada bunday joylarda suriya gibiskusi nafaqat manzarali o'simlik sifatida, balki atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Bizning tadqiqotlarimizda *H. syriacus* ning barcha navlari O'zbekiston sharoitida namsevar va issiqsevar, jazirama issiq va sovuq haroratga bardoshlilik aniqlandi. Yoz mavsumida har hafta qondirib sug'orishni talab qiladi. Yozning jaziramasida bemalol o'sadi va rivojlanadi. Qarshi sharoitida esa barglarining cheti

issiqdan qisman zararlanadi. Toshkentda bu holat kuzatilmaydi. Ekstremal davrda gullarining ochilishi sekinlashadi, jazirama issiq tugagach, ular qaytadan bo‘liq gullaydi.

Introduksiya sharoitida *H. syriacus* ning sovuqqa bardoshi bo‘yicha aniq xulosaga kelish imkoniyati yaratildi. 2007/2008 yillar qishida Toshkentda havo harorati -28°C , Qarshida esa -30°C , ayrim joylarida -34°C gacha tushib ketdi.

Qarshi shahri sharoitida uzoq yillardan buyon o‘stirilayotgan va urug‘idan ko‘paytirilib mahalliyashgan *Oq gulli forma* va *Siyohrang gulli* formalar sovuq -28°C gacha tushganda yillik novdalarining bir qismi, -30°C gacha tushganda esa ko‘p yillik novdalari sovuqdan zararlanadi. Ular orasida eng bardoshlisi *Speciosus* navi bo‘lib -28°C haroratda ham mutlaqo zararlanmaydi. Qolgan barcha navlar ham odatdagi qishda zararlanmasligi va qattiq sovuq bo‘lgandagina bir yillik novdalari zararlanishi qayd qilindi.

Shunday qilib, *H. syriacus* bizning sharoitimizda issiq va sovuq haroratga to‘liq bardoshli deyishga barcha asoslar yetarli.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бородина Н.А. Математическая модель роста молодого древесного растения в течение вегетативного периода //Исследование древесных растений при интродукции. -М.: Наука, 1982. – С. 42-77.
2. Латин П.И., Сиднева С.В. Оценка перспективности интродукции древесных растений по данным визуальных наблюдений //Опыт интродукции древесных растений. - М.: Наука, 1973. – С. 7-67.
3. Деревья и кустарники СССР. ИВ том.М.Л-1958, 736-с.
4. Вильданова К.Д. Декоративные кустарники. Шарк. Ташкент. 2006. – С.28-29.
5. Набиев М.М., Казакбоев Р.Ю. Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана. –Ташкент. 1975. -С. 122-123

BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Po‘latov Otabek Oybekovich

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

Pulatovotabek38@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshqaruv uslublari va ularning xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada boshqaruv uslublariga xos bo‘lgan psixologik jihatlar ham yoritib o‘tilgan. Avtoritar, demokratik va liberal boshqaruv uslublarining yutuq va kamchiliklari haqida kerakli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Rahbar, xodim, boshqaruv, jamoa, ananaviy boshqaruv, avtoritar, liberal, demokratik uslublar, qattiq nazorat, jazolash, erkinlik, tenglik, rasmiy norasmiy liderlik,*

MANAGEMENT METHODS AND THEIR CHARACTERISTICS

Pulatov Otabek Oybek-ugli

Pulatovotabek38@gmail.com

International Islamic academy of Uzbekistan

ABSTRACT

In this article a brief overview on management techniques and their features are given. The psychological aspects of management style are also discussed in the article. Necessary conclusions are drawn about the advantages and disadvantages of authoritarian, democratic and liberal methods of governance.

Key words: *Leader, employee, management, collective, traditional management, authoritarian, liberal, democratic methods, strict control, punishing, freedom, equality, formal and informal leadership.*

Rahbar va xodim munosabatlari, guruhdagi psixologik muhit, mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan rahbar qo'llaydigan boshqaruv uslubiga bog'liq. Boshqaruv uslubi –rahbarning o'z xodimlariga nisbatan, ular orasida ishni tashkil etish bo'yicha qo'llaydigan odatiy xatti-harakatlari majmuasidir. Hozirga kelib boshqaruv fanida boshqaruv uslubini farqlashga turli yondoshuvlar mavjud bo'lib, ularning hech biri boshqaruv vaziyatiga mos keluvchi mukammal bir uslubni tavsiya etolmaydi. Har bir uslub albatta bironta cheklanishga ega. Quyida rahbarlik uslubiga turli yondoshuvlar haqida qisqacha izoh berib o'tamiz va bu matndan rahbar o'z faoliyatida uchraydigan vaziyatdan kelib chiqqan holda, muvofiq keluvchi usullar majmuasidan birontasini qo'llash haqida xulosa chiqarishi mumkin. Tizimli yondoshuv tamoyiliga asoslanish boshqaruv uslubi mavzusiga bir muncha to'la tahlil berishi mumkin. Bunga binoan, qo'llanilayotgan boshqaruv uslubi tashkilot hayoti, uning oldiga qo'ygan maqsad va birlamchi ravishda amalga oshirilayotgan vazifalariga mos kelishi kerak. Tizimli yondoshuvga binoan rahbar o'zi boshqarayotgan tizimni yaxshi bilishi, uning holatini to'g'ri baholashi, kelajakdagi qiyofasini tasavvur eta olishi hamda o'zgarishlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi xodimlarni faollikka jalb eta olishi lozim.

Zamonaviy boshqaruvga oid fanlarda rahbarlik uslubini turli nuqtayi-nazarlarda turib yoritiladi. Quyida ularning qisqacha izohini berib o'tamiz. An'anaviy yondoshuv. Boshqaruv uslubini farqlashdagi an'anaviy yondoshuvlardan biri Kurt Levin tomonidan kiritilgan tipologiyaga asoslanib, bunda rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal uslublari farqlanadi.

Avtoritar uslubda rahbar hamma boshqaruv qarorlarini o'z qo'liga oladi, qaror ijrosini qattiq nazorat ostiga oladi va yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan

beshafqat jazolash shahdini namoyish etadi, xodimga inson sifatida qiziqish bilan qaramaydi.⁸ Bunday sharoitda, doimiy nazoratning mavjudligi iqtisodiy jihatdan yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydi. Lekin, psixologik nuqtayi- nazardan bunday uslubda qator kamchiliklar kuzatiladi. Bunday uslub rahbar va xodim orasidagi kasbiy malakalar farqi kattaligida, qattiq intizom va itoatgo'ylik zarur bo'lgan sharoitda maqsadga muvofiq va o'zini oqlashi mumkin (avariya holatlari, inqirozli, urush sharoitlari va h.k.). Yangi xodimlar ishlaydigan jamoada bunday boshqaruv uslubi moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir etadi, yosh xodimda kasbiy malakalar sekin shakllanadi.

Demokratik uslub, ba'zan sheriklik, hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi ham deb ataladi. Bunday uslub hukm surgan jamoada boshqaruv qarorlari xodimlar bilan muhokama qilish orqali, ularning fikri va tashabbusini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shuningdek, qaror ijrosining nazorati ham rahbar, ham xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, rahbar xodimga shaxs sifatida qaraydi, uning ehtiyoj, manfaat va qiziqishlarini inobatga oladi.⁹ Boshqaruv pog'onalarida qaror qabul qilish "pastdan tepaga" qarab boradi, ya'ni avval quyi bo'g'in rahbarlaridan yig'ilgan fikrlar asosida yuqori bo'g'inda qaror ishlab chiqiladi. Rahbar jamoadagi norasmiy liderga tayanadi va kezi kelganda uning faolligi uchun ham imkoniyat yaratadi. Hamkorlik tamoyiliga asoslangan rahbar vazifani bajarishning aniq ko'rsatmasiga nisbatan umumiy yo'nalishni belgilashni ma'qul ko'radi, hamda xodimning o'zi ijro etish rejasini ishlab chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Demokratik uslub eng samarali boshqaruv vositalaridan hisoblanib, uni qo'llashda to'g'ri qaror qabul qilish ehtimoli oshadi, mehnat samaradorligi ta'minlanadi, bajarilayotgan ishdan va jamoaga a'zolikdan qoniqish o'sadi, guruhning ahilligi oshib psixologik muhit ijobiylashadi. Bunday jamoada odatda mavjud echimlarga tanqidiy ko'z bilan qarovchi, xatoliklarni aniqlovchi xodim va bu xatoliklarni bartaraf etish yo'llarini taklif etuvchi mutaxassis hamkorligi mavjud.

⁸ Zayniddinov SH.N. —Menejmentl. O'quv qo'llanma./ - T.: Cho'lpon, 2011. - 320 bet.

⁹ Narzulla Boymurodov. -"Rahbar psixologiyasi".O'quv qo'llanma.-T.: Yangi asr avlodi, 2007.

Liberal uslubda jamoada demokratik tamoyillar hukm suradi, xodimga butkul erkinlik beriladi, u o'z xizmat vazifalarini belgilaydi va ijro etish vositasini tanlaydi, guruhda xulqni nazorat etish deyarli kuzatilmaydi.¹⁰ Bunday uslub yuqori ijodiy kuchga ega bo'lgan va ishlab chiqarish jarayoni benuqson yo'lga qo'yilgan jamoada qo'llanishi mumkin. Ammo, bunday uslub noo'rin qo'llanilganda guruhning har bir a'zosi tashabbuskor bo'lishi bilan birga, ularni ma'lum maqsad sari yo'naltiruvchi kuch jamoada bo'lmaydi, qabul qilingan qarorlar nazorati sust bo'lgani uchun ular bajarilmay qolib ketishi ham mumkin. Natijada xodimlar o'z mehnatidan va rahbariyatdan qoniqmaydi, ish samaradorligi past, jamoada hamkorlik yo'q, birbiri bilan kirishmaydigan guruhlariga bo'linish ehtimoli ko'payadi va guruhlararo ochiq yoki yashirin nizo yuzaga keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan rahbarlik uslublari har bir rahbar faoliyatida u yoki bu darajada namoyon bo'ladi va ayrim rahbarda bu uslublarga xos belgilar aniq ko'rinsa, ikkinchisida sust ko'zga tashlanadi. Ba'zi bir rahbar biron uslubga moyilligini anglasa, ikkinchisi o'z xulqida aniq bir uslub belgilarini ajrata olmaydi. Shunga muvofiq ravishda psixologik tavsiyalarda rahbar shaxs sifatida uslubdan o'zini ajrata olishi va uslubdan foydalanishni ixtiyoriy darajaga olib kela olishi maslahat beriladi.

Boshqaruv uslublarining kommunikativ imkoniyatlari. Rahbar avtoritar boshqaruv uslubini qo'llar ekan, u tashkilotning rasmiy tizimini ta'minlashga asosiy e'tiborini qaratadi. Bu uslubda ma'lumot faqat vertikal yo'llar orqali keladi, xodimning mas'uliyat chegarasi aniq bo'lib, har qanday xato qattiq jazolanadi, shaxsiy munosabatlar iloji boricha rasmiy tus oladi va hissiyotga o'rin qolmaydi.

Demokratik boshqaruv uslubida jamoadagi do'stona munosabatlar rivojlanadi, rahbar guruh faolligi tarafdori, rasmiy tizimda shaxsiy manfaatlar xam nazarda tutilib, muloqot yuritishga keng yo'l ochib beriladi. Liberal boshqaruv uslubida esa rahbar jamoadagi norasmiy tizimni rivojlantiradi va muvaffaqiyatga erishishda rasmiy, ma'muriy shakldan ko'ra jamoaning norasmiy munosabatlari ustun

¹⁰ www.psyworld.ru/students

qo'yiladi. Tashkilotda yangi kommunikatsiya tarmoqlari yaratilishiga keng yo'l ochiladi va hatto bunday tashabbus ijobiy baholanadi. Xodimlar ish me'yorini o'zlari o'rnatishadi va uning bajarilgani uchun o'zlari mas'uldirlar. Xodimlar o'rtasida hamkorlik munosabati ustun turadi. Jamoa tavakkalga mushohada bilan bemalol boradi, har qanday qiyin vazifani ham yengil bajaradi.¹¹

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamoaga rahbarlik qilish katta san'at. Rahbar — ustoz, murabbiy, rahbar — millat tarbiyachisi, abadiyatga daxldor shaxs. rahbarlik lavozimidagi kishidan yuksak ong va tafakkur, hushyor idrok talab etiladi. Tarixiy tafakkur va siyosiy ongning qay darajada shakllanishi esa, avvalo, jamiyatning taraqqiyoti, undagi ichki va tashqi shart-sharoitlarga bo'yliq holda kechadi. Yana bir muhim masalalardan biri — rahbarning siyosiy madaniyati. Madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasidir. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umum manfaatini o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida yuksak siyosiy madaniyatli rahbarlar muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Базарова Т.Ю. — *Управление персоналом. Учебник. М.: «Центр кадровых технологий - XXI век», 2012.стр 315.*
2. Эдершайм Э. *Стратегия, лидерство, создания управленческого консалтинга. Учебник. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2012. – 278 с.*
3. Zayniddinov SH.N. — *Management. O'quv qo'llanma./ - T.: Cho'lpon, 2011. - 320 bet.*
4. Narzulla Boymurodov.- *“Rahbar psixologiyasi”. O'quv qo'llanma.-T.: Yangi asr avlodi, 2007.*
5. www.psyworld.ru/students
6. www.reformed.org.

¹¹ www.reformed.org.

GRIPP VIRUSLARNINI INSON ORGANIZMIGA TASIRI VA RIVOJLANISHI

Ahmedova Saodat Toshboltayevna

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi va menejment kafedrası: Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya fani katta o‘qituvchisi

Aminova Mohinur Normurod qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi

Rahmatullayeva Shahlo Sherzod qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 2-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Gripp viruslarining tasnifi ancha murakab hisoblanadi chunki ular antigen tuzulishini vaqti vaqti bilan o‘zgartirib turadi. Gripp virusi bugungi kunga kelib juda ommalashib yani keng miqyosda tarqalib ketgan virus hisoblanadi. Bu yuqumli kasalik simptomlari og‘ir va yengil bo‘lishi mumkin eng keng tarqalgan alomatlar o‘z ichiga oladi yuqori istima, tumov tomoq og‘rig‘i, mushak va qo‘shma og‘riq, bosh og‘rig‘i yo‘tal va o‘zini holsiz his qilish va boshqalar... gripp virusini o‘ziga tez yuqtirish immun tizimiga bog‘liq inson organizmini.

***Kalit so‘zlar:** gripp, immun, virus, limfa tugunlar, taloq, tarqalishi, keltirib chiqaradigan sabablar, oldini olish choralari.*

Mavzuning maqsadi: Gripp virusini inson organizmiga yuqish yo‘llarini oldini olish va uning tarqalishiga qarshi kurashish.

Asosiy qism: Gripp — virus tabiatli o‘tkir infeksiyon respirator (nafas yo‘llari) kasalligidir. Gripp virusi juda yuqumli — ya’ni, uning ko‘p hollarda inson tanasiga kirishi kasallikning rivojlanishiga olib keladi. Kasallik tana haroratining ko‘tarilishi bilan birga kechadi va ko‘pincha 3-5 kundan umumiy holat yaxshilanadi.

Intoksikatsiya natijasida hosil bo‘ladigan gripp alomatlariga:

- Juda tez (3-4 soat davomida) intoksikatsiya belgilarining o‘shishi;
- Tana haroratining ko‘tarilishi — 39°C va yuqori;
- Kuchli titroq;
- Holsizlik;
- Mushaklar va bo‘g‘imlardagi og‘riq;
- Qattiq bosh og‘rig‘i
- Ko‘zning yoshlanishi;
- Yorug‘likka sezuvchanlik.

Intoksikatsiya bilan birga parallel ravishda respirator alomatlar kuzatiladi:

- Tomoq og‘rishi;
- Quruq yo‘tal;
- Burun oqishi.

Ba‘zida qorin og‘rig‘i va ich ketishi kuzatiladi. Grippda yuqori tana harorati bir necha kungacha davom etishi mumkin, ko‘pincha isitma tushiruvchi dorilar ta’siri natijasida pasaymaydi. Kasallik asoratlarsiz bo‘lsa gripp 7-10 kun davom etadi. Bu vaqt davomida gripp alomatlari asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishi mumkin, ammo umumiy holsizlik ikki haftagacha davom etishi mumkin.

Grippning boshqa [o‘tkir respirator virusli infeksiyalar](#) kabi yengil, o‘rta, og‘ir va juda og‘ir shakllari bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, kasallikning asoratlarsiz va asoratli shakllari farqlanadi.

Kasallikning yuzaga kelishi sabablari yuqori nafas olish yo‘llari shilliq qavatini gripp viruslari tomonidan shikastlanishidir. Infeksiya (kasallik) manbai gripp bilan kasallangan odam. Kasallik yuqishining asosiy yo‘nalishi havo-tomchi yo‘llari: yo‘talish, aksa urish, gapirish va hatto oddiy nafas olish. Lekin virus maishiy yo‘l bilan yuqishi mumkin — ro‘molcha, taomlar, choyshab orqali. Gripp virusi juda yuqumli.

Grippni tashxislash odatda klinik ko‘rikka asoslangan. Haroratning keskin ko‘tarilishida imkon qadar tezroq shifokorga murojat qilish kerak. Gripp bo‘lganda shifokorning nazorati juda muhimdir, chunki bu mumkin bo‘lgan bakterial

asoratlarning boshlanishini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Asoratlarning paydo bo‘lishi haroratning qayta ko‘tarilishi, yo‘talning kuchayishi va umumiy holatning biroz yaxshilangandan keyin yana yomonlashishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi va odatda kasallikning 4-5 kuniga to‘g‘ri keladi. Bu holatda qo‘shimcha tahlillarni o‘tkazish kerak — [umumiy qon tahlili](#), ko‘krak qafasi va sinuslar rentgenogrammasi.

Grippni davolash kompleks muolajalarni talab qiladi, lekin gripp bilan kurashishda va organizmning tiklanishida immun tizim katta rol o‘ynaydi va shuning uchun immunitetni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini qabul qilish zarur. To‘liq dam olish, ko‘p suyuqlik ichish ([detoksikatsiya](#) qilish uchun), spirtli ichimliklar va chekishni cheklash tavsiya etiladi. Ayni paytda samarali antivirus dorilar grippning davomiyligini, [isitma](#) va boshqa alomatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Boshqa qo‘llanadigan dori vositalariga:

- Simptomatik davolovchi preparatlar (isitmani tushiruvchi, balg‘am ko‘chiruvchi);
- Immunostimulyatorlar — bunday xususiyatlar ayniqsa vitamin C da ko‘p;
- Interferon;
- Kasallikning turli bosqichlarida virusga qarshi preparatlar;
- Antigistaminlar.

Antibiotiklar faqat ikkilamchi bakterial kasalliklar mavjud bo‘lgandagina buyuriladi, ular viruslarga qarshi umuman samara bermaydi, lekin ko‘pincha xalq orasida shamollash yoki gripp almatlari kuzatilganda shifokor ko‘rsatmasiz antibiotiklarni qabul qilish keng tarqalgan. Antibiotiklarni viruslarga qarshi qabul qilish nafaqat samara bermaydi, balki bakteriyalarning antibiotiklarga qarshiligini oshiradi.

Grippning oldini olishning uchun eng samarali yo‘li — o‘z immun tizimini butun yil davomida yaxshi holatda saqlash hisoblanadi. Immunitetni mustahkamlashning turli yo‘llari bor, bular o‘z ichiga oladi:

- Tanani chiniqtirish;
- Faol hayot tarzi;

- To‘g‘ri va muvozanatli oziqlanish;

Boshqa asosiy tibbiy usul bu emlash bo‘ladi. Vaktsinatsiya gripp mavsumi boshlanishidan 2-3 oy oldin (odatda oktyabr-noyabr oylarida) virus muayyan turiga (shtamm) qilinadi. Vaktsinatsiya qancha ko‘p virus shtammlariga qarshi bo‘lsa va qanchalik ko‘p kishiga qilinsa, shuncha samarali hisoblanadi. Bunday holda, bu aholining katta ijtimoiy guruhlarini himoya qilishga imkon beradi. Shuningdek, epidemiya davrlarida profilaktik chora-tadbir tarzida antivirus preparatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish, kasallangan odamlardan yiroq yurish, maxsus niqoblar taqish, oila a‘zolari kasallanganda tozalikka e‘tibor qilish va xonani tez-tez shamollatish kasallanish ehtimolini kamaytiradi

Xulosa: Shamollash tibbiy tilda aytadigan bo‘lsak O‘RK (o‘tkir respirator kasalliklar), barcha tipdagi o‘tkir bakterial va virusli kasalikdarni o‘z ichiga oladi. Odatda bu tashxis hech qanday klinik laborator tekshiruvlarsiz qo‘yiladi. Kasallik belgilari odatda yengil holsizlik va yuqorigi nafas yo‘llari yallig‘lanishi bilan kechadi. Shunday qilib gripp xam shamollashni bir turi ekan. Shamollash esa yallig‘lanish jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi, organizm intoksikatsiyasi bilan kechuvchi har qanday infeksiyon jarayonni namoyon bo‘lishi ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *gripp — alomatlari, shakllari, sabablari, tashxislash, davolash va oldini olish*
2. *Эпидемиология гриппа. Распространенность гриппа. Морфология вирусов гриппа.*
3. *Источник: <https://meduniver.com/Medical/Microbiology/648.html?ysclid=ld05b95rj606765762> MedUniver*
4. *Mikrobiologiya immunologiya virusologiya I.Muhammedov*

INSON ORGANIZMIDA IMMUN SISTEMANING TUTGAN O'RNI, VAZIFASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ahmedova Saodat Toshboltayevna

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi va menejment kafedrası: Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya fani katta o'qituvchisi

Aminova Mohinur Normurod qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti
2-bosqich talabasi

Mardonqulova Gulnora Karim qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Pediatriya fakulteti
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Immun sistemasi organizmni kasalliklardan himoya qiluvchi biologik jarayonlar tarmog'idir. U viruslardan tortib parazit chuvalchaglarga qadar turli xil patogenlar, shuningdek, saraton hujayralari, hatto yog'och qirindilarigacha taniydi, ularga immunologik javob qaytaradi va ularni organizm sog'lom to'qimalaridan ajratib turadi. Ko'pgina biologik turlarda immun sistemasi ikkita asosiy kichik guruhdan iborat. Tug'ma immun sistemasi xilma-xil holatlar va ta'sirlarga oldindan shakllantirib qo'yilgan immun javoblar orqali himoyani ta'minlaydi. Adaptiv immun sistemasi oldin o'zi duch kelgan molekulalarni osonlik bilan tanib olish orqali keyingi har bir stimulgacha moslashtirilgan javob qaytaradi. Ikka sistemalar ham o'z funksiyalarini bajarish uchun molekulalar va hujayralardan foydalanadilar.

Kalit soʻzlar: *Immunitet, OITV, OIV, Roʻli, Vazifasi, Xususiyatlari, Vitamin*

Mavzuning maqsadi: Inson organizmining immun sistemasini kuchaytirishga boʻlgan chora tadbirlarni ishlab chiqish va uni takomillashtirish

Asosiy qism: Odamlar va boshqa tirik organizmlarning yashash muhiti juda agressivdir. Turli xil viruslar va bakteriyalar armiyasi bizni har tomondan oʻrab oladi va ular doimo bizga hujum qilish imkoniyatini kutishadi. Shunday ekan, bunday dushmanga qarshi kurashda mudofaa tizimimiz – immunitetimiz faollashadi. Bular dushmanga qarshi kurashda mudofaa chizigʻining baʼzi chegaralari - virus va bakteriyalarga qarshi jismoniy (jismoniy) toʻsiqni tashkil etuvchi sof anatomik himoya va zararli mikroblar undan tashqariga oʻtolmaydi. Masalan, teri va shilliq pardalar bunday funktsiyani bajaradi. Agar virus yoki bakteriya bu jismoniy toʻsiqni yengib oʻtib, tanaga kirsa, u holda organizm unga qarshi yalligʻlanishga qarshi hujumni boshlaydi, natijada tananing taʼsirlangan qismiga qon oqimi kuchayadi. Qon oʻzi bilan leykotsitlarni olib yuradi. Ular kapillyar tomirlarning devorlaridan oʻtib, tanaga kirgan dushmanni yoʻq qiladi. Sizning kesmangiz atrofidagi qizarish tananing bu reaksiyasidan kelib chiqadi. Immun sistemasi organizmni kasalliklardan himoya qiluvchi biologik jarayonlar tarmogʻidir. U viruslardan tortib parazit chuvalchanglarga qadar turli xil patogenlar, shuningdek, saraton hujayralari, hatto yogʻoch qirindilarigacha taniydi, ularga immunologik javob qaytaradi va ularni organizm sogʻlom toʻqimalaridan ajratib turadi. Koʻpgina biologik turlarda immun sistemasi ikkita asosiy kichik guruhdan iborat. Tugʻma immun sistemasi xilma-xil holatlar va taʼsirlarga oldindan shakllantirib qoʻyilgan immun javoblar orqali himoyani taʼminlaydi. Adaptiv immun sistemasi oldin oʻzi duch kelgan molekulalarni osonlik bilan tanib olish orqali keyingi har bir stimulgacha moslashtirilgan javob qaytaradi. Ikka sistemalar ham oʻz funksiyalarini bajarish uchun molekulalar va hujayralardan foydalanadilar. Immun sistemasining disfunktsiyasi autoimmun kasalliklar, yalligʻlanish kasalliklari va saratonga olib kelishi mumkin. Immunitet tanqisligi immun sistemasi odatdagidan kuchsiz boʻlganida yuzaga keladi, natijada takroriy va hayot uchun xavfli infeksiyalar yuqishi mumkin. Odamlarda immunitet

tanqisligi og'ir kombinatsiyalangan immunitet tanqisligi kabi irsiy kasallik, OIV/ OITS kabi orttirilgan kasalliklar yoki immunosupressiv dorilarni qo'llash natijasida kuzatilishi mumkin. Autoimmunitet giperaktiv immunitet tizimining normal to'qimalarga xuddi begona organizmlarga hujum qilishi kabi javobi natijasida yuzaga keladi. Keng tarqalgan autoimmun kasalliklarga Hashimoto tiroiditi, revmatoid artrit, 1-tur qandli diabet va tizimli qizil yuguruk kiradi. Immunologiya immunitet sistemasining barcha jihatlarini o'rganadi.

Deyarli barcha organizmlar qaysidir bir turdagi immunitetga ega. Bakteriyalar virusli infeksiyalardan himoya qiluvchi fermentlar ko'rinishidagi rudimentar immunitetga ega. Boshqa sodda immunitet mexanizmlari qadimgi o'simliklar va hayvonlarda rivojlangan va ularning zamonaviy avlodlarigacha saqlanib kelmoqda. Ushbu mexanizmlar fagotsitoz, defensin deb ataladigan antimikrob peptidlar va komplement tizimini o'z ichiga oladi. Jag'li umurtqalilar, shu jumladan odamlar, yanada murakkab mudofaa mexanizmlariga, patogenlarni yanada samaraliroq aniqlashga adaptatsiya qilish qobiliyatiga ega. Adaptiv (yoki orttirilgan) immunitet immunologik xotirani hosil qiladi, bu esa xuddi shu patogen bilan keyingi to'qnashuvlarga kuchliroq javob berish imkonini beradi. Shu kabi orttirilgan immunitet jarayoni emlashning asosini tashkil etadi.

Biroq, immunitet tizimining faoliyati boshqacharoq tamoyillarga tayanadi. Bunda, maxsus molekulyar strukturalar ishga solinadi va ular maxsus nishonni yo'q qilishga yo'naltiriladi. Bunday maxsus molekulyar strukturalardan eng muhimi – Y-simon molekullardan tuzilgan antitelalar lardir. Y-molekulalarning uchida turli shakldagi aminokislotalar yig'ilgan bo'ladi. Ushbu aminokislotalar shaklining har bir formasi muayyan turdagi virusga, boshqacha aytganda, o'ziga mos keladigan antigenga qarshi kurashadi. Katta yoshdagi odamning organizmida shaklan har xil bo'lgan 100 millionga yaqin antitelalar turi mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, odam immunitet tizimini istalgan o'lcham va fason uchun istalgan vaqtda doimo tayyor kiyim topsa bo'ladigan yirik do'konga o'xshatish mumkin. Organizmga yot narsa kirib qolganida, katta ehtimollik bilan o'sha 100 million xil antitela dan aqalli bittasi unga qarshi

kurashish va uni bartaraf qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi deb umid qilish mumkin. Antitelaning organizmda qay tarzda sirkulyatsiyalanishi Y-simon molekulaning uchlaridagi aminokislotalarning aynan qanday joylashganiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ayrim antitelalar qonda aylanib yuradi va bakteriya va viruslarni juda samarali bartaraf qiladi; yana ayrim antitela turlari esa teri va ichakdagi shilliq qatlamlardagi maxsus shilliq qatlamlar bilan bog‘langan holda turadi.

Muhokama va natijalar: *Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishimizda kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan zardobning laboratoriya tekshiruv usullari tahlili immunologik ko‘rsatkichlarini reaktivlari, reagentlar yordamida tekshirildi va izlandi. Bu izlanishning asosiy obekti kaliforniya qizil chuvalchangi va uni yetishtirish texnologiyasi, geologiyasi bo‘lib maxsus analizator, distiliatorlarda, gemotologik ko‘rsatkichlar asosida tekshiruvlar o‘tkazildi. Bu tekshiruv tadqiqotidan maqsad limfa tuguni joylashgan barcha azolarda limfa suyuqligi ishlab chiqilishi va uning tasirida qon suyuqligiga xos bo‘lgan qonning o‘rnini bosuvchi a‘zo bo‘lib bu a‘zo immun tizimni rag‘batlantiradi. Tashqaridan kirayotgan teloga qarshi antitelo ishlab chiqiladi. Bu esa bevosita ximoya, regulator, operator gen bilan hamkorlikda ish olib boriladi. Buning natijasida insonning immun tizim oshadi immunited rag‘balantiriladi, odamning faolligi oshadi, ATF sinteaza vujudga keladi, energiya shakllanadi, mudroq bo‘lmaydi va odamning gemopoez xususiyati oshadi.*

Xulosa: Surunkali vitaminlar tanqisligi holati tushmaslik uchun vitamin komplekslaridan qabul qilish kerak. Albatta, vitamin preparatlari tabiiy holda qabul qilinadigan vitaminlar o‘rnini bosa olmaydi. Ammo, organizmga ayrim holatlarda qo‘shimcha vitaminlar kerak bo‘ladi, masalan kasallik vaqtida. Vitamin komplekslari tarkibida barcha vitaminlar ma’lum bir dozada saqlanadi. Bu kabi preparatlar tayyorlanayotganda organizm tomonidan so‘rilishga tayyor holda bo‘ladi. Vitamin preparatlari qabul qilishda ularning ko‘p miqdorda organizmda to‘planishi jiddiy asoratlarga sabab bo‘lishini ham unutmash kerak. Shu sababli vitamin komplekslari mustaqil ravishda emas, balki shifokor mutaxassis tomonidan buyurilgan holatda qabul qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Immunitet pasayishi belgilari va vitamin tanqisligi holati - Immunologiya (avitsenna.uz)*
2. *IMMUNOLOGIYA.doc (ziyouz.com)*
3. *Immun sistemasi - Vikipediya (wikipedia.org)*
4. *Mikrobiologiya immunologiya virusologiya 2006*

OSHQOZON YARASINING KLINIK VA PATOLOGIK BELGILARI VA UNI OLDINI OLIISH CHORA TADBIRLARI.

Choriyeva Zulfiya Yusupovna

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Anatomiya va klinik anatomiya kafedrası: Anatomiya fani katta o'qituvchisi: choriyevazulfiya014@gmail.com

Aminova Mohinur Normurod qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti
2-bosqich talabasi: aminovamohinur133@gmail.com

Shukurova Barchinoy Abdulhofiz qizi

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 2-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi: barchinoyshukurova018@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunga kelib oshqozon yarasi kasalligi yoshu qarini ham ayamayapti. Ya'ni bu kasallik insonning noto'g'ri ovqatlanishi yuzasida kelib chiqadi. Oshqozon yarasi bu o'zi nima, u qanday paydo bo'ladi, uni oldini olish choralari qanday, qanday qilib davolasa bo'ladi. Bu savollarga javob va davo choralari ushbu maqoladan topasiz.

***Kalit so'zlar:** Oshqozon yarasi, Paydo bo'lishi, Rivojlanishi, Oldini olish choralari, Profilaktikasi, Davolash usullari.*

Mavzuning maqsadi: Oshqozon yara kasalliklarini tarqalishini oldini olish va uni davolash usullarini ishlab chiqish.

Mavzuning asosiy qismi: Oshqozon yarasi qanday paydo bo'ladi? Oshqozon shilliq qavatiga doimo ikki agressiv omil: xlorid kislota va fermentlar ta'sir qilib

turadi. Bu moddalar oshqozonga tushgan ovqat mahsulotlarini hazm qilishda ishtirok etadi. Ushbu moddalar shilliq qavatni zararlamasligi uchun ximoya mexanizmi sifatida shilliq qavatda maxsus shilliq ajralib turadi, uning tarkibi bikarbonatlardan iborat.

Agressiv faktorlarning ortiqcha ajralib chiqishi hamda himoya funksiyasining pasayishi shilliq qavatning zaralanishiga olib keladi. Avvaliga eroziya, so'ngra yara paydo bo'ladi. Oshqozondagi kislotali shira o'n ikki barmoq ichakka o'tadi va yallig'lanish jarayoni boshlanadi (duodenit), sekin asta eroziya hamda yara ham rivojlanadi. Kasallik kelib chiqishida eng kata rolni *Helicobacter pylori* egallaydi.

Yara kasalligining surunkali ko'rinishida kasallik belgilarining vaqti vaqti bilan huruj qilishi hamda remissiya davrlari farqlanadi. Huruj odatda jismoniy va ruhiy zo'riqishdan keyin, dieta buzilganda hamda zararli odatlar ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Kasallik ko'pincha erkaklarda uchraydi. Bundan tashqari yara kasalligi o'rta yoshli odamlarda uchrashi, kasallikning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Ayrim dori preparatlarini uzoq muddat qabul qilish. Ayniqsa nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalarni qabul qilish shilliq qavat devorini zararlantirishiga olib keladi. Yuqoridagi sabablardan tashqari kasallikning rivojlanishida stress, jismoniy zo'riqish, spirtli ichimliklari ichish, tamaki mahsulotlarini chekish, ovqatlanish ratsionida doimiy achchiq, o'tkir, qovurilgan, dudlangan mahsulotlarning bo'lishi hamda ovqatlanish ratsionining buzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

OSHQOZON YARASI KASALLIGIDA KUZATILADIGAN BELGILAR

Kasallikning klinik belgilari odatda tipik ko'rinishda paydo bo'ladi va kasallikni tashxislashda qiyinchilik tug'dirmaydi. Asosiy klinik belgilardan biri bu – og'riq hisoblanadi. Yara kasalliklarida og'riq odatda qorin och bo'lganda paydo bo'ladi yoki ovqatlangandan 2-3 soat o'tib seziladi.

Oshqozoning kardial qismida yara paydo bo'lsa og'riq quyosh tutamiga yaqin sohada, ovqatlangandan 20 daqiqa o'tib namoyon bo'ladi. Og'riq yuqoriga ya'ni

ko'krak qafasiga ham tarqalishi mumkin. Bu esa ko'pincha oshqozon yara kasalligi va yurak hurujlarida paydo bo'luvchi og'riqlar bilan diagnostika qilishda qiyinchilik tug'diradi. Yaraning kardial qismida joyashuvida og'riq jismoniy zo'riqishdan keyin paydo bo'lmaydi.

Pilorik qismda paydo bo'lgan yara belgisi uzoq muddat davom etuvchi og'riqdir. Ba'zida og'riq davomiyligi 40 daqiqadan 1 soatgacha cho'zilishi mumkin. Og'riq asosan ovqatlanganda so'ng 40-60 daqiqa o'tib boshlanadi. Odatda tunda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bemorlarda dispeptik sindromlar – ko'ngil aynishi, qayt qilish, holsizlik, qorin dam bo'lishi ham kuzatilishi mumkin. Ushbu sohada paydo bo'lgan yara 5-10 % holatlarda salbiy asoratlarga olib keladi (penetratsiya, qon ketishi, teshilish, stenoz).

10-15 % holatlarda yara oshqozonning antral qismida uchraydi. Kuchli og'riq odatda tunda, chap qovurg'a osti sohasida namoyon bo'ladi. Og'riq oshqozon bo'shlig'idagi ovqat massasi hazm bo'lib parchalangunga qadar davomiy bo'ladi. Yara oshqozoning katta egirligida rivojlansa jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin, bunday holat ko'pincha qari yoshdagi insonlarda uchraydi va bunday yaralarni tashhishlash ancha qiyinchilik tug'diradi.

O'n ikki barmoq ichak yarasi odatda 40 yoshgacha bo'lgan insonlarda uchraydi. Kasallik kelib chiqishida irsiy moyillikning o'rni katta. Kasallikda og'riq sindromi ovqatlangandan so'ng 1,5-2 soat o'tgach namoyon bo'ladi, dispeptik belgilar kam kuzatilsada, bemorlar ich qotishiga shikoyat qiladilar.

OSHQOZON YARASI KASALLIGINI DAVOLASH

Bemorlarga dieta qilish, zararli odatlardan vos kechish, stress holatlariga tushmaslik va qat'iy kun tartibiga rioya etish tavsiya qilinadi. Davo muolajalari odatda 14 kun davomida olib boriladi. Har bir bemor uchun alohida davo buyuriladi, bunda bemorning holati, yoshi, kasbi va yondosh kasalliklari inobatga olinadi. Yara kasalligi jiddiy kasallik bo'lib, o'z vaqtida davolanmaslik kasallikning asoratlanishiga bu esa hatto o'lim holati qayd etilishigacha olib borishi mumkin.

Medikomentoz davo quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Antibacterial preparatlar – organizmdagi H. pylori ni yo‘qotish uchun;
- Antiasid preparatlar – oshqozon shirasi sekretiysini kamaytirish maqsadida;
- Proton pompa ingibitorlari – xlorid kislotaning sekretiysiga ta’sir qiladi va uning “agressivlik” xususiyatini pasaytiradi;
- H2-gistaminbloktorlari – oshqozon shirasi “agressivligi”ni pasaytiradi;
- Spazmolitiklar – og‘riq vaqtida simptomatik davo sifatida buyuriladi.
- Buyurilgan dori preparatlarini o‘z vaqtida va buyurilgan muddat davomida qabul qilish zarur. Kasallik belgilarining kamayishi preparatlarni qabul qilishni to‘xtatish kerakligini bildirmaydi.

YARA KASALLIGINING JARROHLIK USULI BILAN DAVOLASH (YARANI OLIB TASHLASH)

Jarrohlik amaliyoti uzoq muddat davomida olib borilgan konservativ davoning foydasizligi hamda yaraning bitmaslik holatida rejali yoki shoshilinch ravishda o‘tkazilishi mumkin. Shoshilinch operativ muolaja yaraning asoratlangan ko‘rinishida o‘tkaziladi. Umuman olganda jarrohlik yo‘li bilan oshqozon yara kasalligi hozirgi kunda juda kam holatlarda qo‘llaniladi. Chunki zamonaviy tibbiyot kasallikni davolashda konservativ yo‘l bilan kutilgan natijaga erishish mumkinligini isbotladi. Uzoq yillik tajribaga ega bo‘lgan RUSTAMOV’S klinikasida faoliyat olib boruvchi shifokorlar aynan yara kasalligidan aziyat chekuvchi bemorlarni davolash va ularning hayot sifatini oshirishda katta hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Xulosa: Bemor parhezga amal qilish va taqiqlangan ovqatlarni iste’mol qilmasligi muhim ahamiyatga ega. Ochiq havoda uzoq sayr qilish, sanatoriylarda davolanish ham foydali. Shifokorning tavsiyasiga ko‘ra, antisekretor dori-darmonlarning davomli kursi belgilanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

<https://mymedic.uz/kasalliklar/gastroenterologiya/oshqozon-yarasi>

<https://rustamovs.uz/uz/gastroenterologiya/oshqozon-yarasini-davolash>

<https://yuz.uz/uz/news/oshqozon-yarasi-oz-vaqtida-davolanmasa-saratonga-aylanishi-mumkin>

SPECIFIC ASPECTS OF CLAUDE ACHILLE DEBUSSY'S WORK IN PIANO PERFORMANCE (FOR EXAMPLE, "FANTASIA FOR PIANO AND ORCHESTRA")

Axmedova Dilnura Baxtiyor qizi

Master of Navoi State Pedagogical Institute

Arziqulova Ozoda Abdurazzoq qizi

Teacher of Navoi Specialized Culture School

Saburova Umida Maulenbergovna

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

ANNOTATION

Elucidation of the important performance technology in the performance of the piano instrument on the example of the specific aspects of the work of Claude Achille Debussy and his fantasy for piano and orchestra.

Key words: *dynamics, accompaniment, genre, form, harmony, fantasy, impressionism.*

For a piano player, the formation of musical-auditory imagination is extremely important. Musical-auditory imagination is the ability to hear the movement of sound and to embody it in the brain. The concept of inner hearing and musico-auditory imagination is associated with the ability to hear and experience music without relying on external sounds. This ability is the basis of musical memory and musical imagination.

Claude Achille Debussy is a French composer, pianist, conductor born in Paris in 1862. He is the founder of musical impressionism. While studying at the Paris

Conservatory (1872-84), he was awarded the Rome Prize. He lived in Rome in 1885-86, and in Paris from 1887. He performed in several countries as a pianist and conductor. The style, formed under the influence of Impressionism and Eastern music, is distinguished by the brightness and elegance of musical and visual tools, the novelty of harmony and instrumentation methods, and the delicate and beautiful melodies.

"Fantasia for Piano and Orchestra" by the great French composer K. Debussy is among the large-scale works, it has an unconventional character and contains a theme of harmonic proportion. Because in the work of K. Debussy, the place and importance of impressionism musical flow is great. Impressionism (French impression - impression) is a direction in art that prevailed in the late 19th and early 20th centuries. Impressionism in music is distinguished by the variety of timbre and harmony of works, the freedom of form development, and the instability of rhythm. The performance technology of K. Debussy's "Fantasia for Piano and Orchestra" is based on the finger positions directly related to the light, correctly formed, precise, convenient application system and requires important theoretical and performance stages such as knowing the harmonic analysis of the work and being able to delimit its structures, does:



In "Fantasia for Piano and Orchestra" by K. Debussy, it is extremely important to correctly follow the technology of left-hand performance, and the basic harmonic basis, texture and essence of the work depend on it.

Free and smooth playing of the first finger is important in playing the accompaniment with the left hand. The first finger should be taken prepared in a lowered position. Representatives of Impressionism strived to depict the existing being in movement and change in a more natural way, to express their momentary impressions, and achieved liveness and truthfulness of the image.

Debussy's most significant instrumental work in the early 1890s was *Fantasia for Piano and Orchestra* (1889-1890). There are two parts to this Fantasy (but actually three, as the second part breaks into a long slow section and a fast finale). The monothematic principle drawn through the entire work is indicative.

The composition of *Fantasia* was for Debussy, as it were, a field of struggle between the old and the new beginnings of form. He has not yet departed from the classical divisions, but has already accomplished much in the construction of the whole on the basis of free changes of impressions and sensations.

REFERENCES

1. *Liberman Y. "Rabota nad fortepiannoy texnikoy", – M., "Klassika-XXI", 2003.*
2. *Qodirov R. "Musiqqa psixologiyasi", -T., 2005.*
3. *Neygauz G. "Ob iskusstve fortepiannoy igri",- M., «Muzika», 1988.*

TYPOLOGICAL STAGES AND ERGOLOGICAL BASIS OF MUSICAL INSTRUMENT PERFORMANCE

Saburova Umida Maulenbergenovna

Master of the State Conservatory of Uzbekistan

Tulayeva Madhiya Berdimuradovna

Teacher of Navoi Specialized Culture School

Alimbayeva Maftuna Komiljonovna

Master of the State Institute of Culture and Art of Uzbekistan

ANNOTATION

The typological development and ergological basis of musical instrument performance are explained practically and theoretically.

Key words: *baroque, classicism, romanticism, impressionism, dynamics, composers, harmony.*

In the years of independence, special attention is being paid to the content of education, which is considered extremely important for the development of the young generation growing up in our country, to the aesthetic upbringing of students through national values, traditions and centuries-old musical heritage. Due to the fact that the world music culture is extremely rich in many masterpieces written at a professional level, which have a delicate, emotional content and essence, which have high aesthetic views and the history of their formation goes back to certain periods, the field of musical instrument performance has developed in almost all countries of the world, is developing.

It is worth noting that, on the basis of the progress of the musical education system, the faith, dreams and goals of our selfless young people who are serving for the development of the country will be formed, and the great people who will introduce the greatness of our country to the world will mature.

Declaring the education of the young generation and the effectiveness of education as a priority area of state policy in our country, in turn, leads to the development of perfect people with high consciousness, who can think independently, and these important goals and tasks acquire special relevance.

The advanced methods of studying the specific complexity aspects of the works written for musical instruments are large in terms of size and form, and they are important because they cover the goals and tasks based on organic connection. On the basis of the correct formation of the skill of working on works of various technical complexity in the performance of musical instruments, the ability to hear music, the quality of musical intuition, the speed of performance, duration, timbre coloration, the resounding power of dynamics, and the feeling of music in general. related elementary lessons - begin to appear in the student's performance.

Works with a complex form in terms of texture, structure, harmony, works of different genres (large form, polyphony, play, etude, concert) with a unique shape and color are of great importance because they require a musical and artistic approach. is enough.

In the book of musical books, the piano works of the composers who lived and created in the musical currents of baroque, classicism, romanticism, impressionism, which require a high level of professional performance, their structure, ergology and typological factors, and the performance technologies of artistic performance tools are covered.

In addition, information related to the life and work of the composer, who created works in genres of various technical complexity in the art of musical instrument performance, is presented on the basis of specific dates and events, and full monographic facts are cited.

It is extremely important to carry out purposeful performance training aimed at step-by-step performance of the piano instrument in connection with other musical disciplines, i.e. music history, music literature, theory, harmony, analysis of musical works, concert performance practice. In this process, musical ability is also strengthened. Ability is an individual characteristic of a person, which is considered a subjective factor of successful implementation of a certain activity.

It is important to develop hearing skills in children. Bella Bartók is one of the composers who made a significant contribution not only to the Hungarian but also to the world music culture and piano performance. The perfection related to the work is related to how precisely the nuances of the work are performed. Because these European and Eastern composers' methods of teaching works bring about the full expression of the theme of the work in the images of the musical artistic genres, the goals, emotions and temperament of the performance with its musical expressiveness.

For this reason, the composer's piano works are literally one of the masterpieces of the world piano art, and it is important that they are also recognized by the representatives of the piano field who are working and creating in our country today.

References:

1. Liberman Y. "Rabota nad fortepiannoy texnikoy", – M., "Klassika-XXI", 2003.
2. Qodirov R. "Musiqqa psixologiyasi", -T., 2005.
3. Milich B. "Vospitaniye uchenika- pianista", –M., "Kifara", 2002.

SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEKNOLOGIYADAGI AHAMIYATI

Shodiyeva Dildora

SamDTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası assistenti

E-mail: dildoraannayeva786@gmail.com

ANNOTATSIYA

Dunyo aholisi kundan-kunga ko'payib bormoqda bu esa o'z navbatida oziq-ovqat va boshqa kommunal kunlik ehtiyojlarning oshishiga sabab bo'ladi. Bu esa an'anaviy qishloq xo'jaligi usullarini va texnologiyalarining samaradorligini sezilarli darajada qoniqarsiz ekanligini isbotlaydi. Biotexnologiya esa ishlab chiqarish jarayonida bu samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: Biotexnologiya, "yashil maydon", tabiiy fermentatsiya, bioinsektitsidlar.

АННОТАЦИЯ

Население земного шара увеличивается день ото дня, что, в свою очередь, вызывает увеличение ежедневных потребностей в продуктах питания и других коммунальных услугах. Это свидетельствует о существенной неудовлетворительной эффективности традиционных агротехнических приемов и технологий. А биотехнология значительно повышает эту эффективность в производственном процессе.

Ключевые слова: Биотехнология, «зеленое поле», естественное брожение, биоинсектициды.

ABSTRACT

The world's population is increasing day by day, which in turn causes an increase in the daily needs of food and other utilities. This proves the effectiveness of traditional agricultural methods and technologies to be significantly unsatisfactory. And biotechnology significantly increases this efficiency in the production process.

Key words: Biotechnology, "green field", natural fermentation, bioinsecticides.

Kirish: Mavzu dolzarbligi: Biotexnologiya biologik agentlarni inson manfaati uchun qo‘llash texnologiyalari haqidagi fan hisoblanadi. Biotexnologiya o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlardan foydalanadi. Bioo‘g‘itlar, biopestitsidlar, biogerbitsidlar kabi mahsulotlarning barchasi mikrobiologiya va biotexnologiya fanlari natijasi hisoblanadi. Dunyo aholisi kundan-kunga ko‘payib bormoqda bu esa o‘z navbatida oziq-ovqat va boshqa kommunal kunlik ehtiyojlarning oshishiga sabab bo‘ladi. Bu esa an’anaviy qishloq xo‘jaligi usullarini va texnologiyalarining samaradorligini sezilarli darajada qoniqarsiz ekanligini isbotlaydi. Biotexnologiya esa ishlab chiqarish jarayonida bu samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. 20-asrga kelib qishloq xo‘jaligi texnikalarining jadal rivojlanishi “yashil maydon”larni ko‘paytirgan bo‘lsa-da, ammo bu iqtisodiy va ekologik jihatdan o‘zini oqlamadi. Natijada havoga ko‘plab zararli moddalar ajralishi, iqtisodiy inqiroz noqulay iqlim o‘zgarishi, global ifloslanish va biologik xilma-xillikni yo‘qolishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi kunda biotexnologiya jamiyatdagi qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika sohalari kabi bir qancha yo‘nalish muammoning yechimi sifatida yuzaga chiqmoqda. Yevropa Biotexnologiya Federatsiyasi esa Biotexnologiya bu integratsiya deya ta’rif berib, bunda tirik organizmlar, tirik tizimlar va texnologiyalarning uyg‘unlashuvini ko‘radi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida chidamli navlarni yaratish va genetik modifikatsiya qilingan, zararkunandalarga va begona o‘tlarga chidamli navlarni yaratish bugungi kunda biotexnologiya orqali o‘z yechimini topmoqda.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili va metodologiya

Sanoat mikrobiologiyasi biotexnologiyaning bir tarmog‘i bo‘lib , mikrobiologiya fanini keng miqyosda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qo‘llaydi, ko‘pincha mikrob hujayralari fabrikalaridan foydalanadi . Mahsulot hosildorligini oshirish uchun mikroorganizmni manipulyatsiya qilishning ko‘plab usullari mavjud. Mutatsiyalarni organizmga kiritish ularni mutagenlarga kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishni ko‘paytirishning yana bir usuli – genlarni kuchaytirish, bu plazmidalar va vektorlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Plazmidlar va vektorlar ma’lum bir genning bir nechta nusxalarini o‘z

ichiga olishi uchun ishlatiladi, bu esa ko‘proq fermentlarni ishlab chiqarishga imkon beradi, bu esa pirovardida ko‘proq mahsulot hosil bo‘lishiga olib keladi. [1] Tibbiyotda mikroblar bakterial kasalliklarni davolash uchun antibiotiklar tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Mikroorganizmlar oziq-ovqat sanoati uchun ham ishlatilishi mumkin. Mikroorganizmlar odamlar iste‘mol qiladigan ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismini ishlab chiqarishda juda foydali samarali sanaladi. Kimyo sanoati mikroorganizmlardan aminokislotalar va organik erituvchilarni sintez qilish uchun ham foydalanadi. Mikroorganizmlar o‘simliklarni ko‘paytirishga yordam berish uchun xavfli kimyoviy moddalar va emlash vositalaridan foydalanish o‘rniga biopestitsidlar sifatida foydalanish uchun qishloq xo‘jaligida ham qo‘llanilishi mumkin.

Natija va muhokama

Tabiiy fermentatsiya. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mahsuldorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda bir qancha o‘simliklarning mahsuldorligida mikroorganizmlarning samarali faoliyati tufayli ularning hosildorligi oshganligini ko‘rish mumkin. Misol tariqasida, tuproqda yashovchi mikroorganizmlar o‘simliklarning o‘shishiga yordam beradi. Zaruriy energiya manbalari bilan ta‘minlaydi. Ushbu mikroorganizmlar bioo‘g‘itlar olish uchun foydalaniladi. *Bioinsektitsidlar.* Biotexnologiya, shuningdek, hasharotlarning zararkunandalariga qarshi kurashda muqobil variantlar ishlab chiqishi mumkin. Tuproqdagi o‘simliklarning ildizida yashab, kasalliklarga sabab bo‘ladigan, viruslar, bakteriyalar, zamburug‘larga qarshi kurashda ham bioinsektitsidlar samarali hisoblanadi. Bioinsektitsidlar shuningdek, atrof-muhitda uzoq vaqt saqlanmaydi, saqlash muddati qisqaroq, odamlar va hayvonlarga zararsiz, ko‘pincha ular hasharotlarning aynan faqat bitta turiga tanlab ta‘sir qilish xususiyatiga ega, o‘ziga xos yo‘nalishiga ega bo‘lib, ularni qo‘llashda asosiy e‘tibor ishlatilish muddatlariga qaratilgan. *Qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati.* Turli o‘g‘itlar va pestitsidlarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab muttasil ortib bormoqda. Kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlardan ortiqcha foydalanish uzoq muddatli ta‘sir

ko'rsatadi. Kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan ko'p foydalanish natijasida tuproq unumdor bo'lib qoladi va ekinlar yetishtirishda yetarlicha foydalanilmayapti. Buning uchun bio-o'g'itlar, bio-pestitsidlar va organik dehqonchilik yordamga keladi.

Xulosa

Aminokislotalar va organik erituvchilar sintezi mikroblar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. L-metionin, L-lizin, L-triptofan va muhim bo'lmagan aminokislotalar L-glutamik kislota kabi muhim aminokislotalarning sintezi bugungi kunda asosan oziq-ovqat, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida qo'llaniladi. Ushbu aminokislotalar *Corynebacterium glutamicum* tomonidan va fermentatsiya tufayli ishlab chiqariladi. *C.glutamicum* ko'p miqdorda L-lizin va L-glutamik kislota ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan. [7] L-glutamik kislota ishlab chiqarish uchun yuqori talabga ega edi, chunki bu aminokislota mononatriy glutamat (MSG), oziq-ovqat xushbo'ylashtiruvchi vositani ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. L-glutamik kislotaning umumiy ishlab chiqarilishi 2018 yilda 2,2 million tonnani tashkil etdi va *C.glutamicum* Suv ostida fermentatsiya texnologiyasidan foydalangan holda ishlab chiqariladi. L-lizin dastlab diaminopimelik kislotadan (DAP) *E.coli* tomonidan ishlab chiqarilgan, ammo bir marta *C.glutamicum* L-glutamik kislota ishlab chiqarishi aniqlangan. [7]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шайкулов Х. Ш., Муратова З. Т. Анализ стартовой антибактериальной терапии острых тонзиллитов в условиях поликлиники у детей //Педиатр. – 2017. – Т. 8. – №. 5.

2. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). *ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB Olish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-972.

3. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). *XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK*

TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(11), 153-161.

4. 13. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш. ОБ ИЗМЕНЕНИИ СВОЙСТВ КИШЕЧНЫХ ПАЛОЧЕК ПРИ ПОНОСАХ У ДЕТЕЙ // *Экономика и социум*. – 2021. – №. 3-2. – С. 611-616.

5. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

6. 14. Юсупов, М. И., Х. Ш. Шайкулов, and Г. М. Одилова. "Антигенное сходство *e. coli*, выделенных от матерей и их детей." *Доктор ахборотномаси* 4 (97) (2020): 129.

7. Dildora G'iyosovna, S. . (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 387–393. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>

8. Azimovich, A. U. B., Sultonovich, B. K., & Zokirovna, M. M. (2022). STREPTOKOKK AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING PATOGENLIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(13), 95-101.

NEMIS TILIDAGI „MORGENSTUNDE HAT GOLD IM MUNDE“ MAQOLINING ETIMOLOGIYASI

Ibragimova Mashxura

O‘zMU, XFF, Lingvistika (Nemis tili)

Mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Ilmiy rahbar – professor **Sh.S. Imyaminova**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘tgan asrlarda maqollarning turlari to‘g‘risida bayon etilgan. Bundan tashqari nemis tilidagi „Morgenstunde hat Gold im Munde“ maqolining kelib chiqishi va uning turli davrlardagi qanday ahamiyat kasb etganligi yoritib berilgan.

***Kalit so‘zlar:** tarix, tilshunoslik, nazariya, etimologiya, qiyosiy metod, ekvivalent, bo‘yoqdorlik.*

DIE ETYMOLOGIE DES SPRICHWORTES „MORGENSTUNDE HAT GOLD IM MUNDE“ IM DEUTSCHEN

ANOTATION

Dieser Artikel beschreibt die Arten von Sprichwörtern in den vergangenen Jahrhunderten. Außerdem wird die Herkunft des deutschen Sprichworts „Morgenstunde hat Gold im Munde“ erklärt und wie es in verschiedenen Epochen an Bedeutung gewann.

***Schlüsselwörter:** Geschichte, Linguistik, Theorie, Etymologie, Vergleichende Method, Äquivalent, Färbung.*

Aller Anfang ist schwer

aber

Frisch gewagt ist halb gewonnen

Yuqoridagi maqolimizga nazaringiz tushgani aniq, "Hamma ishning boshlanishi qiyin", ammo "bir harakat yarim barokat", "yangi tashabbuslar yarmi yutadi". Ba’zilar buni qadimgi zamonlarning qoldiqlari deb o‘ylashlari mumkin, ammo hozirgi zamonda esa bu gaplarga hech qanday o‘rin yo‘q. Biz faqat bobo-buvilarimizdan eshitishimiz mumkin bo‘lgan qandaydir hikmatlar bor. Lekin bu

haqiqatmi? Haqiqatan ham biz endi maqollarni ishlatmaymizmi? Biz ularni kundalik hayotimizda uchratmaymizmi? Aksincha, hozirgi tadqiqotlar ham maqolning o'zi munosib e'tirof va e'tiborga sazovor bo'layotganini ko'rsatmoqda. Maqol va matallarning o'ziga xos qayta tiklanish davri haqida gapirish mumkin. Uning sohalari va foydalanish turlari biroz o'zgarib, hozirgi zamonga moslashgan bo'lsa-da, avvalgi asrlarda bo'lgani kabi yana o'z o'rnini egalladi.

Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarflik kasb etib kelgan.¹² Ba'zan u yoki bu maqolning qanday paydo bo'lganligi qiziq, albatta. Etimologiya esa aynan bizga qiziq bo'lgan savolga javob beradi. Etimologiya odatda, so'zlarning kelib chiqishi va tarixini, balki vaqt o'tishi bilan ularning ma'nosi va shakllari evolutsiyasini o'rganishga intiladi. Bundan tashqari u alohida so'zlarni emas, balki kattaroq bo'lgan leksik birliklarni, masalan, idiomalar, maqol va matallarni ham tadqiq qiladi.

Biz bilamizki, ko'pgina maqol va matallar Injil va Antik davrda Yunon va Rim mualliflari tomonidan kelib chiqqan. Ulardan ba'zilar esa nemis tiliga tarjima qilish orqali nemis xalqi ongi va tiliga yo'l topadi. Vaholanki, maqol va matallarning aksariyati avlodlarga hikmat, ogoh va nasihatlarini yetkazish maqsadida xalqning o'zida paydo bo'lgan. Shuning uchun maqollarning katta qismi o'sha davrdagi hayotning uchta asosiy sohasi:

- a. uy – ro'zg'orga oid bo'lgan maqollar; *Gebranntes Kind scheut das Feuer* (Kuygan bola olovdan qo'rqqar)
- b. dehqonchilikka oid bo'lgan maqollar; *Auch ein blindes Huhn findet mal ein Korn* (Hatto ko'r tovuq ham donini topib yeydi)
- c. hunarmandchilikka oid bo'lgan maqollar; *Übung macht den Meister* (mashq odamni usta qilar)

¹² Sh. Mirziyoyev. "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir" deb nomlangan o'zbek tiliga davlat maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosim nutqidan

Shu o‘rinda yana bir maqolimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, *Morgenstunde hat Gold im Munde* – eng mashxur nemis maqoli hisoblanib, so‘ngi bir necha o‘n yilliklarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholi orasida keng tarqalgan va mashxur nemis maqolidir. Biroq bu maqol 16 – asrdan beri mavjud deya hujjatlashtirilgan. Bordiyu, biz qanchadan qancha nemis maqollarini o‘rta asrlar va antik davrlarga borib taqalganligini hisobga olsak, ushbu maqol nisbatdan yosh, ammo bu maqoldan bitta maqsadning uzatilishi qanchalik murakkab va boy ekanligini ko‘rsatish mumkin. W. Mieder ushbu maqol yuzasidan o‘zining amaliy ishida bu haqida alohida to‘xtalib o‘tgan.¹³

Am Anfang sollte aber vielleicht noch eines gesagt werden: Obwohl die Umfragen bewiesen haben, dass dieses Sprichwort wirklich den meisten Leuten - ungeachtet des Alters, Sozialstandes oder Bildungsgrades bekannt ist, und dass es auch am häufigsten benutzt wird, heißt es noch längst nicht, dass sich die Leute nach ihm richten und dass die Deutschen irgendwelche Frühaufsteher sind. Das bekannteste Sprichwort muss ja nicht unbedingt auch die akzeptierteste Sprichwortweisheit beinhalten. (Yana bir narsani aytish kerak: so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, bu maqol yoshi, ijtimoiy mavqei yoki ta’lim darajasidan qat’i nazar, haqiqatan ham ko‘pchilikka ma’lum va u eng ko‘p qo‘llaniladi., qiziqarli jihati shundaki, hali ham odamlar unga ergashadi va nemislar erta turuvchi xalq ekanligi esa bejiz emas)

Robert Geete (1881) bu maqol qanday o‘ziga xos shaklda paydo bo‘lganligi haqidagi birinchi filologik jihatdan ishonchli tushuntirishni taqdim etdi. U lotin tilidagi *os Mund* (og‘iz) so‘ziga emas, balki lotin tilidagi *manus* ya’ni *Hand* (qo‘l), *Ahd* (eng qadimgi asrlarda)da *munt/munti/mundi/mundet/munta* va *Mhd* (o‘rta asrlarda) *munt* “qo‘l” ma’nosi bilan birga berilgan. Shunda “ertalabgi tonging qo‘lingdagi oltin” maqolining zamonaviylashtirilgan matni hosil bo‘ladi – bu ertalabki mehnatning arzigulikligini ifodalovchi mutlaqo bir ma’noli formuladir.

¹³ Röhrich L., Mieder W. Sprichwort, Stuttgart, Metzler, 1977. S. 29

Ushbu maqolning ilk ko‘rinishi “*Die Morgenröte ist die Freundin der Muse*” (*Tong - bu ilohiyotning do‘sti*”) deb taxmin qilinadi. Bu lotincha matn birinchi marta Erazmusning Rotterdamdan yozgan maktubida uchraydi. *Die Morgenstundt hat die Arbeyt im Mündt* degan nemis maqolining dastlabki dalillari 1582 yilga borib taqaladi va bugungi kunda keng tarqalgan *Die Morgenstunden hat (das) Gold im Munde* varianti faqat 1585 yildan beri hujjatlashtirilgan. Richard Jente (1927) bu eng qadimgi maqolni bugungi kunga qadar olib kelgan. Bir muncha vaqt maqolning turli shakllari ham mavjud bo‘lib, taxminan 100 yil o‘tgach esa ushbu ko‘rinishlarga ega bo‘lgan.

Die Morgenstunde hat die Arbeyt im Mündt. (1582)

Die Morgenstunde hat das Gold im Munde. (1585)

Morgenstund bringt Brot und Gold im Munde. (1605)

Die Morgenstund hat das Brod im Mund. (1669)

Morgenstunde hat Gott im Munde. (1669)

Ammo 500 yildan oshmagan bu maqol nega bugungi kunda bunchalik keng tarqalgan va mashhur, degan savol haligacha qolmoqda. Buni quyidagicha izohlash mumkin: Umuman maqol 19-asrda o‘qitishda katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, *erta turganning rizqi unar*, ko‘pincha bu maqol axloqiy insho mavzusi sifatida ishlatilgan, talabalar erta turishning afzalliklarini taqdim etishlari kerak bo‘lgan. Natijada, bu maqol tobora ommalashib ketdi. Ko‘rinishidan, u 19-asrdan bizgacha etib kelgan bir qator boshqa evfemizmlar va anti-maqollar tomonidan ko‘rinib turganidek, qiyinchilik darajasiga qadar yanada keng tarqalgan bo‘lib qoldi.

Xulosa sifatida shuni aytish joziki, biz qo‘llayotgan maqol va matallarning avvalo kelib chiqish tarixiga bir nazar solsak ayni muddao bo‘lardi, sababi nutqimizda uni bilib, ong bilan tafakkur qilib qo‘llaganimizda tinglovchining ham qalbiga yetkaza olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Röhrich L., Mieder W. *Sprichwort, Band 154. Metzler, 1977.*
2. *Imyaminova Sh. S. Nemischa – o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Toshkent, Mumtoz so‘z, 2013*

MUNAQQID HECH QACHON O‘LMAYDI YOHUD UMARALI NORMATOVNI XOTIRLAB

Mamatova Muqaddas G‘uzorovna

O‘zMU 2-boqich magistranti muqaddasmamatova85@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligi yorqin namoyondasi, tanqidchi olim Umarali Normatovning hayoti va ilmiy faoliyati haqida to‘xtalinib, xotirlaniladi. O‘zbek olimning o‘zbek adabiy tanqidchiligi sohasidagi mehnati va uning yaratgan asarlari va boy me‘rosi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilishi shu yo‘sinda yaratilgan tadqiqotlarga qo‘shimcha manba sifatida ko‘rilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Umarali Normatov, tanqid, tanqidchi, qori, munaqqid, eruditsiya, muallim, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, tanqidchilik.

Yozuvchi hayot orqali kitobga boradi.

Tanqidchi kitob orqali hayotga kiradi.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligini Umarali Normatov qoldirgan asarlarini o‘rganmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, avvalo muallim, olim, ijodkor u kishining xarakteridagi muloyimlik, bilimdonlik, sermulohazakorlikning ildizi ota-onasining savodxonligiga bog‘liq. Munaqqid 1931-yili 3-yanvarda Farg‘ona viloyatining Rapqon qishlog‘ida tavallud topgan olim adabiyotimiz maydonida haqiqiy ma‘noda bosh harflar bilan yoziladigan, adabiyot oldidagi burchini, vazifasini halol bajarib, tinimsiz ijod qilib kelgan shaxslardan edi O‘zining serqirra ijodi bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan adabiyotshunos asarlari o‘zbek adabiyotining barcha davrlaridan so‘zlaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Normat qori buva nafaqat Rapqonda balki Farg‘ona muzofotidagi Qur‘onni yod biladigan savodli, insofli, adolatli insonligi bilan ham keng xalq ommasi hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lgan.

Bunday ziyoli oilada tug‘ilgan bolani o‘qimishli, savodli bo‘lmasligi mumkin emas edi.

Muallimga eruditsiya suv va havodek zarur. Lekin tanqidchini eruditsiyasiz mutlaqo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Eruditsiya etilgandagina tanqidchi yetiladi” – degan edi O‘zbekiston san‘at arbobi, adabiyotshunos Ibrohim G‘ofurov. Umarali Normatov – ustozlari G‘ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Subutoy Dolimov, Laziz Qayumov, Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shchanov, Ahmad Aliyev singari olim, muallim, ma’naviyatchi, ma’rifatchi, adabiyotshunos – tanqidchi bo‘lishni orzuladi va bu orzusiga yetishdi. Mamlakatimizning bu ulug‘ olimlari bilan bir qatorda turib faoliyat ko‘rsatdi, ular bilan adabiyot muammolari haqida bahslar olib bordi. Ha, Umarali Normatov adabiyot atalmish mo‘jiza ichida yashab, ajoyib mo‘jizalar yaratmoqda. Ozod Sharafiddinov domla aytganlaridek, “Umarali Normatov haqida gapirish ma’lum ma’noda bugungi o‘zbek tanqidchiligi haqida gapirmoq demakdir”.¹⁴ U. Normatovning shiori bu – to‘g‘riso‘zlik edi. Har kuni adabiyot sohasidagi yangiliklar bu inson nazaridan chetda qolmas edi. So‘z san‘atini bu darajada yuqori baholab, adabiyotshunoslik sohasida yetuk izlanishlar olib borish faqatgina U. Normatovga xos edi. U. Normatov hayotining ko‘p qismi qodiriyshunoslik bilan o‘tdi. Qodiriy hayoti va ijodiga oid o‘ndan ortiq asarlari orasida “Qodiriy mo‘jizasi” tadqiqoti alohida o‘rin tutadi.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U “O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi” unvoni, Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi bo‘ldi. Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov hozirgacha ellikka yaqin adabiy-ilmiy, tanqidiy kitoblar, yigirma beshta darslik, o‘quv qo‘llanmalari, etti yuzdan ortiq adabiy tanqidiy maqolalari mamlakatimizdagi va xorijdagi nufuzli jurnallarda e’lon qilingan. Olimning, ayniqsa, “Go‘zallik bilan uchrashuv”, “Umidbaxsh tamoyillar”, “Yetuklik”, “Qalb inqilobi”, “Qodiriy bog‘i”, “Qahhorni anglash mashaqqati”, “Ijod sehri” kabi ellikka yaqin kitoblari yosh

¹⁴ Шарафиддинов О. Умарали Норматов ҳақида билганларимдан бир шингил // Домлалар. –Т.:Маънавият, 2009. –Б. 237

adabiyotshunoslar, tanqidchilar, muallimlar uchun darslik, o'quv qo'llanmasi vazifasini bajarib kelmoqda. "Umarali Normatov adabiy suhbatlarida davr adabiy badiiy tafakkurining takrorlanmas belgilari aks etgan. Bu suhbatlar davr adabiy hayoti, adiblar tarjimai holi, ular qarashlarining takrorlanmas qimmatli hujjatlaridir...Ularda adiblarning o'ziga xos qarashlarigina emas, tanqidchi Umarali Normatovning printsiplari, axloqi, ijodkor sifatidagi qiziqishlari aks etadi".¹⁵ U. Normatov O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgu O'zMU) filologiya fakultetini tugatgan (1952–1957), aspiranturasida ta'lim olgan (1959–1962). 1962-yildan hozirgi kunga qadar o'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent, professor, mudir bo'lib ishlagan edi. Adabiy tanqidchilik faoliyatini 1957-yildan boshlagan.

Tanqidchi 1957 yildan matbuotda ko'rina boshladi, 500 dan ortiq maqolalari, 50 dan ortiq adabiy-tanqidiy asarlari, darslik, o'quv qo'llanmalari chop etilgan. Adabiyotshunos-olimning adabiy-tanqidiy ishlari yaxlit holda zamonaviy adabiy jarayon hamda yangi o'zbek adabiyoti tarixi, taraqqiyoti masalalariga bag'ishlangan; uning qalamiga mansub milliy adabiyotimizning nodir asarlari tahlili, o'ziga xos talqini, bu adabiyotning o'nlab namoyandalari adabiy portretlari, nihoyat, yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillariga oid ilmiy-nazariy ishlari ahamiyati adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. U 1962-yilda filologiya fanlari nomzodi, 1978-yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

Munaqqidning "Nasrimiz ufqlari" (1974), "Yetuklik" (1982), "Qalb inqilobi" (1986), "Qodiriy bog'i" (1996) kitoblari zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining yutug'idir.

Umarali Normatov 1991 yildan umumta'lim maktablari uchun tubdan yangilangan adabiyot dasturi va darsliklari yaratish bo'yicha mualliflar guruhiga rahbarlik qildi, 5,9, 11-sinflar uchun darslik, qo'llanmalar muallifi sifatida qatnashdi; uning ishtirokida oliy o'quv yurtlari uchun "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi", "Yangi

¹⁵ Гафуров И. Муҳаббатли одамнинг хайратлари / Норматов У. Ижод сеҳри. Т., 2007,- Б.11.

o‘zbek adabiyoti” kitoblari yaratildi. U. Normatovning adabiyotshunoslik, ta’lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari munosib taqdirlangan. U O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi (1981), O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989); O‘zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a’lochisi nishoni (1992), “ToshDU mohir pedagogi”(1998) unvoni sohibi. Adabiy-tanqidiy maqolalari uchun “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Tafakkur” jurnallari mukofotlarini olgan.

26 iyun O‘zbekiston Milliy universitetida ustoz U.Normatov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan katta ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. U.Normatovning tanqidchilikdagi prinsiplaridan biri yangilik izlash, yangilik olib kirish, yangilikni qutlash. U ijodining boshlanishidanoq, adabiyot va yozuvchilar ijodida novatorlikka alohida e’tibor bilan qaragan” deya haq so‘zni e’tirof etdi.

Anjumanda U.Normatovning tabarruk 90 yoshi munosabati bilan ustozning shogirdlari tomonidan nashrga tayyorlangan “Umarali Normatov” biobibliografiyasi va munaqqidning “Abdulla Qahhor: shijoat va mahorat jozibasi” kitoblari taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyot o‘qitish metodikasi kafedrasida professori Qozoqboy Yo‘ldoshev, O‘zMU professori Yormat Tojiyev, “Sharq yulduzi” jurnali bosh muharriri Sirojiddin Rauf va yozuvchi Luqmon Bo‘rixonlar so‘zga chiqib, Yozuvchilar uyushmasi nomidan domlaga uzoq umr tiladilar. Shuningdek tadbirda O‘zbekiston Respublkiva Oliy majlisi Qonunchilik palatasi qo‘mita boshlig‘i, prof. Xurshid Do‘stmuhammad, yozuvchilar Abbas Said, Isajon Sulton, TDO‘TAU professori Bahodir Karimov so‘zga chiqib, ustozning adabiyotshunos va munaqqid faoliyati haqida so‘z yuritdilar. 29-yanvar 2022-yilda o‘zbek adabiyoti o‘zining buyuk vakili, adabiyotshunos olimi, munaqqididan ayrildi. Ayni kunlarga ham ustozimiz mamlakatimiz adabiyotshunoslari, O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun ustozlik vazifalarini bajarib kelmoqda edilar. Biz yaqinda shogirdlari ustozimiz, maslahatgo‘yimiz, mehribonimiz Umarali Normatov tavalludlarining 91 yilligi bilan

samimiy tabriklagan edik. Uzoq umr, sog‘-salomat tilagan edik. Adabiy anjumanlarda, uchrashuvlarda so‘zga chiqib, birinchi kalomini: “*Azizlarim, qadrdonlarim, do‘stlarim*”, kabi, mehr ufurib turgan so‘zlar bilan boshlaydigan ustozimiz Allohning qadar-qismati bilan, buyuk olim inson Umarali Normatovdan ayrildik. Alloh oxiratlarini obod qilsin. Fidoyi ustoz va zahmatkash olim Umarali Normatovning porloq xotirasining o‘zi ham hamma uchun *azizu mukarram va qadrdon* bo‘lib qolayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1. Шарафиддинов О. Умарали Норматов ҳақида билганларимдан бир шингил // Домлалар. –Т.:Маънавият, 2009. –Б. 237.*
- 2. Фафуров И. Муҳаббатли одамнинг ҳайратлари / Норматов У. Ижод сеҳри. Т., 2007,- Б.11.*

RESPUBLIKAMIZ HUDUDIDAGI JAMI EKIN MAYDONLARI TARKIBI

Qo'ziboyev Shuhratjon Tursunaliyevich

(barcha toifadagi xo'jaliklar)

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute Dexqonchilik va o'rmon melioratsiyasi kafedراسи katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimiz ekin maydonlarining tarkibi, sug'orma dexqonchilik tarixiy taraqqiy etganligi, donli ekinlar qaysi hududlarda ekish maqsadga muvofiqligi haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *sug'orma dexqonchilik, ekin maydonlari, yerlarning taqsimlanishi, texnik ekinlar, paxta yetishtirish, agrotexnik tadbirlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены научные сведения о составе посевных площадей нашей страны, историческом развитии орошаемого земледелия, а также о площадях, на которых следует сажать зерновые культуры.

Ключевые слова: *орошаемое земледелие, посевные площади, землеотвод, технические культуры, возделывание хлопчатника, агротехнические мероприятия.*

ANNOTATION

This article provides scientific information about the composition of cultivated areas of our country, the historical development of irrigated agriculture, and the areas in which grain crops should be planted.

Key words: *irrigated agriculture, cultivated areas, land distribution, technical crops, cotton cultivation, agrotechnical activities.*

KIRISH

Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida qishloq xo'jaligidagi muammolarni bartaraf qilish, ekin maydonlarini to'g'ri tanlash hamda yangi ser-hosil navlardan foydalanish bo'yicha topshiriq berdi. O'zbekiston Respublikasi ulkan mehnat resursi va qishloq xo'jalik yerlariga ega davlatdir. Bu hududda uzoq asrlar davomida o'troq yashab kelayotgan aholi tomonidan yangi yerlar o'zlashtirilib kelingan. O'zbekiston hududida 3-3,5 ming yil avval birinchi sug'orish inshootlari qurila boshladi. Dehqonchilik qilinadigan va aholi yashash manzilgohlariga yaqin bo'lgan joylarda dastlabki suv omborlar, kanallar qazilishi boshlandi. Yurtimizda sug'orma dehqonchilikning eng qadimgi hududlariga Movarounnahrni misol qilib keltirish mumkin. Bu yerda sug'orma dehqonchilik deyarli 5 ming yillik tarixga ega. O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda jahonda sug'oriladigan yerlar maydoniga ko'ra 11-o'rinda turadi. Hududda asosiy dehqonchilik sug'orma (obikor),qisman lalmikor holatda olib boriladi. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar maydoni 4,2 mln gektar, lalmikor yerlar esa 734 ming gektarni tashkil qiladi. Quyida ekin maydonlarining yillar kesimida o'zgarib borishi haqida ma'lumot beramiz.

Don ekinlari (ming gektar hisobida)

2017-yil 1655,6

2018-yil 1643,2

2019-yil 1578,3

2020-yil 1646,2

Bug'doy (ming gektar hisobida)

2017-yil 1411,1

2018-yil 1386,3

2019-yil 1316,1

2020-yil 1359,1

Makkajo'xori don uchun (ming gektar hisobida)

2017-yil 37,8

2018-yil 40,8

2019-yil 44,1

2020-yil 51,9

Sholi (ming gektar hisobida)

2017-yil 73,1

2018-yil 46,8

2019-yil 71,0

2020-yil 64,2

Dukkakli don (ming gektar hisobida)

2017-yil 28,0

2018-yil 56,1

2019-yil 49,2

2020-yil 52,7

Texnik ekinlar (ming gektar hisobida)

2017-yil 1253,3

2018-yil 1150,5

2019-yil 1099,5

2020-yil 1062,3

G'oz (ming gektar hisobida)

2017-yil 1201,2

2018-yil 1108,2

2019-yil 1050,6

2020-yil 1062,3

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, donli ekinlar maydonida yillar kesimida o'zgarishlar bo'lmoqda. Bunga sabab zahiradagi bo'lgan don mahsulotlari hajmi hamda donga bo'lgan ehtiyojga qarab turlicha maydonlarda ekib kelinmoqda. Shuni aytib o'tish lozimki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng don mustaqilligini ham qo'lga kiritdi. Mustaqillikkacha yurtimizda 20 foiz ekin maydonlariga donli ekinlar ekilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 50 foizga yetdi. Shuningdek, bug'doy lalmikor hamda tuproq sharoiti qulay bo'lgan yerlarga, makkajo'xori chorvachilik va

parrandachilik rivojlangan rayonlarda, sholichilik esa daryo va suv omborlar mavjud bo'lgan suv resursiga boy bo'lgan hududlarda ekib kelinmoqda. Aytib o'tish lozim bir tonna bug'doy yetishtirish uchun 1500 tonna, bir tonna paxta yetishtirish uchun 12000 tonna, bir tonna sholi yetishtirish uchun 15000 tonna suv talab qilinadi. Shuning uchun suv resursini e'tiborga olgan holda ekin turi tanlanib olinsa, dehqonchilikda unumdorlik bo'ladi. Suv taqchilligi oldini olinadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyoti rivojlanib, aholi soni ko'payib borayotgan O'zbekistonda qishloq xo'jalik sohalarida bor imkoniyatlarni ishga solish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish,

-ekin maydonlarini ishdan chiqib ketishini oldini olish,

-maydon birligida hosildor navlarni yaratish va ularni amaliyotga tadbiriq qilish,

-oziiq-ovqat va meva-sabzavot importiga barham berib, ichki ehtiyojni qondirish aholi yashash sharoitini yanada yaxshilash qishloq xo'jaligi sohasining asosiy ustuvor vazifasi bo'lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2021-yildagi statistik to'plami.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEVA-SABZAVOTLAR EKSPORTI GEOGRAFIYASI

Qo‘ziboyev Shuhratjon Tursunaliyevich

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institute Dexqonchilik va o‘rmon
melioratsiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada meva-sabzavotchilikning istiqbollari, qaysi hududlarda uzumchilik rivojlanganligi, shuningdek, O‘zbekistonning meva-sabzavotchilik sohasida asosiy eksportyor davlatlar va prezidentimizning Oliy majlisga meva-sabzavotchilik bo‘yicha murojaatnomasi haqida ilmiy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Meva-sabzavotchilik, eksport miqdori, ming tonna hisobida, uzumchilik, hosildor navlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье приведены научные сведения о перспективах плодовоовощеводства, в каких регионах развито виноградарство, а также об основных странах-экспортерах плодовоощной отрасли Узбекистана, а также письмо нашего президента в Олий Мажлис о выращивание фруктов и овощей.

Ключевые слова: *Плодовоовощеводство, объем экспорта, тыс. тонн, виноградарство, продуктивные сорта.*

ANNOTATION

The article provides scientific information about the prospects of fruit and vegetable growing, in which regions viticulture is developed, as well as the main exporting countries in the fruit and vegetable sector of Uzbekistan, and the letter of our president to the Oliy Majlis on fruit and vegetable growing.

Key words: Fruit and vegetable growing, export volume, thousand tons, viticulture, productive varieties.

KIRISH

Meva-sabzavotchilik klasterlarini samarali tashkil qilish bo'yicha vazifalar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 14-fevral kuni meva-sabzavotchilik klasterlarini samarali tashkil qilish, paxtachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish hamda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish tizimidan bosqichma-bosqich voz kechish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyot rivoji, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri. Shu bois uni zamon talablari, strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish choralari, ko'rilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 23-oktabrdagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Oliy Majlisga Murojaatnomada barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligi bo'yicha ham aniq yo'nalishlar ko'rsatib o'tildi. 2025-yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 100 milliard dollar, yillik eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun qishloq xo'jaligi sohasida ham juda katta rezerv va imkoniyatlar bor. Meva-sabzavot eksportini tizimli tashkil qilish, mahsulot ishlab chiqaruvchi bilan eksportyor o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida meva-sabzavotchilik va uzumchilikda ham klaster tizimi joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda bir yilda 1 mln 485,0 ming tonna meva-sabzavot eksport qilinmoqda. 1 mlrd 8600 dollar qiymatga teng narxda eksportdan yurtimizga mablag' kirib kelmoqda. Eksportning asosiy qismi sabzavotlarga to'g'ri kelmoqda. 2020-yilda 768,3 ming tonna sabzavot eksport qilindi. 400 mln dollar eksport sabzavotning hissasiga to'g'ri keladi.

Eksport tarkibida ikkinchi o'rinda uzum o'rin egallaydi. 2020-yil ko'rsatkich bo'yicha 181,4 ming tonna uzum mahsulotlari chet davlatlarga eksport qilindi.

Bu valyutada 188,3 mln dollarlik chetga eksport qilingan demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi chetga meva-sabzavotlarning eng ko‘p qismini Rossiya Federatsiyasiga yo‘naltirmoqda. 2020-yilda 355,2 ming tonna (255,4 mln dollar) aynan shu davlatga to‘g‘ri keldi. Meva sabzavotlar eksporti hajmi bo‘yicha keying o‘rinlarda quyidagi davlatlar o‘rin egallaydi.

Davlat nomi.	Ming tonna	Mln.AQSH dollar	Ulushi,%
Qozog‘iston	625,1	251,4	24,9
Qirg‘iziston	136,8	181,4	18,0
Pokiston	48,5	75,5	7,5
Xitoy	90,8	70,1	7,0
Afg‘oniston	67,9	49,4	4,9
Turkiya	14,4	19,4	1,9
Ukarina	27,5	15,3	1,5
Turkmaniston	21,5	10,7	1,1
Tojikiston	17,3	10,6	1,0
Belarus	13,4	10,4	1,0

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan kelib chiqib xulosa qilinganda, O‘zbekiston ulkan iqlim resursiga ega ekanligi hamda yer resursi bilan yetarli ta’minlanganligi meva-sabzavotchilik sohasini yanada rivojlantirishga imkon beradi. Bog‘dorchilik klaster xo‘jaliklarini tashkil qilinishi mevachilikni rivojlantirishga juda katta imkoniyatlar beradi. Uzumchilik bo‘yicha Oltiariq, Adnijon, Samarqand juda katta salohiyatga va tajribaga egadir. Har yili Oltiariqdan katta miqdorda O‘rta osiyo va Yevropa davlatlariga eksport qilinmoqda. Meva-sabzavotchilikda yangi hosildor navlardan foydalanish, agrotexnik tadbirlarni uzviy olib borish yanada katta miqdorda hosildorlikni oshirishga imkon yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 14-fevraldagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.*

2. *O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2021-yildagi statistik to‘plami.*

УЎТ 632.595.727

**ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АГРОЦЕНОЗЛАРИДА ЗАРАРЛИ
ЧИГИРТКАЛАРНИНГ ДОМИНАНТ
ТУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ**

Санжарбек Пахлавонович Усманов

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар
институти. қ.х.ф.ф.д.(PhD), доцент

АННОТАЦИЯ

Мақолада Фарғона водийси агроландшафтларда тарқалган якка холда яшовчи чигиртка турлари сони ва зичлиги келтирилган. Ўрганилган маълумотларга асосан чигирткалар кўзачаларидаги тухумлар сони ва массаси ўрганиб анализ қилинган.

Калит сўзлар: чигирткалар, доминант турлари, тарқалиши, агроценозлар, худудлар, ўлчами ва оғирлиги.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена численность и плотность одиночно обитающих видов саранчовых в агроландшафтах Ферганской долины. На основании изученных данных были изучены и проанализированы количество и масса яиц в кубиках саранчи.

Ключевые слова: саранчовые, доминирующие виды, распространение, агроценозы, регионы, размеры и масса


ABSTRACT

The article presents the number and density of solitary locust species in the agricultural landscapes of the Fergana Valley. Based on the studied data, the number and weight of eggs in locust cubes were studied and analyzed.

Key words: locusts, dominant species, distribution, agrocenosis, region, size and weight.

Кириш. Дунёда чигирткаларнинг ўнлаб турлари озик-овқат хавфсизлиги учун жуда катта муаммолар келтириб чиқармоқда. Уларнинг авж олиб ривожланиши Антарктидадан ташқари ҳар бир қитъада содир бўлиб, дунё аҳолисини 10 фоизини ҳаётига хавф солмоқда. Уларнинг ялпи кўпайиши оқибатида қишлоқ хўжалигида мисли кўрилмаган даражада экологик муаммоларни ҳал этиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда дунёда зарарли чигирткаларга қарши кураш ишлари кенг миқёсда йўлга қўйилган. Бу ҳолат уларни ўрганиш бўйича эришилган ютуқларга қарамадан, бу борада анча муаммолар мавжудлиги, чигирткаларнинг қишлоқ хўжалиги экинлари ва яйловларга зарари кўзга ташланмоқда. Фарғона водийси чигирткалари тур таркибини аниқлаш, уларнинг тарқалиши ва айрим экологик хусусиятларини мониторинг қилиш учун 2017-2021 йиллар давомида Андижон вилоятининг Хўжаобод, Балиқчи, Олтинқўл, Булоқбоши туманлари, Наманган вилоятининг Поп, Фарғона вилоятининг Қува, туманларининг ҳудудидан чигиртка турлари намуналари йиғилди. Материал йиғиш ишлари асосан чигирткаларнинг тўлиқ ривожланиш муддатлари давомида қисман баҳор ва куз ойларида ва асосан ёз фаслининг июль ойида ўтказилди. Ялпи ривожланувчи турларнинг биологик ва экологик хусусиятларини ўрганиш учун иккита стационар майдон танланди (1-расм).



1 – расм. Фарғона водийси чигирткалари мониторинги бўйича тадқиқот ишлари ўтказилган ҳудудлар харитаси

Тўда ҳосил қиладиган турларнинг табиий ўчоқларини аниқлаш учун эса Андижон вилоятининг 7 та, Наманган вилоятининг 4 та, Фарғона вилоятининг 5 та туманлари ҳудудларида улар миқдори ва зичлиги, ривожланиш муддатлари ўрганилди. Тўда ҳосил қилмайдиган турларнинг маҳаллий ўчоқларини аниқлаш учун улар тарқалиши мукин бўлган ҳудудлар шароити таҳлил қилинди

Ҳашаротлар намуналарини таҳлил қилиш ишлари Г.Я. Бей-Биенко (1953), бўйича, унга айрим умумий энтомологик ўзгартиришлар киритилган ҳолда ва Ф.М. Правдин (1978) бўйича олиб борилди. Йиғилган материаллар асосида коллекция таёрланиб, турлар А.В. Лачининский ва б., (2002) бўйича М.Ж. Медетов томонидан аниқланди. Турлар йиғилган майдонлар координатлари Гармин GPS навигатори ёрдамида аниқланди. Стациялар бўйича турлар ўқшашлиги (Жаккар) индекси ҳисобланди. Зарарли турлар зичлигини аниқлаш Циценков (1974) бўйича ҳисобга олинди. Турлар миқдори, зичлиги ва улар тарқалиш майдонлари бўйича статистик маълумотлар Microsoft Excel 2016

дастури асосида амалга оширилди. Илмий тадқиқотлар Фарғона, Андижон, Наманган вилоятларининг чигирткалар тарқалган тоғолди, яйлов ва чўл ҳудудларида ва Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялари институтининг лабораториясида олиб борилди.

Тадқиқотлар давомида Google.earth дастури ёрдамида сунъий йўлдошдан олинган тасвирларни QGIS дастурида қайта ишлаб чигирткалар тарқалиш ўчоқларини белгилаб олдинди [1; 881-890 б.].

Фарғона водийси вилоятлари экин майдонларида тарқалган чигирткалар тур таркибини аниқлаш мақсадида 2017-2021 йиллар давомида олиб борилган тадқиқотлар натижасида, бу ҳудудда 76 чигиртка турлари тарқалганлиги аниқланди. Жумладан агроценозларда 36 та, тоғ ва тоғ олди ҳудудларда 42 та, чўлли типдаги ландшафтларда 22 та ва адирларда 10 та чигирткаларнинг турлари учраган. Ўрганилган чигиртка турларининг ландшафтлараро ўхшашлиги аниқлаш учун ўтказилган таҳлил натижаларига кўра Жаккар бўйича агроценоз ва чўлда тарқалган турлар ўхшашлиги 23,0 %, агроценозларнинг тоғ ва тоғ олди ҳудудларда ва адирларда тарқалган чигирткалар турлари билан яқинлиги 18,0 % ни ташкил қилиши аниқланди (1-жадвал). Олинган маълумотларга кўра, Фарғона водийси чигирткалари турлари ландшафтларо ўхшашлиги жуда кам бўлиб, ўрганилаётган ҳудуд чигирткалар фануаси турли туман эканлигини англатади ва ҳар қайси ландшафтнинг ўзига ҳос бўлган чигиртка турлари популяциялари шаклланган. Жумладан, тоғ ва тоғ олди ҳудудлар учун 25 авлодга мансуб, агроценозлар учун 27 авлодларига мансуб турлар ўзига хослиги билан ажралиб туради. Агроценозларда ўтказилган тажриба маълумотларига кўра 26 та чигиртка турлари бошқа турларга нисбатан кенг тарқалганлиги аниқланди. Йиғилган намуналар таҳлил қилинганда, ғўза далаларида 16 тур, буғдойда 10, шолিপояда 10 тур, бедапояда 17, маккажўҳори даласида 8, дон-дуккакли экинларда 9 тур, сабзавот ва полиз экинларида 12, боғларда 17 тур, чигирткалар тарқалган. Аниқлаган чигиртка

турларидан энг кўп тарқалган 14 тури зичлиги жиҳатдан доминант турлар сифатида аниқланди.

1-жадвал.

Ландшафтларда тарқалган турлар мослигининг Жаккар индекси.

ijtimoiy fanlarning ko'p tarmoqli terminologiyasidan (Kedrov 1980) farq qiladi, ularga yaqinda gumanitar va metodologik fanlar guruhi qo'shildi, tor tarmoq terminologiyalaridan masalan, ichki sohada shakar ishlab chiqarish texnologiyasi sohasi kabidir. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari; Voronejda yaratilgan shakar ishlab chiqarish texnologiyasining 12 ta lug'atlari prof. Ivanov Anyushkin,(Ivanov 1970). Ilm-fan va texnika sohalari soni bir asrdan ikkinchisiga o'zgarib turishi aniq. Turli olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida fanlar soni ikki baravar ko'paydi, shu munosabat bilan RL soni ikki baravar ko'paydi [Grinev 1993,82-84]. Ilmiy RL bilan bir qatorda zamonaviy ijtimoiy hayotning murakkab tuzilishiga mos keladigan texnik va iqtisodiy, xususan, savdo va tibbiy, ijtimoiy-siyosiy va gumanitar RL mavjud. Biz u yoki bu terminologiyani, shu jumladan yangi yoki yangilanadigan terminologiyani shakllantirish tamoyillari haqida gapiramiz. Ushbu tamoyil mantiqiy, lingvistik va terminologik jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab va terminologiyadir. Quyida uning ichki va tashqi tabiatning turli sabablari va omillariga bog'liqligi ko'rsatiladi. Taqdimotning qulayligi uchun siz yangi terminologiya holatidan boshlashingiz kerak. Yaqinda paydo bo'lgan va tegishli ma'lumotlarning ozmi-ko'pmi yopiq tizimini o'z ichiga olgan bunday sohani yangi bilim sohasi deb atash mumkin. Bilim sohasini uning ob'ektlarini, ularning xususiyatlari va jarayonlarini tavsiflovchi va tushuntiradigan kamida bitta nazariyani shakllanishigacha yangi deb hisoblash mumkin. Bilim sohasining yangiligi tushunchasi tubdan nisbiydir, yangilik davrining davomiyligi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan belgilanadi:

- 1) yaratilish davri zamonaviy kimyo taxminan 80 yil ichida, XVIII asr oxirida shakllangan; kibernetika-XX asrning 40-yillarida. Olti yil ichida shakllangan;
- 2) ijtimoiy ehtiyoj kosmonavtika asoslari XX-asrning 40-yillarida yaratilgan. XX asr 20 yil davomida;
- 3) Bilim sohasi yaratuvchisining intellektual ma'lumotlari glossematika L.Yelmslev tomonidan 8 yil davomida ishlab chiqilgan [glossematika.1960,215-462].

Yangi bilim sohasining paydo bo'lishi va shakllanishi bilan birgalikda ushbu sohaning maxsus tushunchalarini, aniqrog'i, u tasvirlangan va tushunilgan nazariyalarni bildiruvchi atamalar to'plami shakllanadi. Yangi bilim sohasini yaratish singari, uning atamaları to'plamini shakllantirish ham ozmi-ko'pmi uzoq davom etadigan jarayondir. Kanadalik olim G.Rondo atamaning mavjud bo'lishining uchta davrini aniqladi: yangilik bosqichi, foydalanishni aniqlash bosqichi va qarish bosqichi [Rondo 1980,1-7,maxsus.4-5]. Bundan tashqari, atamalar to'plamining shakllanishi yangi bilim sohasining oldingi sohalar bilan bog'liqligining katta yoki kichik darajasiga bog'liq: masalan, tibbiyotda anatomiya va farmatsiya atamaları [Chernyavskiy 1984, 410-425]. D.S.Lotte o'z maqolalaridan birida "1907-yilda nemis uchuvchilari Ittifoqining til komissiyasi aviatsiya bo'yicha ishlab chiqilgan atamalar allaqachon o'rnatilgan mutaxassisliklar, asosan dengizchilik atamaları asosida bo'lishi kerak degan qarorga keldi" degan edi [Lotte 1961,45,1-izoh]. Darhaqiqat, aeroportlar va samolyotlarni jihozlash bilan bog'liq atamalar navigatsiya atamalariga o'xshashdir: dengiz kemasi ekipaji - havo kemasi ekipaji, samolyot uchuvchisi, dengiz porti - aeroport, dengiz kemasida - havo kemasida, konduktor-styuardessa va boshqalar. Bilimlarning tubdan yangi sohasi yaratilgan taqdirda, atamalarni tizimlararo qarz olish ham mumkin, ammo atamalar yangi ma'noga ega bo'ladi yoki ilgari ishlatilgan semantik omonimlarga aylanadi. Atamalar to'plamini shakllantirishga ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillardan biri bu yangi bilim sohasini kashf etish va rivojlantirishning ustuvor omilidir: Agar ikkinchisi terminologiya yoki atama tizimi shakllangan mamlakatda yaratilmagan bo'lsa, unda atamalarni tanlashda ularni tildan qarz olish ehtimoli mavjud bo'ladi. Hozirgi kunga qadar ko'plab tadqiqotlar, shu jumladan dissertatsiya, sanoat terminologiyalari, qoida tariqasida, ushbu terminologiyalarga kiritilgan birliklarni lingvistik tahlil qilish bilan cheklangan atamalar so'zlar va iboralarni ajratish, atamalarni shakllantirishning metaforik usullari, turli xil tuzilmalar atamalarini statistik hisoblash va boshqalar. Ushbu savollarga zamonaviy yondashuvlar, xususan, kognitiv yondashuv atamalar va ularning agregatlariga nisbatan qo'llanilganda javob berish mumkin bo'ladi. Ushbu

yondashuv dastlab psixologlar tomonidan XX-asrning o‘rtalarida qo‘llanilgan, ammo keyinchalik o‘z mavzusi va usullarini kengaytirib, tilshunoslikka ham tarqaldi. Britaniya va Amerika ingliz tillarida O‘zbekcha so‘z qadoqlangan juda ko‘p equivalentlarga ega. Baliq konservalari-qadoqlangan baliq konservalangan ananas-qadoqlangan ananas qadoqlangan sut-qadoqlangan sut Punnet qulupnay-qadoqlangan qulupnay boksli svetkorn-qadoqlangan shirin makkajo‘xori har qanday tarjima manba matnining mazmuni, funksiyalari, stilistik va kommunikativ qiymatini saqlab turishi kerak. Oziq-ovqat sanoati hujjatlarini/matnlarini tarjima qilishda umuman to‘g‘ri tarjima qilishning o‘zi etarli emas. Tarjima-bu ma’lumotni barcha tafsilotlarni va hatto alohida so‘zlarning ma’nosini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, manba matni uchun haqiqiy bo‘lishi kerak. Oziq-ovqat texnologiyasi matn maxsus ichimlik katta sonini o‘z ichiga oladi, ovqat, gazak termin. So‘zlashuv, takrorlash, arxaik til, uzun jumlar, formulaning noto‘g‘riligi, nomutanosiblik (shartnoma moddalari o‘rtasida) va subjektiv kayfiyatdan foydalanishdan qochish kerak. Hujjatlarni tarjima qilish ancha murakkab jarayon. Tarjima qilish hujjatning manba matni tuzilishini saqlab turish kerak. Bir tilning turli xil variantlari mavjud. Ingliz tili buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Kanada va boshqa mamlakatlarning oziq-ovqat sanoati tillarini qamrab oladi. Ularning barchasi sintaktik, leksik va semantik jihatdan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ko‘rsatkichlarga e’tibor berish orqali hujjat matnini talqin qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. *Loesche, V. (1991). Tuebingen: Guten Narr. Nyumark, P. (1988a).*
2. *Xertfordshir: Prentice Zali. Nyumark, P. (1988b).. Xertfordshir:*
3. *Prentice Zali. www.foodprocessing.com*
4. *Гуламова, H. A. Oziq-ovqat sanoati terminologiyasining ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari.— 2018. — № 14 (200). — C. 73-75.- URL: <https://moluch.ru/archive/200/49277/> (O‘zbekiston: 09.01.2023).*
5. www.ziyo.net
6. www.ziyo.com

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING ANALITIK TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISHDA O‘QISH SAVODXONLIGINI
SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.**

Qoraboyev Husniddin Kamolovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida analitik tafakkurini shakllantirishning pedagogik shart- sharoitlari tahlil qilingan. O‘quvchilarda analitik tafakkurni shakllantirishda o‘qish savodxonligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari asoslab berilgan. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining analitik tafakkurini shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, analitik tafakkur, tahlil qilish, tasavvur, o‘qish savodxonligi, o‘zaro hamkorlik, samaradorlik.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni, 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi, “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali o‘quvchi yoshlarni boshlang‘ich sinflardan o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini oshirishning didaktik imkoniyatlari ortadi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda ham kichik yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni badiiy matni tushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilmoqda. Finlandiyada kitobxonlik darajasini oshirishda otanonaning mas'uliyatini kuchaytirish, AQShda badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi, Germaniyada bolalar adabiyotida dramaga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tahlil ko'nikmalarini tarkib toptirish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish masalalari Q.Abdullayeva, S.Matchonov, B.Makulova, T.G'afforova; yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalarini shakllantirish masalalari A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, U.M.Marasulova, R.X.Niyozmetova, Q.P.Husanbayevalarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari K.Qosimova, Sh.Yo'ldosheva, X.G'ulomova, A.Q. Nisanbayevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarda bolalikdan badiiy adabiyotga havas uyg'otish, ularning obrazli tafakkurini o'stirish, ko'p jihatdan ta'lim tamoyillari va metodlarining to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Ilmiy asosda to'g'ri tanlangan metod o'quvchi shaxsini rivojlantirish, aqliy faoliyatini faollashtirish va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi.

Muammoning hayotiy ildizi shundaki, tadqiqotchi N.Jo'rayev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunga kelib, bilim berish texnologiyalarining uzluksiz ortib borishi bilan o'quvchilarda o'qishga nisbatan munosabat o'zgarib, bu bilimlarning barchasini o'zlashtirib olish imkoniyati kamaymoqda, o'qishga nisbatan qiziqish so'nmoqda.[1.123] Shuning uchun ularga bu bilimlardan foydalanish, ularni qayta tiklash, o'qishni takomillashtirish, qayta ishlash strategiyasini o'rgatish maqsadga muvofiqdir"[2.123].

O'qitishning mohiyati ham o'quvchilarni tushunchalar bilan qurollantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishdan iboratdir. Voqelikdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar har bir kishining ongida bolalikdan boshlab to umrining oxirigacha takomillashib boradi. Shuning uchun ham o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab adabiy tushunchalarni shakllantirish – sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri, deyish mumkin.

O'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.[3.21] O'qituvchi adabiy tushunchalarni o'rgatish jarayonida ifodali o'qish, matnni yod olish, qayta hikoya qilish, savol-topshiriqlar ustida ishlash, ijodiy yozma ishlar yozdirish usullaridan foydalanadi.

Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq adabiy tushunchalar yuzasidan hosil qilinadigan elementar bilimlar orqali o'quvchilar kishilarning fikrlari, his-tuyg'ulari va ichki dunyosini ifodalashda badiiy nutqning ahamiyatini anglab boradilar. O'quvchilarda adabiy tushunchalarni hosil qilishda ularning badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanini anglashlariga erishish lozim. Buning uchun badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning rasmda ranglar orqali ifodalanishini namoyish qilish orqali badiiy adabiyot tasviriy san'at kabi san'at turi deb tushuntirish mumkin.[4.23] Har ikkisida hayotiy voqealar aks etishi, tasviriy san'atda ranglar orqali, badiiy adabiyotda so'zlar orqali tasvirlanishi haqida ma'lumot berish foydadan xoli bo'lmaydi. Asar yaratish uchun yozuvchi so'zga boy bo'lishi lozim ekanligi, bunga o'qish-o'rganish orqali erishish mumkinligini o'quvchilar ongiga yetkazish zarur. Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo'lishi, asar tahlilida nimalarga e'tibor berilishini ajratib olishi, o'qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o'qish darslarida badiiy asarni o'qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z san'atini bevosita idrok etish qobiliyatining rivojlanishi asar syujetining o'ziga manzur jihatlarini aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, o'z xulosalarini umumlashtirib bayon qilish tarzidagi adabiy tahlil ko'nikmalarini egallay borishiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'qish ta'limi o'quvchilarning savodxonligi, kitobxonlik malakasini shakllantirish va shu orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qilishdek birdan-bir vazifasini bajarishda adabiy tushunchalarga tayanadi. Shunga ko'ra, adabiy tushunchalar nafaqat nazariy ahamiyat kasb etadi, balki juda muhim amaliy mohiyatga ham egadir. Globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda adabiy tushunchalar vositasida o'quvchilarning kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirishning test, qiyosiy tahlil, suhbat, mustaqil ish bilan bog'liq interfaol usullardan foydalanish o'qish ta'limi samardorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish darslarida o'quvchilarni badiiy matnni tushunish, undan kelib chiqadigan tarbiyaviy g'oyani anglashga o'rgatishda PIRLS - tadqiqot metodlaridan foydalanish bevosita adabiy tushunchalar bilan bog'liq tarzda amalga oshirilishini talab etadi. Bu esa boshlang'ich sinflar bitiruvchisining Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha yuqori natijalarga erishishi uchun zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. To'xliyev B. *Adabiyot o'qitish metodikasi*. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 144 b.

Uzluksiz adabiy ta'lim yo'rig'i (konsepsiyasi). – T.: O'zPFITI, 1995. – 22 b

2. Shukurov Yo. *So'z san'ati so'zligi*. – T.: Zarqalam, 2006. – B 7-10.

3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariyev SH. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – T.: Noshir, 2009. – 424 b.

4. SILVA, Ezekiel Tan of. *The Act of reading: psychological foundations for a pedagogy of reading*. 10 ed. – Sgo Paulo: Cortez, 2007. – p 95.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM OMILI

Tuxtayev Olimjon Xalmuradovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oila institutini mustahkamlashning shakl, metod va vositalari sharhlangan. Jamiyatda barkamol avlod tarbiyasining falsafiy jihatlari o'rganilgan. Barkamol avlod tarbiyasi orqali oila institutini mustahkamlashning imkoniyatlari tahlil qilinib, uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Oila instituti, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, falsafiy tahlil, natija, hamkorlik.*

Dunyoda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, iqtisodiyot yoki ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lmasin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. So'nggi yillarda jamiyatimizda globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va ahloqiy tarbiyada g'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat mamlakatimizning ertangi porloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi ham shu muammolarni yechishga qaratilgan.

Bizning mamlakatimizda ham ushbu masalaning dolzarb muammo ekanligini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2018 yil 2 fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mamlakatimizda oila masalalariga ixtisoslashgan va shu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning imkoniyatlarini yana bir karra oshirdi. Shuningdek shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning barkamol avlodni tarbiyalash - bu nafaqat oilaning, balki jamiyat va davlatning muhim vazifasi ekanligi to'g'risidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi"[2.10].

Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoiqlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda berilayotgan ta'lim-tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya – Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o'zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning 70% ona tarbiyasi orqali singdirilishi esa, allaqachon isbotlangan.

Ona – dunyoda eng aziz inson. Barcha yaxshi fazilatlarimiz bizga eng qimmatli hayotni baxsh etgan onadandir. Onalik mehri, tinimsiz mehnati, sabr-toqat, tashvishlari hayotimizning birinchi kundan boshlab bizni qamrab oladi. Shunday ekan, ayol - hayot boshi, farzand ijodkori. Ona – inson tafakkurining gullashi, fazlu kamolining mehriboni.

Kishilik tarixini yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlar pand-nasixati va o'giti faxrli o'rin egallaydi. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy: "Farzandlarni diqqat-e'tibor bilan tarbiya qiling. Fazilat, odob va axloq o'rgatish, xulqlarini go'zallashtirib, ust-boshlaridan ziyoda aql-idroklarini tarbiya qiling" deydi. Demak, avvalo oilada ayol farzandiga anashu go'zal xulqni o'rgatadi. Bu yerda onalarning pedagogik donishmandligi, ularning boy madaniyati yuzaga chiqishi kerak. Shu o'rinda misol sifatida "Ijtimoiy fikr"

jamoatchilik markazining [1.101]“O‘zbekiston yoshlarining ma’naviyati va hayotiy e’tiqodi” mavzusida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqoti natijalarini keltirish mumkin. Masalan, “Yoshlarning ma’naviyatini rivojlantirishda nima eng katta rol o‘ynaydi?” degan anketa savoliga oila – 90,4%, mahalla – 53,2%, o‘quv muassasalari – 47,8%, televideniye – 28,2%, jamoatchilik – 22,5%, adabiyotlar -5,5%,internet – 2,5%, radio – 1,6%, kino – 1,4%, teatr – 1,3% va boshqalar – 0,1% deb tadqiqotda qatnashgan yoshlar javob berishgan. Yuqoridagi ko‘rsatilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik yoshlarimiz barkamol avlodni tarbiyalashda oilaga yetakchi o‘rinni bergan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yoshlarni “Milliy g‘oya” asosida komil inson qilib tarbiyalashda - buyuk ajdodlarimizning asarlarini chuqur o‘rganish zarur deb - 49,2 %, oila va tarbiyaviy ishlar sifatiga e’tibor berish kerak deb - 45,1 % respondentlar qayd etishgan [3.29]. Shundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda Vatanimizga sodiq va davlatimiz rivojida o‘z hissasini qo‘shadigan barkamol avlodni shakllantirishda ajdodlarimiz o‘g‘itlari va oiladagi tarbiyaviy ishlarning qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Har qaysi millatning, har bir insonning ma’naviyatini shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyos. Insonga xos bo‘lgan eng samimiy va beg‘ubor tuyg‘ular, hayot to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar, atrof-muhitga munosabat, eng avvalo, oilada shakllanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajakda komil inson sifatida shakllanishi uchun muhim bo‘lgan dunyoqarashini, harakterini belgilab beradigan ma’naviy mezonlar – oliyjanoblik, insonparvarlik, mehr-oqibat, ezgulik, or-nomus, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi yuksak tushunchalarning barchasi oilada tug‘iladi.

Odam bolasi pok, aqlan barkamol bo‘lish uchun teng imkoniyat bilan tug‘iladi. Biroq ota-onalarning farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi bilim, hafsala va mas’uliyatlari turlicha. Shu sababli ayrim ota-onalar farzandlarini o‘zlari, el-yurtimiz, davlatimiz kutayotganidek tarbiyalab, voyaga yetkaza olmaganlaridan achchiq pushaymon bo‘lish o‘rniga turli bahonalar bilan boshqa

aybdorlarni qidirishga harakat qiladilar.[1.98] Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta bo'lishi bilan bir qatorda, asosiy o'rinda oila va ta'lim muassasalarining sharoiti g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiyani o'rgatishdan maqsad ham, natija ham aniq bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya sohasida insoniyat, shu jumladan, ulug' ajdodlarimiz yaratgan bilimlar majassamlashtirilsa, komil inson sifatleri, asosan, ezgu niyat, hur fikrlilik, ezgu so'z, xushmuomalalik, ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratligini ko'ramiz.

Tarbiya masalasida oilaning muhim ma'naviy, madaniy xususiyatlaridan biri - uning milliyligidir. Shu tufayli u o'zida muayyan milliy ma'naviyat, milliy tarbiya madaniyatini u yoki bu darajada aks ettiradi. Ota-onaning oilada farzandlar tarbiyasi bilan maqsadli, tizimli shug'ullanmasdan, e'tiborsizlik bilan qarashi ayrim salbiy holatlarga olib kelishini hayotiy misollarda ko'rish mumkin. Ota-ona obro'sini, aslida ularning farzandi shaxsi bilan qiziqishi, o'sib borayotgan ehtiyojlarini o'rganib, boshqarib, qondirib borishi va shu tarzda uning tarbiyasini to'g'ri yo'naltira olishi oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimiz tarbiyasini turli niqobdagi mafkuraviy tahdidlardan asrash uchun oila va ta'lim muassasalarida milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik xususiyatlarini va uni faol ma'naviy himoya omiliga aylanishida ota-onalar, pedagoglarning bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz takomillashtirish davr talabidir. Shuningdek mamlakatimizda oila masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini yanada faollashtirish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Холматова М.Х. *Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси*. -Т.: «Ўзбекистон». 2000. 217-бет.
2. Тиллаева Г *Оила муҳитини соғломлаштириш - давр талаби*. -Т: *Фалсафа ва ҳуқуқ*, 2006. 10-11-бетлар.
3. Ubaydullayeva R.A. «*Sotsiologiya obshestvennogo mneniya*» -Т.: *Ijtimoiy fikr*, 2010, 130 s.

MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARINING TAVSIFLARI

Bekzod Umarov Baxtiyorjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyaar instituti assistenti

Begijonova Mahmuda Ma‘rufjon qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlatimiz rahbarining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha oliy majlisga murojaatnomasi, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida yillar kesimida maydonlar va olinayotgan mahsulotlar hajmining o‘zgarish ko‘rsatkichlari hamda agrar sohaning rivojlantirish yo‘llari haqida ilmiy ma‘lumotlar berilgan.

***Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, mehnat unumdorligi, dehqonchilik va chorvachilik, paxta maydonlari, eksport-import aylanmasi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье обращение главы нашего государства к Верховному Собранию по вопросам сельского хозяйства, показатели изменения площадей и объемов продукции, полученной в областях земледелия и животноводства по годам, а также научная информация о путях развития аграрного сектора.

***Ключевые слова:** Сельское хозяйство, производительность труда, земледелие и животноводство, хлопковые поля, экспортно-импортный оборот.*

ANNOTATION

In this article, the address of the head of our state to the Supreme Assembly on agricultural issues, the indicators of changes in the area and the volume of products received in the fields of agriculture and animal husbandry over the years, and scientific information about the ways of development of the agrarian sector are given.

***Key words:** Agriculture, labor productivity, agriculture and animal husbandry, cotton fields, export-import turnover.*

KIRISH

Joriy yilning 6-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini islox qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko‘paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi. Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Joriy yilning o‘zida 25 ming gektar paxta maydonlarida suv tejoychi yangi sug‘orish tizimi joriy qilindi. Foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yerni qayta ishga kiritish bo‘yicha sa’y-harakatlar boshlandi.

Bular, albatta, yaxshi natijalar, lekin mazkur ishlar – islohotlarning birinchi bosqichi. Prezident faqat bugunni emas, balki ertangi kunni ham o‘ylab, uzoqni ko‘zlab islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish vazifasini qo‘ymoqda. Shu maqsadda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu iqtisodiyotning asosiy o‘sish nuqtasi, “drayveri” bo‘ladi. Ming-minglab ish joylari yaratiladi, odamlarning daromadi oshadi deb aytdi mamlakatimiz rahbari. Yaqin yillar ichida yerlar maydonini o‘zgarish tendensiyasini kuzatadigan bo‘lsak quyidagi xulosaga kelamiz.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydoni (ming gektar hisobida)

2017-yil 3474,5

2018-yil 3396,0

2019-yil 3309,4

2020-yil 3396,1

Yuqorida ko‘rib turganimizdek yurtimizda qishloq xo‘jalik yerlari ko‘payish emas balki kamayish holatida bormoqda. Chunki yildan-yilga ekin maydonlari o‘nida aholi yashash manzilgohlari, avtomobil yo‘llari, korxonalar va muhofazaga olingan

hududlar tashkil qilinmoqda. Buning evaziga unumdorligi yuqori bo'lgan ekin maydonlari qisqarib bormoqda. Quyida beriladigan ma'lumotlarda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida yillar negizida olinayotgan daromadni ko'rishingiz mumkin.

Dehqonchilik hajmi (mlrd so'm) hisobida

2017-yil 83303,4

2018-yil 98406,4

2019-yil 111904,8

2020-yil 123556,0

Chorvachilik hajmi (mlrd so'm) hisobida

2017-yil 64895,9

2018-yil 89019,2

2019-yil 104378,3

2020-yil 126198,5

Berilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytsak, O'zbekistonda qishloq xo'jalik sohasi bo'yicha tubdan o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ekin navlari yangilanmoqda, chorvachilik yo'nalishida chetdan zotdor, mahsuldorligi yuqori bo'lgan qoramollar, echki, baliqlar, tuyaqush, parrandalar va boshqa turdagi hayvonlar olib kelib O'zbekiston sharoitiga moslashtirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulot unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari importiga barham beriladi. Ehtiyojdan ortgan mahsulotlarni chetga eksport qilinsa, yurtimizda hosil bo'layotgan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada ko'payishiga olib keladi va O'zbekiston taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. *Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-sentyabrdagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.*

2. *O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2021-yildagi statistik to'plami.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Bekzod Umarov Baxtiyorjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyaar instituti assistenti-

Begijonova Mahmuda Ma‘rufjon qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirivchi tarmoqlar va ularning yillik o‘shish tendensiyasi, iqtisodiyot tarmoqlarida aholining bandlik ko‘rsatkichlari hamda iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari haqida ilmiy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiyot tarmoqlari, meva-sabzavot, fan-texnika taraqqiyoti, qishloq xo‘jaligi, yalpi ichki mahsulot*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена научная информация об отраслях, развивающих экономику нашей республики и их годовой динамике роста, показателях занятости населения в отраслях экономики, приоритетных направлениях развития экономики.

Ключевые слова: *Отрасли экономики, плодоовощная продукция, развитие науки и техники, сельское хозяйство, валовой внутренний продукт.*

ANNOTATION

This article provides scientific information about the sectors that develop the economy of our republic and their annual growth trend, employment indicators of the population in economic sectors, and the priority directions of economic development.

Key words: *Economic sectors, fruits and vegetables, science and technology development, agriculture, gross domestic product*

KIRISH

O‘zbekiston suverenitetini jahon hamjamiyati e’tirof etib, u bilan 130 dan ortiq davlat diplomatik aloqalar o‘rnatgan. O‘zbekiston Respublikasi ulkan mehnat resursi va tabiiy boyliklarga ega davlatdir. Kishilarning mehnat faoliyati ikki sohaga–moddiy ne‘mat ishlab chiqaruvchi va moddiy ne‘mat ishlab chiqarmaydigan sohalarga bo‘linadi. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan moddiy ne‘mat ishlab chiqarmaydigan sohaning roli va bu sohada ishlovchilar soni ortib boradi. Buning uchun, avvalo, ishlab chiqaruvchi sohada mehnat unumdorligi o‘shishi zarur. Faqat shundagina ishlab chiqaruvchi sohadagi mehnatga yaroqli aholining bir qismi ishlab chiqarmaydigan sohalarga o‘tishi mumkin. Mehnatga yaroqlilarning soni va malakasi qatori ma’naviy yetukligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda:



O‘zbekiston iqtisodiyoti hozirgi kunda avvalgi holatdan tuzilishi butkul o‘zgarmoqda. Yaqin o‘tmishdagi qishloq xo‘jaligi yetakchi bo‘lgan mamlakatimizda sanoatning, xususan, og‘ir sanoatning salmog‘i oshmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligini bartaraf etishga kirishildi. Sanoat esa avtomobilsozlik, kompyuter texnikasi, mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi tarmoqlar hisobiga ko‘p tarmoqli bo‘la boshladi. Mamlakatimizda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasi qabul qilingach, milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Jumladan, Harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish» deb nomlangan uchinchi ustuvor yo‘nalishida milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta‘minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish vazifasi qo‘yilgan. Shu sababli mamlakatimizda sanoatning, birinchi navbatda og‘ir sanoatning ulushi jadal o‘tib bormoqda. Ana shunday o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 30,6 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi. Endilikda mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘zaro bog‘langan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish, aloqa, savdo, fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi tarmoqlarni o‘zida birlashtiradi. O‘zbekistonda yillar kesimida iqtisodiyotning rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rsatkichlarni keltirib chiqaradi.

1. Yalpi ichki mahsulot hajmi yillar kesimida (mlrd so‘m hisobida)

2017-yil 317476,4 mlrd so‘m

2018-yil 424728,7 mlrd so‘m

2019-yil 529391,4 mlrd so‘m

2020-yil 602551,4 mlrd so‘m

2. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

2017-yil 72155,2 mlrd so‘m

2018-yil 124231,3 mlrd so‘m

2019-yil 195927,3 mlrd so‘m

2020-yil 210195,1 mlrd so‘m

3. Qishloq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligining ulushi

2017-yil 6110,6 mlrd so‘m

2018-yil 7991,9 mlrd so‘m

2019-yil 12199,1 mlrd so‘m

2020-yil 14776,8 mlrd so‘m

4.Qishloq,o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi yalpi qo‘shilgan qiymati

2017-yil 90983,9 mlrd so‘m

2018-yil 113660,7 mlrd so‘m

2019-yil 130306,9 mlrd so‘m

2020-yil 151250,9 mlrd so‘m

5.Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti,jami eksportga nisbatan foizda

2017-yil 5,1 %

2018-yil 6,3 %

2019-yil 6,9 %

2020-yil 6,7%

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,O‘zbekiston Respublikasida istiqlool yillaridan buyon yildan-yilga har bir sanoat tarmoqlarida ijobiy o‘shish sur‘atlari kuzatilmoqda.Bunga albatta fan-texnikaning rivojlanib borishi,aholi sonining har yili yarim milliondan ortiqqa ko‘payishi va har bir iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabning ortib borishi asosiy sabab bo‘lmoqda.Yurtimizda iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning tadrijiy olib borilishi,tadbirkorlarga va fermer-klasster xo‘jaliklariga beriladigan yengillik,imtiyozlar yildan-yilga mamlakat yalpi ichki mahsulotlar tarkibiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.Mamlakatda import hajmi kamayib,eksport miqdori tendensiyasi oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1.Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.

2.O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2021-yildagi statistik to‘plami.

УДК 611.019

**NAMANGAN VILOYATIDA YASHOVCHI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI
(7-12 YOSH) BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI**

Xaydarov R.R. Sattiboev I.I. Qodirova.M.N.

Andijon davlat tibbiyot instituti

REZUME

Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini o'rganish. Shaxar va tuman sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi yutuqlarni va kamchiliklarni o'rganish. Namangan shaxri va Chust tumanida kelajakda kuzatilishi mumkin bo'lgan jismoniy rivojlanishdagi salbiy oqibatlarni oldini olishga tafsiyalar berish.

***Kalit so'zlar.** Antropometriya, analitik, kraniometrik, ko'krak aylanasi, tana uzunligi.*

**ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО
ВОЗРАСТА (7-12) ЛЕТ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ГОРОДЕ НАМАНГАНЕ, И
НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ С ЦЕЛЬЮ ОБСЛЕДОВАНИЕ
ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВЫТИЯ**

Хайдаров Р.Р. Саттибоев И.И. Qodirova.M.N.

Андижанский государственный медицинский институт

РЕЗЮМЕ

Были обследованы дети, проживающие в городе Намангане, и Чустском районе Наманганской области, возрасте от 7 до 12 лет, с целью выявления недостатков и достижений, а также обследования их в будущем, профилактики задержки роста и физического развития эт детей.

***Ключевые слова.** Антропометрия, анализ, краниометрия, объём грудной клетки, рост.*

PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE (7-12 YEARS) LIVING IN NAMANGAN REGION

Khaydarov R.R. Sattiboev I.I. Qodirova.M.N.

Andijan State Medical Institute

RESUME

To determine the physical development of children aged 7-12 years living in Namangan and Chust district. Identify achievements and shortcomings in the physical development of small school-age children living in urban and district settings. To make recommendations on how to prevent the negative consequences of physical development that may be observed in the future in the city of Namangan and Chust district.

Key words. *Anthropometry, analytical, craniometric, chest circumference, body length.*

Mavzuning dolzarbligi

Bizga malumki har bir davlatning kelajagi istiqboli o'sib kelayotgan yoshlarga bog'liq. Inson salomatligining eng odil, obyektiv ko'rsatkichlari uning jismoniy rivojlanish darajasidir. Namangan viloyati Namangan shahar va Chust tumani sharoitida yashovchi maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi hozirgi kungacha antropometrik tekshirish usullarida o'rganilmagan.

Ilmiy tahlil maqsadi. Namangan shahrida va Chust tumanida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarda antropometrik o'lchovlarni olib bo'rish. Shahar va tuman sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi yutuqlarni va kamchiliklarni aniqlash. Bu izlanishimiz Namangan viloyatining turli aholi punktlarida (Namangan shahar va Chust tumani) istiqomat qiluvchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini yagona mintaqaviy standartlar

bo'yicha baholashga va noqulay sharoit omillarining bolalar jismoniy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

Material va usullar

Ushbu izlanishda material sifatida Namangan viloyati Namangan shaxri va Chust tumanidan 7-12 yosh oralig'ida bo'lgan 300 nafar o'g'il va 300 nafar qiz bolalarning jismoniy rivojlanishini 9 ta antropometrik ko'rsatkichlar (tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak va bosh aylanasi, o'tirgandagi bo'yning uzunligi, teri osti yog' qatlami, bel aylanasi, erkin harakatchan qo'l uzunligi, erkin harakatchan oyoq uzunligi) orqali o'rganish. antropometrik ko'rsatkichlar o'rganiladi. Farg'ona vodiysida 2010-2021 yillar davomida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va jisniy rivojlanishi hamda antropometrik ko'rsatkichlari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganamiz.

Tumani	Yoshi	Jinsi		Umumiy
		O'g'il	Qiz	
Namangan shaxri	7-12	150	150	300
Chust tumani	7-12	150	150	300
Jami		300	300	600

Kutilayotgan natija

Ilk bor Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini retrospektiv tahlil yordamida olinadi. Tekshirilgan bolalarlarining antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha yangilangan ma'lumotlar yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda olinadi. Ilk bor Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishining asosiy antropometrik ko'rsatkichlari (tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak va bosh aylanasi o'tirgan holatdagi bo'yi, tana massa indeksi, bel aylanasi, erkin xarakatchan qo'l uzunligi, erkin xarakatchan oyoq uzunligi)

o'rganilganligi va olingan natijalar tuman va shahar (Namangan shaxri va Chust tuman) misolida solishtirib taqqoslanadi.

Xulosalar;

1. Namangan shaxri va Chust tumanida kelajakda kuzatilishi mumkin bo'lgan jismoniy rivojlanishdagi salbiy oqibatlarni oldini olishga tafsiyalar berish mumkin

2. Namangan viloyatida qiladigan ilmiy tadqiqotimiz natijasi orqali kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishidagi akselleratsiya jarayonlarini aniqlaymiz va ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishda foydalanishimiz mumkin.

3. Yengil sanoatda bolalar bolalar kiyim boshlari o'lchovlarini aniqlashda foydalanish.

4. Olingan ko'rsatkichlar asosida bolalarni sportga yo'naltirishda tafsiya sifatida foydalanish mumkin.

5. Sud tibbiyoti fanida foydalanish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. *Abramovich M. A. Shahar maktab o'quvchilarining morfologik va funksional ko'rsatkichlari / M. A. Abramovich, V. N. Jdanovich, D. Yu. Andreichikov // Probl. sog'liq va ekologiya. - 2015. - №1 (43). - S. 96-100.*

2. *Averyanov A. P. Bolalikda semirib ketish / A. P. Averyanov, N. V. Bolotova, S. A. Zotova // Ishtirok etuvchi shifokor. - 2010. - № 2. - S. 52-63.*

3. *Aleshina E.I. Sankt-Peterburg bolalaridagi antropometrik ko'rsatkichlarning mintaqaviy xususiyatlari / E.I. Aleshina, L.V. Vorontsova, K.A. Klikunova [va boshq.] // Bolalar kasalxonasi. - 2014. - № 2. - S. 17-21.*

4. *Anisimova N.V. Maktabgacha ta'lim muassasalari bitiruvchilarining jismoniy rivojlanishi / N.V. Anisimova, O. N. Oparina, V. O. Peshkova // XIX Xalqaro ilmiy-uslubiy konferentsiya "Universitet ta'limi (MKUO-2015)". Penza, 09-10 aprel 2015 yil - Penza, 2015 yil. -- S. 174-175.*

5. Antonova A.A. *Bolalarning jismoniy rivojlanishining qiyosiy xususiyatlari* / A.A. Antonova, S.N. Chentsova, V.G. Serdyukov // *Astraxan.med. jurnal.* - 2012. - № 4. - S. 26 - 29.
6. Axtimankina A.V. *Irkutsk shahrining sanoat korxonalarini tomonidan havoning ifloslanishi* / A.V. Axtimankina, A.V. Arguchintseva // *ISU yangiliklari.* - 2013. - №1 (6). - S. 3 - 19.
7. Bakiyev N. Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning antropologik va fiziologik xususiyatlari* / N. Z. Bakiyev, N. N. Grebneva // *Vestn. Tyumen. davlat un-emasi.* - 2011. - № 6. - S. 116-122.
8. Bakiyev N. Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning morfologik va funksional xususiyatlari* / N. Z. Bakiyev // *XXI asrda sog'liq va ta'lim.* - 2011. - № 2. - P. 201.
9. Baranov A.A. *Zamonaviy sharoitda bolalar va o'spirinlarning morfologik va funksional rivojlanishining asosiy qonunlari* / A.A. Baranov, V.R. Kuchma, N.A. Skoblin [va boshq.] // *Vestnik Ross.akad. asal fanlar.* - 2012. - № 12. - S. 35-40.
10. Bashkirov P. N. *Insonning jismoniy rivojlanishi haqidagi ta'limot* / P. N. Bashkirov. - M.: Moskva davlat universiteti, 1962.- 340 p. Bezatyayn M. A. *XX va XXI asr boshlarida o'smir bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish* / M. A. Bezatyayn, A. A. Vinogradov // *Ilmiy. bayonotlar Belgorod.gos. un-emasi. Ser. Tibbiyot. Dorixona* - 2013. - № 25, yo'q. 24/1. - S. 154-157.

**ЎЗБЕКИСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ САЛЫҚ КОДЕКСИНИҢ 381
СТАТЬЯСЫ БОЙЫНША ФИЗИКАЛЫҚ ШАХСЛАР
ДӘРАМАТЛАРЫНА 12 ПАЙЫЗЛЫҚ САЛЫҚ СТАВКАСЫНЫҢ
ҚОЛЛАНЫЛЫҰЫНЫҢ АЗ АЙЛЫҚ АЛЫҰШЫЛАР УШЫН ҲӘМ КӨП
АЙЛЫҚ АЛЫҰШЫЛАР УШЫН ТӘСИРИ.**

Жаримбетов Ажинияз Курбанбаевич

Қарақалпақстан Республикасы тарыйхы ҳәм мәденияты

мәмлекетлик музейи бас есапшысы

Ajiniyaz.jarimbetov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Бул мақалада 2019-жыл январ айындагы физикалық шахслар ушын енгизилген жаңа өзгерислердиң хызметкерлер ис хақысына тәсирин анализлеу ҳәм бул өзгеристиң ҳәмме хызметкерлер ис хақысына теңдей тәсир етиуи ушын усыныслар келтирилген.

Таяныш сөзлер: *Орташа арифметикалық есабы, салық ставкалары, дәрәмат салығы, физикалық шахслар, дөңгелеклеу. өсиу пәт пенен есаплаушы, бюджеттен тысқары пенсия фонды*

ABSTRACT

This paper provides about analysis of the impacts the employees' salaries when approved new changes in tax for an individual in January, 2019 year and some offers in order to same impact the employees' salaries after the new changing tax for an individual.

Ҳәммемизге белгили, 2019-жылдан бәслап хәзирги күнге шекем
Өзбекистан Республикасы Салық кодексине өзгерислер киргизилиуи

нәтижесінде бұрынғы өсіу пәт пенен есаплайшы 0-7,5-16,5-22,5% салық ставкалары бийкар етилип қатты белгиленген 12% салық ставкасы енгизилди. Бул дәрәмат салығы ставкаларының өзгериуіне итибар берип қарасақ 12% бул бұрынғы 0-7,5-16,5-22,5% салық ставкаларының орташа есабы болып есапланады. Мысалы, 0-7,5-16,5-22,5% салық ставкаларының математикалық орташа арифметикалық есабы 11,625 яғный дөнгелеклеу нәтижесінде 12 ге туура келеди.

$$(0+7,5+16,5+22,5)/4=11,625$$

Демек, 0-7,5-16,5-22,5% салық ставкалар орнына орташа муғдары қолланылыуы, бул орташа айлық алыушылар ушын өзгериссиз, аз айлық алыушылар ушын көбейгенлиги, ал көп айлық алыушылар ушын азайғанлығынан дерек береді. Буны анализлеуимиз ушын төмендеги кестеге итибар берейик.

Бир айлық муғдары сум	2018-жыл январ айы ушын есапланған дәрәмат салығы	2019-жыл январ айы ушын есапланған дәрәмат салығы	2019-жылдағы дәрәмат салығын 2018-жылдағы дәрәмат салығына салыстыруу
700000	39582	84000	44 418 сумға көбейген
800000	47082	96000	48 918 сумға көбейген
900000	58074	108000	49 926 сумға көбейген
1000000	74574	120000	45 426 сумға көбейген
1200000	107574	144000	36 426 сумға көбейген
1400000	140574	168000	27 426 сумға көбейген
1600000	173574	192000	18 426 сумға көбейген
1800000	211230	216000	4 770 сумға көбейген
1900000	233730	228000	5 730 сумға кемейген
2000000	256230	240000	16 230 сумға кемейген
2200000	301230	264000	37 230 сумға кемейген
2 400 000	346230	288000	58 230 сумға кемейген

Жоқарыдағы кесте арқалы биз дерлик 1 900 000 сумға шекем айлық алыушылар ушын дарамат салығының көбейгенлигин, ал 1 900 000 сумнан көп

айлық алыұшылар үшін дарамат салығы азайғанлығын көриұимиз мүмкин. Усыларды есапқа алған халда, аз айлық алыұшылар үшін қайтадан 0% ли ямаса 7,5% ставкаларды қайта енгизиұди мақул көремиз, көпшилик қәнийгелер хәр қыйлы дәрәмат салығының ставкаларының қолланылыұы кәрхана есапшылары үшін қолайсызлықлар туұдырады деп есаплайды, бирақ негизинде қатты белгиленген салық ставка болсын, ямаса өсиұ пәт пенен есаплаұшы хәр түрли салық ставкалардың болыұы кәрхана есапшыларына хеш қандай қыйыншылықлар ямаса жеңилликлер келтирип шығармайды. Себеби, хәзирги турмыста барлық кәрхана есапшылары, бухгалтериялық есапты жүритиұде бухгалтериялық программалардан пайдаланғанлығы себебинен барлық салық түрлерин программалар арқалы автомат формада есаплайды. 2019-жыл январь айынан баслап аз айлық алыұшылар үшін дәрәмат салығының көбейгенлиги хеш бир хызметкер ис хәқысының азайыұына тәсир етпеди, себеби 2019-жыл январь айынан баслап бюджеттен тысқары пенсия фонды үшін мәжбурий 8% төлем бийкар етилди. Бирақ бул бийкар етилген 8% төлем аз айлық алыұшылар үшін ис хәқысының 8% көбейиұин тәмийинлемеди.

Мысал етип, төмендеги кестеге және итибар берейик.

Бир айлық мұғдары сум	2018 жыл бир айы үшін бюджеттен тысқары пенсия фондына төлем 8%	2018ж бир айы үшін берилиұ керек ис хәқы дәрәмат салығы хәм 8% пенсия фондын шегирген халда	2019ж январь айы үшін берилиұ керек ис хәқы дәрәмат салығын шегирген халда	2018-жыл менен 2019ж январь айына салыстырғанда %те көбейгенлиги
700000	56000	604418	616000	1,916%
800000	64000	688918	704000	2,189%
900000	72000	769926	792000	2,867%
1000000	80000	845426	880000	4,090%
1200000	96000	996426	1056000	5,979%
1400000	112000	1147426	1232000	7,371%
1600000	128000	1298426	1408000	8,439%
1800000	144000	1444770	1584000	9,637%
1900000	152000	1514270	1672000	10,416%
2000000	160000	1583770	1760000	11,127%
2200000	176000	1722770	1936000	12,377%
2400000	192000	1861770	2112000	13,440%

Бул кесте арқалы биз 1 600 000 сумға шекемги айлық алыўшылар ушын 2018-жыл ҳәм 2019-жыл арасында айлық көбейиўи 8% лы бюджеттен тысқары пенсия фондына төлем бийкар болыўына қарамастан айлықлар 8% көбеймегенлигин көремиз, ҳәм усыларды есапқа алған халда бюджеттен тысқары пенсия фондына 8% төлем бийкар болыўына қарамастан айлықлары 8%ға көбеймеген ис хақылар ушын 12% дан төменирек салық ставкаларын қоллаў мақсетке муўапық деп есаплаймыз.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР

1. *Өзбекистан Республикасы Салық кодекси.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 29.12.2017 йилдаги ПҚ-3454-сон*

AFFIXOIDATION AS A PRODUCTIVE WAY OF WORD FORMATION IN MODERN ENGLISH AND UZBEK.

Abdurashidova Sayyora Sirojiddin qizi

The teacher of Karshi institute of irrigation and agrotechnologies

ANNOTATION

The article is about affixoids, which are word-building elements that have some of the features of both affixes and word stems. One of the main features that usually belongs to affixes is their ability to produce new semantic and grammar categories. This is what affixoids do by helping to develop new words. Language users' actions, not automated, predictable processes, are what cause morphological change. They have an open structure. Successive successful reinterpretations may serve as the foundation for new derivations. When a process like that for forming derivative words starts. Additionally, this article demonstrates how language changes of the distinction between morphological categories and distinct morphological processes like compounding and derivation. Most of the examples are from English and Uzbek, but there are also a few words from other languages that are discussed.

Keywords: *language change, reinterpretation, bidirectionality, affixoid, prefiksoid, suffiksoid, derivation, word formation.*

Word formation is the main topic of this article. The topic of reinterpretation is covered morphological change could result from the use of opaque data. It also has that in addition demonstrates how language change erodes the distinction between distinct morphological procedures, including compounding and derivation, as well obscures the distinction between morphological categories.

There are four sections to the article, each of which is introduced in the preamble. This section will look at the differences between affix and affixoid in

English and Uzbek. The four components are as follows: introduction, affixoids in English, affixoids in Uzbek and conclusion. It may be useful to define the differences between affixes and affixoids.

Xulosa: Meva, sabzavot va boshqalar masalliqalar uzok, saqlanganda va noto'g'ri pishirilganda vitamin kamayadi. vitamin.dan eng beqarori askorbin kislota bo'lib, uni oftob, issiq va nam havo buzib qo'yadi. Ovqat pishirganda vitamin, ayniqsa askorbin kislota yaxshi saqlanishi uchun sabzavotni tez artib, yuvib to'g'rab, qaynab turgan suvga solish, qozon qopqog'ini yopib qo'yish kerak vitamin preparatlari dorixonalarda mavjud, ammo biologik ta'siri kuchli bo'lgani uchun vitamin.ni faqat vrach maslahati bilan qabul qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. *o'zme. birinchi jild. toshkent, 2000-yil*
2. *sohibov d., vitaminlar va ularning hayot uchun ahamiyati, t., 1991.*
3. *o'zuv zokirov, abdukarim zikiryoev.*
4. *o'quv davolash kompleksi tibbiyot kolleji. odk.uz*
1. *<http://revolution.allbest.ru/biology/00070029.html>*
2. *мари р., греннер д., мейес п., родуэлл в. биохимия человека. в 2-томах. м.издательство«мир»,1993*
3. *долгов в.а., морозова в.т., марциевская р.л. и др. клиникодиагностическое значение лабораторных показателей. –м. центр,1999*
4. *строев е.а биологическая химия тосква «высшая школа» 1986.*
5. *кухта в.к., морозкина т.с., таганович а.д., олецкий э.и. основы биохимии. м.,медицина,1999*

YER OSTI QATTIQ SUVLARINI YUMSHATISH USULLARINING TAHLILI

Buta Oralovich Xushvaqtoy

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti, katta o'qituvchisi

khushvaktov@samdaq.edu.uz

ANNOTASIYA

Aholi va sanoat korxonalarini uchun suvga bo'lgan talabni oshirish va ushbu muammoni hal qilish, er osti suvlaridan samarali foydalanish, ularni har qanday ifloslanishdan himoya qilish va shu paytgacha qattiq suvni yumshatish uchun qo'llanilgan usullarni taqqoslash maqsadida.

Er osti suvlarini yumshatish uchun biz nafaqat davlatimiz, balki chet ellik olimlar tomonidan yaratilgan zamonaviy qurilmalar va filtrlardan foydalangan holda qattiq suvni yumshatish usulini taklif etamiz. Bunday qurilmalar va filtrlar ixchamligi va qulayligi bilan qattiq suvni yumshatish usullarining boshqa turlaridan farq qiladi va ko'plab afzalliklarga ega.

***Kalit so'zlar:** qattiqlik, kal'tsiy va magniy karbonat, ionlar, qo'yqalar, disperslik, mikropufak, ammoniy gidroksid.*

ANNOTATION

In order to increase the demand for water for the population and industrial enterprises and to solve this problem, in order to efficiently use groundwater, protect them from any pollution and compare methods used to date to soften hard water. To soften the groundwater, we offer a method of softening hard water using modern devices and filters created not only by our state, but also by foreign scientists. Such devices and filters differ from other types of hard water softening methods in their compactness and convenience and have many advantages.

Keywords: *hardness, calcium and magnesium carbonate, ions, sheep, dispersity, micropufak, ammonium hydroxide*

Hozirgi kunda aholi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari ehtiyojini toza ichimlik suvi bilan yetarli miqdorda sifatli ta'minlashga katta ahamiyat qaratilmoqda va muhim masalalardan biri hisoblanadi. Respublikamizning bir qator viloyatlarida ichimlik suvi ta'minotida asosan yer osti suv zahiralaridan foydalaniladi.

Ushbu suvlar tabiiy hosil bo'lishi yoki har xil turdagi sanoat korxonalarining oqova suvlarini qo'shilishi natijasida ichishga yaroqsiz bo'lib qolmoqda. Ko'p hollarda suvlarning tarkibidagi erigan tuzlar miqdori talab darajasidan ortiq, asosan qattqlik beruvchi kalsiy va magniy karbonat tuzlaridan iborat. Xolbuki ushbu tuzlar suvlardagi qattqlikni hosil qilib ularni ichimlikga, bug'xonalarda, energetikada ishlatishga yaroqsiz qilib qo'yadi.

Suvning qattqligi suv ta'minoti, sanoat korxonasi va issiqlik shahobchasi tizimlari uchun umumiy muammodir. Berilgan muammo asosan sezilarli qachonki, xo'jalik – ichimlik suv ta'minoti uchun yer osti va zamin suvlari ishlatilganda. Masalan suv ta'minoti uchun asosan yer osti suvlari ishlatilganda, tarkibida 70 – 80 % gacha mineral aralashmalar gidrokarbonat kalsiy mavjudligi bilan bog'liq holda u qattqlikni tavsiflaydi. Suvlar qattqligini beradigan kalsiy va magniy ionlari issiqlik almashinish apparatlari, issiqlik elektr qurilmalari, quvurlar yuzasida kam eriydigan birikmalarni hosil qiladi, ya'ni ularning ishlash samaradorligini keskin pasayishga, yoqilg'ini ortishcha sarflashga, ularni qo'yqalardan tozalash uchun tez – tez to'xtatishga to'g'ri keladi. Ichimlik va texnik maqsadlar uchun bunday yer osti suvlarini ishlatish, albatta suvlarni yumshatish bosqichi bilan suv tayyorlashni birgalikda qo'llash kerak bo'ladi.

Suvlar qattqligi pasaytirish uchun quyidagilar, ya'ni ularning kesimi turlicha bo'lgan termik, reagentli, ion almashinish, membranali, magnitli ishlov berish va umumlashgan usullar ishlatiladi. Hattoki sanab chiqilgan usullar ham keng tarqalishiga qaramasdan, dastlabki suvlarni tayyorlashda, oqova suvlarni ishlov berishda va ularni tashlashdagi murakkabligiga, kerak bo'ladigan reagentlar sarfining

kattaligiga bog‘liq holda bir qator kamchiliklarga egadir. Mavjud sanab chiqilgan kamchilik, suvlar qattiqligining pasaytirish jarayonini jadallashtirish uchun yangi texnologiyalarni izlash masalasiga olib keladi. Hozirgi kunda suv tayyorlashning fizik bilan “mukammal” jarayonni birlashtirgan umumlashgan texnologiyasi rivojlanib bormoqda.

Ma’lumki, ya’ni texnologik jarayonlarni jadallashtirishning istiqbolli uslubiga aloqa faza tizimi va yuzasini o‘zaro ta’sirining disperslik darajasini oshirish kiradi. Shu maqsad uchun uni ishlatish mumkin, masalani hal etishga mikropufakli gaz suyuqliklarni tashkil qilish kiradi [1, 2]. Kimyo, metallurgiya, oziq – ovqat, mikrobiologiya sanoatlaridagi texnologik jarayonni jaddallashtirish uchun mikropufakli gaz suyuqlik muhiti qo‘llaniladi. Shunga qaramasdan hozirgi vaqtda mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini qo‘llashga asoslangan suvlarni yumshatish uslublari mavjud emas. Shuningdek mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini tashkil qilish holatida kalsiy karbonatni cho‘ktirish jarayonida ammoniy gidroksidning ta’sir etish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Shuning uchun mikropufakli ishlov berish va ammoniy gidroksidni qo‘llash bilan yer osti suvlaridan kalsiy gidrokarbonatni ketkazish uslubini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Mikropufakli ishlov berish generatori va ammoniy gidroksidini qo‘llashdan maqsad yer osti suvlaridan kalsiy gidrokarbonatni ketkazish jarayonlarini hamda uni amalga oshirish uchun apparat – texnologik tasvirlarini ishlab chiqishdir.

Quyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar hal etiladi va shakllantiriladi: termodinamikasi hisoblanadi va ishlov beriladigan jarayonning ko‘rsatkichlari aniqlanadi; tadqiqot qilinayotgan suvli eritmalarining fizik – kimyoviy ko‘rsatkichlarini (vodorod ko‘rsatkich, solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik, shartli tuzlar miqdori, kalsiy ionlari ulushi va umumiy qattiqlik) o‘zgarishi aniqlanadi; gidrokarbonatni ketkazish jarayonining bosqichi aniqlanadi; ammoniy gidroksidni qo‘llash bilan suvlarni ishlov berish natijasida hosil bo‘ladigan kalsiy karbonatning fazali tarkibini urganish; mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini tashkil qilish uchun

qo'llaniladigan gidrodinamik generatorni hisoblash usulini ishlab chiqish; yer osti suvlaridan kalsiy gidrokarbonatni ketkazishning apparat – texnologik tasvirini ishlab chiqish;

Mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini ilmiy yangiligi quyidagicha xulosalanadi: mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini tashkil qilishda gaz fazasiga erigan ikki oksidli uglerodni o'tish hisobiga vodorod ko'rsatkichi (pH) $8,05 \pm 0,02$ qiymatgacha ortishi aniqlangan, ya'ni gidrokarbonat ionlarini parchalanish va karbonat ionlarini hosil bo'lish tomoniga uglekislota muvazovatining siljishini osonlashtiradi; yer osti suvlarining o'rtalashtirilgan tarkibi bilan modeli eritmadagi kalsiy ionlari ulushi ammoniy gidrooksidning 0,01 % miqdorida 84,16 dan 4,68 $мг/дм^3$ gacha (92 % ga) kamaytirish aniqlangan. Kalsiy ionlarining oxirgi ulushi boshlang'ich ulushga bog'liq emas, faqat modeli eritmaning vodorod ko'rsatkichi (pH) qiymati bilan aniqlanadi; ammoniy gidrooksid bilan kalsiy gidrokarbonatning o'zaro ta'sir reaksiyasini o'tish sohasiga ($E_a = 26,4 \text{ кДж/моль}$) o'tishi aniqlangan, ya'ni berilgan reaksiyani tezlashtirish va mikropufakli gaz suyuqlik muhitlarini tashkil qilishda ammoniy gidrooksid ulushi ham bir vaqtda ta'sir etadi. 15 °C haroratda kalsiy karbonatni hosil bo'lishini reaksiya konstantasining tezligi 0,019 (c^{-1}) ni tashkil qiladi, reaksiya tartibi 0,48 ga teng.

Shunday qilib, biz yer osti qattiq suvlarini yumshatishda mikropufakli generatorlar va ammoniy gidrokarbonatni qo'llashni taklif qilamiz va bu usul orqali suvlarni yumshatish ancha samarali bo'ladi deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Николадзе Г.И. Подготовка воды для питьевого и промышленного водоснабжения. М.: Стройиздат, 1984 г.
2. Бошнятов Б.В. Гидродинамика микропузырьковых газожидкостных сред // Известия ТПУ. – 2005. – Т. 308, № 6. – С. 156 – 160.
3. Бошнятов Б.В. О перспективах применения микропузырьковых газожидкостных сред в технологических процессах // Известия вузов. Физика. Приложение. – 2005 – Т. 48, № 11. – С. 49 – 54.

MODAL SEMANTIKA TIPOLOGIYASI

Mustafayeva Maftuna Bahodirovna

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya agrotexnologiyalar institute assistent o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada modal semantika tipologiyasiga bag'ishlangan lingvistik adabiyotlarni o'rganish natijalari va modallikning ichki tuzilishini o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy elementlar tizimi sifatida taqdim etish usullarini optimallashtirish masalalari keltirilgan. Modallik mazmunida lingvistik kategoriya sifatida an'anaviy ravishda modal semantikaning ikki jihati ajralib turadi: voqelikka munosabat va bayonga munosabat. Maqolada obyektiv va subyektiv modallikni ifodalashning lingvistik vositalari tasvirlangan va modal semantikaning tuzilishini taqdim etishga qaratilgan turli tasniflarni qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** modallik turi, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modallikni ifodalash vositalari, modal semantika.*

Harakat uslubi yoki harakatga munosabatni tavsiflovchi modallik kategoriyasi dasturlash, psixologiya, falsafa, musiqa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi turli fan sohalari uchun universaldir. Modallikning uchta asosiy turi (zaruriyat, imkoniyat va voqelik) aniqlangan mantiq sohasida vujudga kelgan modallik tilshunoslik kategoriyaviy-kontseptual apparatining eng muhim elementlaridan biriga aylandi. Ushbu ko'p qatlamli toifani talqin qilish, tasniflash, tavsiflashga bag'ishlangan ko'plab ishlar ushbu sohada o'rganish obyekti va modallikning kontseptual apparatini tavsiflash uchun til yoki atamalar to'plami doimiy ravishda kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Rus tilshunosligida modallikning sintaksis darajasidagi talqini V. V. Vinogradov asarlaridan kelib chiqqan holda shuningdek, N. D. Arutyunova, O.V. Trunova, A. A. Medova kabi mualliflar tomonidan modallikni mantiqiy-semantik tushuncha doirasida o'rganib chiqilgan tadqiqotlar bilan birgalikda to'ldiriladi. 1990-yillardan boshlab ushbu bilim sohasida modallikni eng muhim matn kategoriyasi deb hisoblagan matn markazli yondashuv keng tarqaldi (I.R.Galperin, G.Y.Solganik, O.N.Solovyova). Modallik kategoriyasini o'rganishning hozirgi bosqichida eng keng tarqalgan tushuncha bu kategoriyani funksional-semantik maydonlar majmuasi sifatida ko'rib chiqishdir (A.V.Bondarko [1], N.A.Probst [2]).

Agar turli lingvistik maktablar va ilmiy sohalar vakillari o'rtasida modallikni tushunishda tub farqlar bo'lmasa, modallikning mazmun tomonini tavsiflash uchun tasniflash qo'llaniladi, bu uning tuzilishini tushunishda sezilarli farqlarni ko'rsatadi, lekin shu bilan birgalikda modal semantikaning tipologiyasi masalasi nihoyatda murakkab va munozaraliligicha qolmoqda. Kategoriyani o'rganishning bu jihati u yoki bu nutq asarini ajratib turuvchi modallik mazmuni bilan ushbu mazmuni ifodalovchi lingvistik vositalar o'rtasidagi munosabatni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada lingvistik adabiyotlarda aniqlangan modal semantika turlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish vazifasi qo'yilgan.

Avvalo shuni ta'kidlashimiz kerakki, modallik tabiati ta'riflardagi nomuvofiqliklarga qaramay voqelikka munosabat va bayon mazmuniga munosabatni farqlashi kabi ikki jihatini o'zida birlashtiradi. Ushbu farq modallikning ikkita komponentning birligi sifatida eng keng tarqalgan obyektiv va subyektive modallik talqinida o'z aksini topadi. Obyektiv modallik gapning mazmun tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib, uni predikativ birlik sifatida quradi [3]. Murojaat qiluvchining u uzatayotgan axborotga munosabatini ifodalovchi subyektiv modallik har bir gapga xos bo'lishi shart emas va ikkinchi darajali modallik sifatida belgilanadi. Subyektiv modallikning ma'nolar ko'lami obyektiv modallik ma'nolari ko'lamidan oshib ketadi va bu ma'nolar o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Subyektiv modallikni a) gap mazmuniga ko'ra so'zlovchiga nisbatan (O.S. Axmanova, G.A. Zolotova); b)

ma'ruzachiga nisbatan; d) so'zlovchining o'zi keltirgan faktlarga ishonch darajasiga ko'ra ifodalash mumkin [4]. J.Lyonsning fikricha, kundalik turmushda tildan foydalanishda subyektiv modallik obyektiv modallikka qaraganda ancha keng tarqalgan [5].

Mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi intonatsiyaning xabar va savol kabi turlari obyektiv modallikni ifodalovchi grammatik vositalar hisoblanadi. Subyektiv modallikni ifodalashda intonatsiya, maxsus sintaktik konstruksiyalar, so'z tartibi, so'zlarning takrori, bo'laklar, kirish so'zlari va so'z birikmalari (ba'zida "modal so'zlar" deb ham ataladi) kabi lingvistik vositalar mavjud. Modallik sohasiga imkoniyat, istak, majburiyat, zarurat yoki majburlash, oldindan ko'rish, tayyorlikni ifodalovchi fe'llar, qisqa sifatlar va predikativlar kabi leksik ma'nolar ham kiradi. L.Y. Zyatkova ingliz tili materiali bo'yicha dissertatsiya tadqiqotida ingliz tilida subyektiv modallikni yetkazishning kirish so'zlar, iboralar, jumlar; inversiya, savol-javob konstruksiyalari, ritorik savollar, sintaktik takrorlar singari sintaktik vositalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan [6]. Subyektiv modallikni ifodalash vositalari shu qadar har xilki, ayrim grammatikachilar ularni bir grammatik kategoriya doirasida birlashtirishni qonuniy deb hisoblamaydilar.

Ikki turdagi modallik o'rtasidagi farq, obyektiv va subyektiv modallikning talqini bir ma'noli emasligiga qaramasdan, ushbu toifadagi ko'pgina tadqiqotlarni ajratib turadi. Barcha tadqiqotchilar ham modallikni obyektiv va subyektivga bo'lish fikriga qo'shilishmaydi. Masalan, A. B. Shapiro modallikning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi real- bunda gap mazmuni voqelik bilan mos keladi deb qaraladi. Ikkinchisi, haqiqiy bo'lmagan shartlilik, undovchi, keraklilik, majburiyat, imkonlilik/imkonsizlik kabi turlaridir [7]. N.S. Valgina modallikni ma'ruzachining o'z bayonotiga xabarning voqelik munosabati nuqtai nazaridan baholashi sifatida belgilaydi. Bunday tushunish mohiyatan obyektiv va subyektiv modalliklarni bir butunga birlashtiradi [8].

Bir qator tadqiqotchilar modallikni obyektiv va subyektivga aniq ajratish mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Masalan, T.I. Desherieva modallikni voqelikka

hukm qilish munosabati va so‘zlovchi va yozuvchining xabar ma‘nosiga munosabati ifodasi sifatida ta‘riflab: “Subyektivlik elementi modallik semantikasining barcha tarkibiy qismlarida mavjud, shuning uchun uning subyektiv va obyektivga bo‘linishi juda o‘zboshimchalikdir” deb aytgan [9].

G.A. Zolotova modallikning ikki emas, uchta turini ajratib ko‘rsatadi: 1) gap mazmunining so‘zlovchi nuqtai nazaridan voqelikka munosabati; 2) so‘zlovchining gap mazmuniga munosabati; 3) harakat predmetining harakatga munosabati (modal fe‘llar) [10]. Obyektiv va subyektiv modallikni farqlash masalasi modallik kategoriyasining chegaralarini belgilash muammosi bilan bog‘liq. Masalan, predikativlik, ma‘nodorlik, emotsionallik, baholovchilik toifalarini modallikka kirgizish arziydimi yoki yo‘qmi degan nizolar haligacha mavjud. E.A. Chernyavskaya baholashning lingvistik kategoriyasi barcha turdagi obyektlarning qiymatini o‘rnatishga olib keladigan mantiqiy kategoriya, psixik jarayonlarning aksidir deb ta‘kidlaydi. Amerikalik tilshunos Kay fon Fintel modallikni o‘ziga xos obyektiv holatlar nuqtai nazaridan dinamik- yetkazuvchi imkoniyat yoki zaruratga bo‘linishni taklif qiladigan; deontik - qonun yoki axloqiy tamoyillar nuqtai nazaridan mumkin bo‘lgan, zarur yoki ruxsat etilgan narsalarni ifodalaydigan; epistemik - mavjud faktlar nuqtai nazaridan bayonotlarning imkoniyati, ehtimolligi; istalgan - muallifning xohish-istaklari nuqtai nazaridan imkoniyat yoki zaruratni ifodalaydigan; teologik - maqsadga erishish nuqtai nazaridan biror narsaning zarurati yoki imkoniyati ifodalaydigan turlarini ko‘rsatib o‘tgan.

Modallik turlarining turli tasniflarini tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, tilshunoslar odatda modallikning bir xil mazmunini turli atamalarda belgilaydilar va turdosh turlardan tashqari boshqa tasniflardan farq qiluvchi semantik turlarni ham ajratib ko‘rsatadilar. Modallikning lingvistik kategoriyasi mazmunining terminologiyasi va chegaralari nuqtai nazaridan bir xillik mavjud emas. Xulosa qilib aytganda, modallikning semantik mazmunini tavsiflovchi tasnifga modallikning ushbu turlarini kiritish o‘rinli emas, chunki u matn modalligi chegaralarini sezilarli darajada xiralashtiradi, ushbu turkumning vositalari va mazmunini aniq ajratishga imkon bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Бондарко А.В. *Модальность: вступительные замечания // Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. Л. : Наука, 1990. С. 59–67.*
2. Пробст Н.А. *Вопросительно-побудительная модальность как межполевая зона макрополя модальности в современном русском языке : автореф. ... дис. канд. филол. наук. Калининград, 2014. 214 с.*
3. *Русская грамматика / гл. ред. Н.Ю. Шведова. М. : Наука, 1980. 792 с.*
4. Ермолаева Л.С. *Понимание модальности в современной лингвистике // Лингвистика и методика в высшей школе : сборник науч. трудов МГПИИЯ им. М. Тореза. М. : МГПИИЯ им. М. Тореза, 1978. Вып. 8. С. 47–60.*
5. Lyons D. *Introduction to Theoretical Linguistics. M.: Progress, 1978. 544 p.*
6. Зятькова Л.Я. *Субъективная модальность политического дискурса (На материале российских, британских и американских печатных СМИ) : дис. ... канд. филол. наук. Тюмень, 2003. 249 с.*
7. Shapiro A.B. *Modality and predicativity as signs of a sentence in modern Russian // Philological Sciences. 1958. No. 4. 20–25 p.*
8. Валгина Н.С. *Теория текста : учебное пособие. М. : Логос, 2003. 105 с.*
9. Дешериева Т.И. *О соотношении модальности и предикативности // Вопросы языкознания. 1987. № 1. С. 34–45.*
10. Золотова Г.А. *Очерк функционального синтаксиса. М. : Наука, 1973. 352с.*

ҒОВАК МУҲИТЛАРДА ГРУНТ СУВЛАРИ ГЕОФИЛЬТРАЦИЯСИ ЖАРАЁНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛИНИ СОНЛИ ЕЧИШ

Эгамбердиев Хожиакбар Салохитдинович

Иқтисодиёт ва педагогика университети, т.ф.б.ф.д., PhD

Бекматов Акмал Курбонмахматович

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети Қарши филиали ўқитувчиси

Кутдусова Эльмира Рауфовна

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари
университети Қарши филиали ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада ер ости сувларининг геофилтрация жараёнларини ифодаловчи мувозанат тенгламаларни ечишнинг сонли усуллари ва математик моделлари келтирилган. Шунингдек, ушбу математик моделни ошкормас схемани қўллаб сонли ечиш усули баён этилган.

Калит сўз: Геофилтрация жараёнлари, гидрогеологик тизимлар, ёгин сочинларнинг инфилтрацияси, чегаравий масалалар, математик модел.

КИРИШ. Дунёда ер ости сувларининг геофилтрация жараёнларини ифодаловчи мувозанат тенгламаларни ечишнинг сонли усуллари ва математик моделларини такомиллаштириш бўйича қатор, устувор йўналишларда тадқиқотлар олиб борилмоқда: жумладан, кўп ўзгарувчили парабolik турдаги дифференциал тенгламаларни сонли ечиш асосида геофилтрация ва геомиграция жараёнларини математик моделларини такомиллаштириш;

гидрогеологик ҳудудларни математик моделлашда интеграциялаш имкониятини берувчи ягона ҳисоблаш тизимларини ривожлантириш; гидрогеологик шароити мураккаб ҳудудларни, ер ости суви ҳосил бўлиши ҳаракати ва сизилиб чиқиб сарфланиш ҳудудлари ўртасидаги ўзаро алоқа жараёнларини математик моделларини ишлаб чиқиш; ер ости суви конларнинг чегарасида геофилтрация жараёнлари бир қаватли қатламдан тузилиши бўйича кўп қаватли қатламларига ўтиши ва сув оқими тик йўналиши чизмаси бўйича ҳудудлар ўртасидаги ўзаро алоқа жараёнларини математик моделлаш, ўз навбатида режим ташкил этувчи элементларини аниқлаш муҳим масалалардандир.

I. Адабиётлар таҳлили ва методология. Ер ости грунт сувлари мувозанат тенгламаси, бирор G соҳада гидрогеологик тизимларнинг геофилтрация жараёнларини математик модели қуйидагича ифодаланади:

$$\mu \frac{\partial h}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(kh \frac{\partial h}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(kh \frac{\partial h}{\partial y} \right) + \eta (Q_b - f + J + Q_r - Q_d) \quad (1.1.)$$

$$\begin{aligned} h(x, y, t)_{t=0} &= \phi_1(x, y); & (x, y) \in \Gamma_1; & t = t_0; \\ h(x, y, t) &= \phi_2(x, y); & (x, y) \in \Gamma_2; & t > t_0; \\ -kh \frac{\partial h}{\partial n} &= \phi_3(x, y); & (x, y) \in \Gamma_3; & t > t_0; \\ -kh \frac{\partial h}{\partial n} &= \gamma(h_0 - h); & (x, y) \in \Gamma_4; & t > t_0 \end{aligned} \quad (1.2.)$$

бу ерда μ - қатламнинг сув бериш қобилияти ёки тўйинганликнинг етишмовчилиги (ўлчовсиз катталиқ); x, y - текисликдаги координаталар, м; t - вақт, сут; $h = h(x, y, t)$ - ер остидан ер юзасига қадар сувнинг сатҳи, м; $k = (x, y)$ - қатламни сув сизилиб ўтказувчанлик коэффиценти, яъни филтрация коэффиценти, м/сут; η - моделни ўлчовли кўринишга ўтказиш коэффиценти (тенгликларнинг масса алмашинуви коэффиценти); $J = J(x, y)$ - ер усти сувларининг сизилиб кириши, яъни ёғин сочинларнинг инфилтрацияси, м/сут; Q_b - сув босиши, яъни грунт сувларининг ер устига чиқиб кетиши; γ - ер ости ва ер усти сувларининг ўзаро боғлиқлигининг гидрогеологик шarti.

(1.1) тенгламани параболлик типдаги оддий дифференциал тенгламалар тизими кўринишда, математик физиканинг бошланғич ва чегаравий шартлар асосида қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\left\{ \begin{array}{l} \mu \frac{\partial h}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(kh \frac{\partial h}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(kh \frac{\partial h}{\partial y} \right) + \eta W \\ h(x, y, t)_{t=0} = \phi_1(x, y); \quad (x, y) \in \Gamma_1; \quad t = t_0; \\ h(x, y, t)_{t=0} = \phi_2(x, y); \quad (x, y) \in \Gamma_2; \quad t > t_0; \\ -kh \frac{\partial h}{\partial n} = \phi_3(x, y); \quad (x, y) \in \Gamma_3 \quad t > t_0; \\ -kh \frac{\partial h}{\partial n} = \gamma(h_0 - h); \quad (x, y) \in \Gamma_4 \quad t > t_0 \end{array} \right. \quad (1.3)$$

бу ерда η – моделни ўлчовли кўринишга ўтказиш коэффициенти (тенгликларнинг масса алмашинуви коэффициенти); $W = Q_b - f + J + Q_r - Q_d$ ва бошқа шартли белгилар юқорида келтирилган белгиларга мос равишда ифодаланади; γ -ер ости ва ер усти сувларининг ўзаро боғлиқлигининг гидрогеологик шarti.

Бу тенгламалар тизими бир қатламли, турғунмас, текисликда ихтиёрий Γ чизиғи билан чегараланган, бир жинсли бўлмаган G соҳада ер ости суви геофилтрациясини таърифлайди. Бу соҳани ер қаъридан сув ўтказмайдиган горизонталсимон ихтиёрий қатлам билан тўшалган.

Шундай қилиб, (1.13) тенглама ер ости сувлари сатҳ ўзгаришини мувозанат тенгламаси ҳисобланади, бунда (J , W , Q , f) каби факторлар аниқланиши лозим. Бунинг учун, чегаравий масалаларни ечишда сонли усуллар ва чекли айирмалар усули асосида компьютерли моделлаш билан амалга оширлади.

Ф.Б.Абуталиев, А.А.Самарский, И.Хабибуллаев, Р.Усмонов, И.Алимов, Ж.Х.Джуманов, П.П.Нагевич, И.Н.Грачева каби олимлар тадқиқотларида ушбу тенглама ва чегаравий масалаларнинг ечиш усуллари, алгоритмлари ва дастурий таъминоти келтирилган ҳамда ер ости сувлари мувозанат элементларини аниқлашни турли хил гидрогеологик мелиоратив шарт шароитларда амалга оширилган.

Геофильтрация соҳаси чегарасида ер ости сувлари мувозанати элементларида ер ости сувлари оқиб келиши ва чиқиб кетиши элементларини аниқлаш масаласи, яъни ер ости сувларининг оқиб келиши ва чиқиб кетиши қийматларининг умумлаштирилган, йиғиндидан иборат бўлган қийматлари қуйидагича аниқланади:

ер ости сувларининг оқиб келиши нуқталарида	ер ости сувларининг чиқиб кетиш нуқталарида
$q_1 = \sum_{i=1}^{n1} q_{1i}$	$q_1 = \sum_{i=1}^{n1} q_{1i}$

бу ерда, $n1$ -ер ости сувларининг оқиб келиши нуқталари сони;

$n2$ -ер ости сувларининг чиқиб кетиши нуқталари сони;

Ечиш усулларида, соҳани бир неча ҳудудларга бўлиб, фильтрация соҳаси чегарасида ва муҳим чегаравий шартлар асосида кўриб чиқамиз. Ер ости сувларининг кириши ва чиқиши қийматларини аниқлаш математик физиканинг иккинчи чегаравий масалалари ҳисобланади ва дала ишлари ҳамда лаборатория тадқиқотлари асосидаги маълумотлар бошланғич шартлар сифатида қабул қилинади.

II. Натижалар. G фильтрация соҳасида олинган чегаравий масалаларни ечимини кўриб чиқамиз. (1) тенгламада ва бошланғич ва чегаравий шартларда қуйидаги ўлчовсиз катталиқка ўтамыз:

$$h^* = \frac{h}{h_0}, \quad x^* = \frac{x}{L}, \quad y^* = \frac{y}{L}, \quad k^* = \frac{k}{k_0}, \quad \tau = \frac{k_0 h_0}{\mu L^2} t$$

$$Q_b^* = \frac{2}{k_0 h_0^2} Q_b, \quad f^* = \frac{2L^2}{k_0 h_0^2} f, \quad J^* = \frac{2L^2}{k_0 h_0^2} J, \quad Q_r^* = \frac{2L}{k_0 h_0^2} Q_r, \quad Q_d^* = \frac{2L}{k_0 h_0^2} Q_d$$

бу ерда h_0 , – характерли сатх, k_0 , -фильтрация коэффиценти, L -фильтрация соҳасининг узунлиги

Ўлчовсиз кўринишда (2.14) тенглама қуйидаги кўринишда бўлади:

$$\frac{\partial h^*}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x^*} (k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial x^*}) + \frac{\partial}{\partial y^*} (k^* h^* \frac{\partial h^*}{\partial y^*}) + \frac{L^2}{\mu k_0 h_0} \eta W^* \quad (1.4)$$

Бу ерда W^* - барча эркин ўзгарувчиларнинг йиғиндиси

Кейинчалик ўлчовсиз шаклдаги тенглама билан ишлаганимиз сабабли (1.4) тенгламани юлдузчасини тушириб қолдирамиз.

(1.4) тенглама ночизикли ва уни ечиш учун итерацион усулдан фойдаланамиз. Қўйилган масалани янада қулайроқ ечими сифатида квазичизикли усул ҳисобланади ҳамда дифференциал тенглама ночизикли ўзгарувчилари қуйидаги кўринишга олиб келамиз:

$$T(h) \approx T(\bar{h}) + (h^2 - \bar{h}^2) \frac{\partial T}{\partial h^2}(\bar{h})$$

бу ерда $H = H^{(s)}(x, y, \tau)$; s – итерациялар сони

Унда (3.1) тенгламани чизикли кўринишда қуйидагича ёзиш мумкин.

$$\frac{\partial h^2}{h \partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k \frac{\partial h^2}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(k \frac{\partial h^2}{\partial y} \right) + \xi_1 \eta W \quad (1.5)$$

бу ерда $\xi_1 = \frac{L^2}{\mu k_0 h_0}$.

(1.5) тенгламани сонли ечиш учун чекли фарқ усулидан фойдаланамиз. Бу билан бирга G фильтрация ҳудудини ω_h (h тўр қадами) бир хил тўрли соҳа билан қоплаймиз.

Худди шунингдек, фильтрация соҳаси тўр билан алмаштирилади:

$$\omega_h = \bar{\omega}_h + \omega_h^* + \omega_h^0$$

$\bar{\omega}_h$ - G ҳудуднинг ичида h қадам масофада жойлашган 4 та кесишувчи қўшни мунтазам (ички) нукталар тўплами, ω_h^* - G ҳудудга тегишли бўлмаган фиктив нукталар тўплами, ω_h^0 - чегаравий нукталар тўплами.

Унда

$$\omega_h = \{(x_i = ih, y_j = jh); \quad i = 1, l_j \quad j = 1, m_i\}, \quad (1.6)$$

Бу ерда l_j - ξ_j тўғри чизикдаги тугунлар сони, m_i - η_i тўғри чизикдаги тугунлар сони.

(1.6) дифференциал тенгламани 2 қатламли олти нуктали чекли фарқ схемасида аппроксимациялаймиз:

$$\frac{1}{\bar{h}_{i,j}} \frac{h_{i,j}^2 - \bar{h}_{i,j}^2}{\tau} = \frac{k_{i-0.5,j} h_{i-1,j}^2 - (k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j}) h_{i,j}^2 + k_{i+0.5,j} h_{i+1,j}^2}{h^2} +$$

$$+ \frac{k_{i,j-0.5} \bar{h}_{i,j-1}^2 - (k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5}) \bar{h}_{i,j}^2 + k_{i,j+0.5} \bar{h}_{i,j+0.5}^2}{h^2} + W_{i,j} \quad (1.7)$$

бу ерда

$$h_{i,j} = h(ih, jh, r\tau), \quad \bar{h}_{i,j} = h(ih, jh, (r-1)\tau),$$

$$W_{i,j} = W(il, jl, r\tau), \quad k_{i-0.5,j} = \frac{k_{i-1,j} - k_{i,j}}{2}, \quad k_{i+0.5,j} = \frac{k_{i,j} - k_{i+1,j}}{2}$$

(1.7) тенгламани ечиш учун итерация ва кўндаланг-бўйлама прогонка усули билан ечамиз. Авваломбор бўйлама прогонкани кўрамиз. (3.4) тенглама куйидаги кўринишда ёзилади.

$$a_{i,j} h_{i-1,j}^2 - b_{i,j} h_{i,j}^2 + c_{i,j} h_{i+1,j}^2 = -d_{i,j}, \quad (1.8)$$

бу ерда

$$a_{i,j} = k_{i-0.5,j}, \quad c_{i,j} = k_{i+0.5,j},$$

$$b_{i,j} = k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j} + \frac{h^2}{\tau h_{i,j}},$$

$$d_{i,j} = k_{i,j-0.5} \bar{h}_{i,j-1}^2 - \left(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j} + \frac{h^2}{\tau h_{i,j}} \right) * \\ * \bar{h}_{i,j}^2 + k_{i,j+0.5} \bar{h}_{i,j+1}^2 - W_{i,j}$$

(1.8) тенгламани ечимини куйидаги кўринишда излаймиз:

$$h_{i,j}^2 = A_{i,j} h_{i+1,j}^2 + B_{i,j} \quad (1.9)$$

бу ерда

$$A_{i,j} = \frac{a_{i,j}}{b_{i,j} - c_{i,j} A_{i-1,j}}; \quad B_{i,j} = \frac{d_{i,j} + c_{i,j} B_{i-1,j}}{b_{i,j} - c_{i,j} A_{i-1,j}}. \quad (1.10)$$

$A_{i,j}$ ва $B_{i,j}$ коэффициентлар чегаравий шартларда жойлашади.

Муаммоларнинг чекли-айирмали яқинлашишдан фойдаланиб, биз алгебраик тенгламалар тизимини ҳосил қиламиз, уни ечиш орқали объектнинг керакли параметрларини ва уларнинг вақт ва йўналишлар бўйича ўзгаришларининг мақбул қийматларини аниқлаймиз.

(1.7) ни

$$\frac{1}{h} \frac{\partial h^2}{\partial \tau} = \frac{\partial}{\partial x} \left(k \frac{\partial h^2}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(k \frac{\partial h^2}{\partial y} \right) + 2\xi_1 \eta W \quad (1.11)$$

каби ифодалаб оламиз.

Юқоридагиларга асосланиб, (1.11) масалани ечиш учун, x , y бир хил тўр киритамиз:

$$\omega_{\Delta x, \Delta y, \Delta \tau} = \left\{ \begin{array}{l} x_i = i \Delta x, \quad i = 0, 1, 2, \dots, N_x, \quad \Delta x = \frac{L}{N}; \\ y_j = j \Delta y, \quad j = 0, 1, 2, \dots, N_y, \quad \Delta y = \frac{L}{N}; \\ t_l = l \Delta \tau, \quad l = 0, 1, 2, \dots, N_t, \quad \Delta t = \frac{T}{N_t}. \end{array} \right. \quad (1.12)$$

(1.12) тенгламадаги дифференциал операторларни чекли – айирмали операторлар билан алмаштириб, бўйлама-кўндаланг йўналиш схемасидан фойдаланиб, биз Ox йўналиш бўйича қуйидагига эга бўламиз:

$$\frac{1}{\tilde{h}_{i,j}} \frac{(h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - (h^2)_{i,j}^n}{0.5\Delta\tau} = \frac{k_{i-0.5,j}(h^2)_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - (k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})(h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + k_{i+0.5,j}(h^2)_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} + \frac{k_{i,j-0.5}(h^2)_{i,j-1}^n - (k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})(h^2)_{i,j}^n + k_{i,j+0.5}(h^2)_{i,j+1}^n}{\Delta y^2} + 2\xi_1 \eta W_{i,j}^n.$$

(1.13)

(1.13) системани сатҳ функциясининг квадратига нисбатан $h^2 \approx 2\tilde{h}h - \tilde{h}^2$ каби ёзамиз. У ҳолда (1.13) қуйидагича ифодаланади:

$$\frac{1}{\tilde{h}_{i,j}} \frac{2\tilde{h}_{i,j}h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \tilde{h}_{i,j}^2 - 2\tilde{h}_{i,j}h_{i,j}^n + \tilde{h}_{i,j}^2}{0.5\Delta\tau} = \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - (k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} + \frac{(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}^2 + 2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}h_{i,j-1}^n - k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} - \frac{2(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}h_{i,j}^n + (k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} + \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}h_{i,j+1}^n - k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1 \eta W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}.$$

Ушбу ифодадаги қавсларни қуйидагича очиб чиқамиз:

$$\begin{aligned} & \frac{1}{\tilde{h}_{i,j}} \frac{2\tilde{h}_{i,j}}{0.5\Delta\tau} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{1}{\tilde{h}_{i,j}} \frac{2\tilde{h}_{i,j}}{0.5\Delta\tau} h_{i,j}^n = \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} - \\ & - \frac{2(k_{i-0.5,j+k_{i+0.5,j}})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{(k_{i-0.5,j+k_{i+0.5,j}})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \\ & - \frac{k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2} h_{i,j-1}^n - \frac{k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} - \frac{2(k_{i,j-0.5}+k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} h_{i,j}^n + \\ & + \frac{(k_{i,j-0.5}+k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} + \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2} h_{i,j+1}^n - \frac{k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1\eta W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}. \end{aligned}$$

Ўхшаш ҳадларни ихчамлаганимиздан кейин қуйидагига келамиз:

$$\begin{aligned} & \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \left(\frac{2(k_{i-0.5,j+k_{i+0.5,j}})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} - \frac{4}{\Delta\tau} \right) h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} = \\ & = - \left(\left(\frac{4}{\Delta\tau} - \frac{2(k_{i,j-0.5}+k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} \right) h_{i,j}^n + \frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2} h_{i,j-1}^n + \right. \\ & + \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2} h_{i,j+1}^n - \frac{k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{(k_{i-0.5,j+k_{i+0.5,j}})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} - \\ & \left. - \frac{k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{(k_{i,j-0.5}+k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1\eta W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} \right). \end{aligned} \quad (1.14)$$

бу ерда $\tilde{h}_{i-1,j}$, $\tilde{h}_{i,j}$, $\tilde{h}_{i+1,j}$ – бошланғич итерация қийматлари.

(1.14) чекли-айирмани (1.15) алгебраик тенгламалар системаси

кўринишида ифодалаймиз:

$$a_{i,j} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - b_{i,j} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + c_{i,j} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} = -d_{i,j}, \quad (1.15)$$

бу ерда

$$a_{i,j} = \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2}, \quad b_{i,j} = \frac{2(k_{i-0.5,j+k_{i+0.5,j}})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} - \frac{4}{\Delta\tau}, \quad c_{i,j} = \frac{2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2},$$

$$d_{i,j} = \left(\frac{4}{\Delta\tau} - \frac{2(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} \right) h_{i,j}^n + \frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2} h_{i,j-1}^n +$$

$$+ \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2} h_{i,j+1}^n - \frac{k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} -$$

$$- \frac{k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1 \eta W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}.$$

Оу йўналишида (1.12) системани $\omega_{\Delta x, \Delta y, \Delta \tau}$ тўрда ошкормас схемани қўллаб аппроксимация қиламиз.

$$\frac{1}{\tilde{h}} \frac{(h^2)_{i,j}^{n+1} - (h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}}{0.5\tau} = \frac{k_{i-0.5,j}(h^2)_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} - (k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})(h^2)_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} + \frac{k_{i+0.5,j}(h^2)_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}}}{\Delta x^2} \quad (1.16)$$

$$+ \frac{k_{i,j-0.5}(h^2)_{i,j-1}^{n+1} - (k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})(h^2)_{i,j}^{n+1}}{\Delta y^2} + \frac{k_{i,j+0.5}(h^2)_{i,j+1}^{n+1}}{\Delta y^2} + 2\xi_1 \eta W_{i,j}^{n+\frac{1}{2}}$$

Юқорида келтирилган сатҳ функциясининг квадратига нисбатан ифодадан фойдаланиб (1.16) ни қуйидагича ёзамиз:

$$\frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2} h_{i,j-1}^{n+1} - \left(\frac{2(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} - \frac{4}{\Delta\tau} \right) h_{i,j}^{n+1} + \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2} h_{i,j+1}^{n+1} =$$

$$- \left(\left(\frac{4}{\Delta\tau} - \frac{2(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} \right) h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \right. \quad (1.17)$$

$$+ \frac{2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} -$$

$$\left. - \frac{k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1 \eta W_{i,j}^{n+1} \right).$$

(1.17) ни уч диагоналли алгебраик тенгламалар системаси кўринишида қуйидагича ифодалаймиз:

$$\bar{a}_{i,j} h_{i,j-1}^{n+1} - \bar{b}_{i,j} h_{i,j}^{n+1} + \bar{c}_{i,j} h_{i,j+1}^{n+1} = -\bar{d}_{i,j}, \quad (1.18)$$

бу ерда

$$\bar{a}_{i,j} = \frac{2k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}}{\Delta y^2}, \quad \bar{b}_{i,j} = \frac{2(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta y^2} - \frac{4}{\Delta\tau}, \quad \bar{c}_{i,j} = \frac{2k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}}{\Delta y^2},$$

$$\begin{aligned} \bar{d}_{i,j} = & \left(\frac{4}{\Delta\tau} - \frac{2(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}}{\Delta x^2} \right) h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \frac{2k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}}{\Delta x^2} h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \\ & + \frac{2k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}}{\Delta x^2} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \frac{k_{i-0.5,j}\tilde{h}_{i-1,j}^2}{\Delta x^2} + \frac{(k_{i-0.5,j} + k_{i+0.5,j})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta x^2} - \frac{k_{i+0.5,j}\tilde{h}_{i+1,j}^2}{\Delta x^2} - \\ & - \frac{k_{i,j-0.5}\tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y^2} + \frac{(k_{i,j-0.5} + k_{i,j+0.5})\tilde{h}_{i,j}^2}{\Delta y^2} - \frac{k_{i,j+0.5}\tilde{h}_{i,j+1}^2}{\Delta y^2} + 2\xi_1\eta W_{i,j}^{n+1}, \end{aligned}$$

(1.15) ва (1.18) тенгламалар системасини прогонка методидан фойдаланиб ҳисоблаймиз:

Ох йўналишда

$$h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} = \alpha_{i+1,j} h_{i+1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \beta_{i+1,j}, \quad (1.19)$$

Оу йўналишда

$$h_{i,j}^{n+1} = \bar{\alpha}_{i,j+1} h_{i,j+1}^{n+1} + \bar{\beta}_{i,j+1}, \quad (1.20)$$

каби рекуррент формулалардан фойдаланамиз.

(1.19) ва (1.20) ларда $\alpha_{i,j}$, $\beta_{i,j}$, $\bar{\alpha}_{i,j}$, $\bar{\beta}_{i,j}$ ларни топиш учун i ни $i-1$ га, j ни

$j-1$ га алмаштирамиз:

$$h_{i-1,j}^{n+\frac{1}{2}} = \alpha_{i,j} h_{i,j}^{n+\frac{1}{2}} + \beta_{i,j},$$

$$h_{i,j-1}^{n+1} = \bar{\alpha}_{i,j} h_{i,j}^{n+1} + \bar{\beta}_{i,j}$$

бу ерда $\alpha_{i,j}$, $\beta_{i,j}$, $\bar{\alpha}_{i,j}$, $\bar{\beta}_{i,j}$ лар прогонка коэффициентлари

Ҳисоб китоблардан сўнг Ох, Оу йўналишлари учун прогонка коэффициентларини топиш учун қуйидаги рекуррентлардан фойдаланамиз:

$$\alpha_i = \frac{c_{i-1,j}}{b_{i-1,j} - a_{i-1,j}\alpha_{i-1,j}}, \quad \beta_i = \frac{d_{i-1,j} + a_{i-1,j}\beta_{i-1,j}}{b_{i-1,j} - a_{i-1,j}\alpha_{i-1,j}}, \quad (1.21)$$

$$\bar{\alpha}_j = \frac{\bar{c}_{i,j-1}}{\bar{b}_{i,j-1} - \bar{a}_{i,j-1}\bar{\alpha}_{i,j-1}}, \quad \bar{\beta}_j = \frac{\bar{d}_{i,j-1} + \bar{a}_{i,j-1}\bar{\beta}_{i,j-1}}{\bar{b}_{i,j-1} - \bar{a}_{i,j-1}\bar{\alpha}_{i,j-1}}, \quad (1.22)$$

$-kh \frac{\partial h}{\partial n} \Big|_r = \gamma(h_0 - h)$ каби чегаравий шартни фиктив бўлган фильтрация

худуди учун ҳар бир йўналишлар учун чегаравий шартларни қуйидагича қилиб оламиз ва ошқормас схемани қўллаб аппроксимация қиламиз:

Ox йуналиши бўйлаб:

$$\frac{\partial h}{\partial x_i} \Big|_{x_i=0} = -\frac{k_0 h_0}{2L} k_{1,j} \frac{2\tilde{h}_{1,j} h_{1,j}^{n+\frac{1}{2}} - \tilde{h}_{1,j}^2 - 2\tilde{h}_{0,j} h_{0,j}^{n+\frac{1}{2}} + \tilde{h}_{0,j}^2}{\Delta x} = \gamma(h_0 h_{1,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_0), \quad (1.23)$$

$$\frac{\partial h}{\partial x_i} \Big|_{x_i=1} = \frac{k_0 h_0}{2L} k_{l,j} \frac{2\tilde{h}_{l,j} h_{l,j}^{n+\frac{1}{2}} - \tilde{h}_{l,j}^2 - 2\tilde{h}_{l-1,j} h_{l-1,j}^{n+\frac{1}{2}} + \tilde{h}_{l-1,j}^2}{\Delta x} = \gamma(h_0 h_{l,j}^{n+\frac{1}{2}} - h_0), \quad (1.24)$$

Oy йуналиши бўйлаб:

$$\frac{\partial h}{\partial y_i} \Big|_{y_i=0} = -\frac{k_0 h_0}{2L} k_{i,1} \frac{2\tilde{h}_{i,1} h_{i,1}^{n+1} - \tilde{h}_{i,1}^2 - 2\tilde{h}_{i,0} h_{i,0}^{n+1} + \tilde{h}_{i,0}^2}{\Delta y} = \gamma(h_0 h_{i,1}^{n+1} - h_0), \quad (1.25)$$

$$\frac{\partial h}{\partial y_i} \Big|_{y_i=1} = \frac{k_0 h_0}{2L} k_{i,j} \frac{2\tilde{h}_{i,j} h_{i,j}^{n+1} - \tilde{h}_{i,j}^2 - 2\tilde{h}_{i,j-1} h_{i,j-1}^{n+1} + \tilde{h}_{i,j-1}^2}{\Delta y} = \gamma(h_0 h_{i,j}^{n+1} - h_0), \quad (1.26)$$

Юқорида таъкидланганидек, муаммо чизиқли бўлмаган қисман дифференциал тенгламалар ёрдамида тасвирланган, уни итерацион усул ёрдамида ечиш мумкин. Такрорланувчи жараённинг яқинлашув шартлари қуйидагилардан иборат:

$$\left| (h_{i,j}^n)^{(s+1)} - (h_{i,j}^n)^{(s)} \right| \leq \varepsilon.$$


бу ерда s – итерациялар сони, ε – итерацион жараённинг аниқлиги.

III. Муҳокама. Тадқиқотлар давомида олинган натижалар асосида масалани ечиш сув олиш иншоотининг эксплуатацияси шароитида амалга оширилди. Сув қатламининг параметрларини аниқлаштириш ва ер усти ва ер ости сувлари ўртасидаги миқдорий муносабатларни аниқлаш учун бир қатор гидрогеологик қирқим ёки кесмада бундай вазифалар ҳал қилинди. Қирқимда тоғ жинслари тафсилотларини аниқлашни ҳал қилишнинг асосий мақсади фильтрациянинг ер усти сув оқимлари билан ўзаро боғлиқлигини аниқлаш, улардан сизилиб йўқотишларини аниқлаш, шунингдек оқимнинг коэффициенти

хусусиятларининг баъзи тафсилотларини аниқлаштириш, яъни сизилиш коэффициенти ва суюқликни йўқотиш коэффициенти ва мувозанат элементларини аниқлаштиришдир.

Бу ҳолда дастлабки маълумотлар 2018 йил учун тузилган сув таъминоти ва гидроизогипс баланси сифатида олинади, сув бериш коэффициенти $\mu = 0,15$. Бир қатор ностационар вазифаларни ҳал қилиш натижасида сув бериш коэффициенти ва сув баланси модел бўйича танланади. Дала тадқиқотларига кўра, сув бериш коэффициенти 0,10 дан 0,20 гача.


Ушбу интервалда энг мақбул параметр қийматлари танланади. Координатлари (x, y) бўлган бешта танланган характерли нуқталарда ҳисоблаш тажрибалари; (28, 32); (56, 32); (43, 24); (28, 16); (56,32) қиймати $\mu = 0.10-0.19$ даражаларнинг минимал оғишларини ва вақт фарқи бўйича Н нинг барқарор тебранишини кўрсатди.



1-расм. Сув сатҳининг стабиллашуви графиги ($\mu = 0,12 - 0,13$)

Сув сатҳининг стабиллашуви 120 кунга тўғри келади. $\mu < 0.20$ қийматида даражалар фарқи катта ва $\mu = 0,12 - 0,13$ қийматида у деярли барқарорлашади, яъни, ўзгармайди (4.9-расм). Шундай қилиб, ҳудуд модели учун суюқликни

йўқотишнинг оптимал қиймати 0,12 га тенг. Филтрланиш коэффициентларининг қийматларини аниқлаштиришда 2019 йил июл-август ойларида гидроизогипс ва ер юзининг мутлақ баландликлари асос қилиб олинди (4.10-расм). Баланс моддалари: участканинг шимолий-шарқий қисмида $Q = const$ ер ости сувлари оқими, моделнинг юқори чегараси; соҳанинг жанубий қисмида, моделнинг пастки чегарасида чиқиш; участканинг ичкарасида инфильтрация ва мавжуд сув олиш жойлари билан тортиб олинган жой, шарқий ва ғарбий қисмларда, ер усти сув оқимлари билан боғланиш Q_k ёки Q_p ўтказувчан чегарадир.



2. расм. Сув сатҳининг барқарорлик графиги ($\mu = 0,12 - 0,13$)

Хулоса. Худудда инфильтрация характерли ва ер ости суви филтрланиши йўқотишлари ва дренажнинг ҳар бир чизиқли км учун 50-100 л/с оралиғида қийматини аниқлашга асос берди. Моделнинг етарлилиги бир йил давомида эпигноз муаммони ечиш орқали текширилди, дастлабки ҳолат 2018 йилги гидрогеологик шароит бўлиб қабул қилинди ва 2019 йилда кузатув пунктларида дала ўлчовлари натижалари билан таққослаш амалга оширилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Джуманов Ж.Х., Юсупов Р.А., Ахралов Ш.С., Эгамбердиев Х.С., Исроилов У.Б. Сув хўжалик фаолияти ўзгарган шароитларда ер ости сувлари ҳаракатини математик моделлаш (Зарафшон воҳасининг Дамхўжа сув олиш иншооти мисолида)/ Муҳаммад Ал-Хоразмий Авлодлари илмий-амалий ва ахборот-таҳлилий журнали. –Тошкент. 2019.«Fan va texnologiya» нашриёти 4(10). 132-137 стр. (05.00.00; 10)

2. Джуманов Ж.Х., Юсупов Р.А., Эгамбердиев Х.С. Математическое моделирование процессов геофильтрации подземных вод в многослойных средах (на примере Китабо-шахрисабзского месторождения подземных вод)/ ВЕСТНИК ТУИТ. -Ташкент. ТАТУ. 3(51) 2019, -С.87-98 (05.00.00; 31)

3. Джуманов Ж.Х., Юсупов Р.А., Эгамбердиев Х.С. ва б. Многомерный подход к моделированию фильтрационных процессов гидрогеологических систем. //«O'zbekiston zaminini («Земля Узбекистана»)» илмий-амалий ва инновацион журнал. 2019 йил 2-сон. O'ZDAVYERLOYUNA institute. Тошкент-2019.

4. Джуманов Ж.Х., Юсупов Р.А., Эгамбердиев Х.С. ва б. К вопросу практического применения «Big DATA» в гидрогеологических исследованиях// Пятая Международная научно-практическая конференция «Big DATA and Advanced Analytics. Big DATA и анализ высокого уровня» Минск. Республика Беларусь. 13-14 марта 2019 года. – Б.100

5. Джуманов Ж.Х., Бегимкулов Д.К., Хушвактов С.Х., Эгамбердиев Х.С. Разработка типовых компьютерных моделей формирования запасов месторождений подземных вод в маловодных период. // “Ахборот ва телекоммуникация технологиялари ривожланиши истиқболлари” Республика илмий-техник конференция материаллари. Қарши 2018

6. Джуманов Ж.Х., Эгамбердиев Х.С. Разработка и внедрение устройств автоматизированных измерений параметров подземной гидросферы. //

Математик моделлаштириш, алгоритмлаш ва дастурлашнинг долзарб муаммолари. Республика конференцияси. Тошкент 2018 йил 17-18 сентябр

7. Джуманов Ж.Х., Узаков У.З., Эгамбердиев Х.С. Уч ўлчамли фазовий маълумотлар моделлари ва тузилмалари. “Ахборот ва телекоммуникация технологиялари ривожланиш истиқболлари” Республика илмий-техник конференция материаллари. Қарши 2018

8. Джуманов Ж.Х., Юсупов Р.А., Эгамбердиев Х.С., Ахралов Ш.С. Программа прогнозирование движения подземных вод. Агентство по интеллектуальной собственности Республики Узбекистан Свидетельство об официальной регистрации программы для электронно-вычислительных машин. –Ташкент. 2019. №DGU 2019 0843.

9. Самарский А.А., Николаев Е.С. Методы решения сеточных уравнений. М.:Наука,1978.-590с.

